

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

ZULAYHO ABDURAHMON

NAVOIYSHUNOSLIK MANZILLARI

**"SARVARPRINT" NASHRIYOTI
Toshkent – 2024**

UO'K: 821.161.1

KBK: 628.02

A 96

**Zulayho Abdurahmon (Rahmonova). Navoiyshunoslik
manzillari /monografiya / "SARVARPRINT" nashriyoti
Toshkent – 2024, 140 bet**

Mazkur risolada ulug' shoir Alisher Navoiy asarlaridagi irfoniy maslak va obrazlar tahlil etilgan. Shoirning turkiy til taraqqiyotidagi o'rne alohida urg'ulangan. Shuningdek, buyuk navoiyshunoslar tadqiqotlaridagi yutuqlar e'tirofiga bag'ishlangan talqinlar mavjud. Kitob adabiyotshunoslar, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, umuman, barcha adabiyot ixlosmandlariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

Maqsud ASADOV

– filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sayfiddin RAFIDDINOV

– filologiya fanlari nomzodi

Nasiba BOZOROVA

– filologiya fanlari nomzodi

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashining
2023 yil 10 dekabrda №7 qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-684-15-9

© Zulayho Abdurahmon., 2024 y

© "SARVARPRINT" NASHRIYOTI

IRFON, G'OYA VA TALQIN

Fors va arab so'fiyona she'riyatining paydo bo'lishi va tadrijiy bir shaklda mukammallikka erishuvi Bobo Tohir (vaf. 1010), Abu Said Abul Xayr (vaf. 1049), Xoja Abdulloh Ansoriy (vaf. 1088), Hakim Sanoiy (vaf. 1131), Umar Al-Foriz (vaf. 1235) nomlari bilan bog'liq. Ular tasavvufiy tushunchalarning she'riyatdan o'rin egallashida boshlovchilardan bo'ldi. Turkiy adabiyotdagi ilk ma'rifiy dostonlar "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" zuhdiy g'oyalarni aks ettirsa-da, chinakam turkiy tariqat asoschisi va turkiy so'fiyona she'riyatning boshlovchisi Xoja Ahmad Yassaviydir¹. Yassaviyshunos Ibrohim Haqqul bu haqiqatni "Ahmad Yassaviy" risolasida: "Ahmad Yassaviy o'z ona tilini birinchi bo'lib tariqat tili maqomiga ko'tardi. Shuning uchun she'rlaridagi har bir so'z va har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiydir"², – deya ilmiy asoslagandi. Ta'kidlash joizki, Ahmad Yassaviy asarlari asrlar osha xalq tili, xalq ohangiga yaqinligi bilan butun turkiy xalqlar qalbidan chuqur o'rin egalladi. Shubhasiz, turkiy tasavvuf adabiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishi Yassaviy nomi bilan bog'liqdir. Mahmud As'ad Jo'shon hazratlari "... Yo'lni hazrat Yassaviy ochgan, Yunus Emro esa shu yo'ldan yurganlardan biri"³, – degan edi. Darhaqiqat, Yunus Emro hikmatnavislikda ustodi Ahmad Yassaviy kabi so'fiyona she'riyatga, irfoniylar tasavvufiy adabiyotga turkiy tilning jozibasini olib kirdi. Tasavvufiy zavq-shavq uning ilohiylarida turkona ruhni aks ettirdi. She'r ritmi, jazba-yu hassosiyat, axloq tarbiyasida turkiy

¹ Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2001. – B.155.

² Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2001. – B. 3.

³ Jo'shon M.A. Haqiqiy sevgi. Tarjimon: M.Kenjabeq. – Toshkent: Movarounnahr, 2000. – B.5.

evrilish bo'ldi. Natijada, turkiy til orqali tasavvuf hikmatlari xalq yuragiga yanada yaqinlashdi.

Biroq badiiy-irfoniy adabiyotdan so'z ketganda, turkiy olamda Alisher Navoiyning alohida o'rni bor. Mutasavvif shoir tasavvufiy maslak va tushunchalarni bemisli san'atkorlik bilan ifoda etdi. Avvalo, mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodiyoti Alloh taolaga muhabbat, Unga chin qullikning ifodasidir. Aslida bu asarlar bani basharning nafsini tanishi hamda ma'rifatulloh va ishqullohga erishishini ko'rsatadi, biroq bu talqinlarda turkiy ruhning mavjudligi muhimdir. Navoiy adabiy tilda forsiy va arabiy so'zlarni keng qo'lladi va ta'kidlash joizki, ularning turkiy tilda ishlatilishini qonunlashtirdi. Biroq unda turkiy tasvir va talqin hamisha ustuvor bo'lgan. Avvalo, Navoiy Yaratuvchi, Birubor Alloh taoloni ba'zan turkiy Tengri lafzi bilan ataydi.

Tengri chun odamni maxluq ayladi,

O'zni oshiq, oni ma'shuq ayladi⁴, –

satrlarida shoir Yaratuvchi, Odam, ishq, oshiq, ma'shuq haqida komil bir tasavvur uyg'otgan. Adabiyot hamida axloqqa erishish, xotami nabiylar Rasululloh (s.a.v) xulqi bilan xulqlanishdir. Albatta, bu insonning foniylar dunyodagi ma'naviy valodati hisoblanadi. Ushbu ma'naviy safar natijasida hadis sharifda aytilganidek: "Allohga xuddi Uni ko'rib turgandek, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turgandek ibodat qilish"ga, ya'ni Ehson maqomiga erishiladi. Shu ma'noda tariq, tariqat tasavvufda bir istilohdir. Navoiy tariqat mazmun-mohiyatini turkiy "Yo'l" so'ziga yuklaydi. Va uning asarlarida "yo'l" istiloh darajasiga ko'tarilib, hatto "Haq yo'li", "Tengri yo'li" birikmalari ham qo'llaniladi. "Mahbub ul-qulub"da o'qiymiz: "Tavakkul Haq yo'lida vosita

⁴ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.181.

asbobin raf' qilmoqdur va vasila hijobin daf' qilmoq... Tavakkul ahlikim, maqsud vodiysig'a qadam qo'yubdurlar yo'l zodi Haq xoni ehsonidin bilibdurlar". Nafs tarbiyasidagi ma'naviy yo'l xaritasi "Lison ut-tayr" asarida bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Va bu yo'llarni bosib o'tishdagi hollar tasvirlangan. Bir o'rinda shoir shunday deydi:

*Yo'l g'amidur maqsadu maqsud uchun,
Kim yer ul g'amni ko'ngul behbud uchun.
Ondakim yo'qtur bu g'am — er ermas ul,
Zod g'amdin topti qat' etgan bu yo'l⁵.*

Bu yo'lning ozig'i dard-u balo. Uni chekkuvchi esa qalbdur. Navoiychalik turkiy Ko'ngil so'zini ta'rif tavsif aylagan boshqa shoirni uchratish mushkul. Tasavvuf ishq va irfon safaridir. "Hayrat ul-abror" dostonida esa bu yo'lchilikning betakror tasvirini ko'ramiz. Ma'lumki, dostonning XVII bobi "Ko'ngil ta'rifida..." deb ataladi va shoir azalda Xoliqning maqsadi Odami xokiy emas, balki ko'ngil ganjinasi ekanligini, shu bois kasbi kamolot aynan ko'ngilga, ruhga xosligini ta'kidlaydi:

*Solik ani arshi muallo dedi,
So'fi ani olami kubro dedi.
Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.
Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh⁶.*

Solik uchun "arshi muallo", so'fiy uchun "olami kubro" sanalgan, xaloyiqqa sajdagoh olam Ka'basidan ko'ra Xoliqqa jilvagoh ko'ngil ka'basi qadrliroq ekanligi ko'ngil safarining badiiy talqini bo'lgan "Lison ut-tayr"da esa shunday bayon qilinadi:

⁵ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. — Toshkent: Fan, 1996. — B.177.

⁶ Alisher Navoiy. Badoe' ul-bidoya. MAT. 1-jild. — Toshkent: Fan, 1990. — B.273.

*Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o'zin pinhon qilib.
...Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz.
G'ayri insonkim qilib oni qabul...
Ham zalum aylab xitobin, ham jahul⁷.*

Anglashilmoqdaki, Navoiy butun koinotni yaratishdan maqsad inson, insondan g'araz esa maxzani irfon, Allohning omonatini qabul aylagan KO'NGIL ekanligidan bahs etmoqda. Bu haqda Qur'oni karimda ham shunday deyiladi: "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)". Arz-u samo, buyuk tog'lar qo'rqib qabul etmagan omonatni ahli zohir – Shariat, ahli botin esa – Ishq, deya tafsir etdilar. Atoyi hazratlari ham:

*Yer, ko'k tahammul aylamagan ishq amonatin,
Joni hazini xastayi Odamg'a bog'ladi,–*

deydi. "Ham zalum, ham jahul"ligi sabab omonatni qabul qilgan Inson Allohning yerdagi xalifasi bo'ldi. Tariqat ko'ngilni omonatga xiyonat etmaslik uchun tarbiyat etsa, adabiyot uning holat va kechinmalarini ifoda etadi. Adabiyotda Ko'ngil sayridan jozibalibroq hayrat yo'qdir. Navoiy buni ko'ngil hayratlarida ko'rsatib beradi. Natijada, turkcha ko'ngil so'ziga irfoniy mazmun baxsh etadi. "Avvalg'i hayrat"da hali vujudga kirmagan ko'ngil Adamdan malak olamiga tushib, uni sayr etadi. Birinchi hayrat – Xudoning borligini anglash, Yaratuvchisi kimligini fikr etish mushohada maqomidir. Ko'ngil "Ikkinchi hayrat"ida malak olamidan malakut olamiga tushadi hamda to'qqiz falakni kezadi.

⁷ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.9.

To'qqiz falakning bari Allohning zikrida ekanligini ko'radi va bu holdan yanayam hayratga to'ladi. Ikkinchi hayratdagi tasvirlar nafs poklanib, ruhga sirdosh bo'lgan oshiq qullarning sayridir. Uchinchi daraja – nafs mulhamadagi zokir nafaqat dunyoviy, balki uhroviy istaklardan ham voz kechadi. Basirati ravshanlashgan sayin olamlararo sayr etadi va butun koinotning zikridan ogoh bo'ladi. "Uchinchi hayrat"da esa Ko'ngil malakut olamidan badan mulkiga sayr etadi. Ko'ngilga doir tashbeh, ramz-u majozlarning son-sanog'i yo'q. Biroq "Hayrat ul-abror"da o'ziga xos murojaatga guvoh bo'lamiz. Navoiy hali manzil makonini topmagan ko'ngilga "Xoja" deya murojaat etadi. Zero, insonning insonligi, uning yaratilishidagi maqsadga e'tibor qaratsak, ko'ngilning mohiyatini ushbu ta'rif to'la ochib beradi. Ya'ni insonning sohibi, xo'jayini ko'ngildir. Mabodo u vujudga qaram bo'lsa, ana shunda adashish, jaholat boshlanib, inson zalolatga yuz tutadi. O'zligidan, oliy haqiqatdan uzoqlashadi. Adamdan malak, malakdan malakut, malakutdan vujud olamiga kelgan ko'ngilning sayri qachon tugaydi? Tasavvuf va adabiyot mana shu savolga javob beradi va insonni so'nggi sayrga tayyorlaydi. Abadiyat tushunchasi va unga erishish imkoniyati bilan inson maxluqotlardan ajraladi. Insonlar abadiyat, hali oldinda boqiy hayot borligini anglashi bilan hayvondan farq qiladi. Bu yo'lchilikdan asosiy maqsad – abadiyat ozig'ini tayyorlash. Adabiyotning maqsadi insonga nafsini tanitish, zotan "Nafsini tanigan Robbini taniydi". Haqni tanish oson emas, to kishi nafsiga orif bo'lmaguncha, o'zini ham, Robbini ham taniy olmaydi. Ko'ngil Allohni tanimasa, har kimni, har narsani sevadi, chunki u sevgi uchun yaratilgan. Qalb Xoliqqa qullik qilmasa, maxluqqa qul bo'ladi, chunki u "*abd*" (*qul*) sifati bilan yaratilgan. Ko'ngilni xojaligini anglash, shoir nazdida, nafsni poklashdir. Navoiyda nafs ham aksariyat turkiy

“o‘z”, “o‘zlik”, “menlik” so‘zlari bilan beriladi. Turkiy tilda o‘z, o‘zlik so‘zlariga katta e‘tibor berishgan. “Devoni lug‘otit turk”da “o‘z”ning shakldosh so‘z sifatida ma‘nolari izohlanadi. Jumladan, uning insonning yurak va qoriga tegishli a‘zolar ekanligi, shuningdek, “o‘z qonuqi”ning – gavda ichida harakat qiladigan narsa, ruh ma‘nolari ham beriladi. Qur’oni karimda nafs kalimasi uch xil sifat bilan ta’riflanadi: avvalo, “Hech shubhasiz, nafs – Robbim rahm aylamasa, faqat yomonlikka qistovchi (Yusuf: 12/53)” ammora nafs, ikkinchi “Malomatchi nafsga qasamyod etamanki, (qayta tirilib hisob-kitob qilinursizlar (Qiyomat: /2)!”) lavvoma nafs va nihoyat, “Ey xotirjam, sokin jon. Ato etilgan ne‘matlardan rozi bo‘lgan va Alloh taolo tomonidan rozi bo‘lingan holingda Robbingga qaytgin (Fajr: 89/27-28)!” deya ta’riflangan roziya nafsdir. Navoiy asarlarida mana shu nafslar “menlik”, o‘zlik” so‘zlari bilan beriladi. Nafsning tasfiyasi o‘zlikni mahv etish bilan belgilanadi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy lirikasida o‘z, o‘zluk kalimasi irfoniy istiloh darajasiga ko‘tarilish barobarida turli ma‘no qirralarini namoyon qilgan. Yangi badiiy talqinlar yuzaga kelgan. Masalan, “Badoyi’ ul-bidoya” devonidagi:

Erur maqsad yiroq, vodi y uzun, tun tiyra, yo‘l bo‘rtoq

*Bu yo‘lda salb etib **o‘zluk** yukin, **o‘zni** sabukbor et,⁸ -*

kabi baytlarda o‘zluk so‘zi tavhid yo‘lchiligida bir og‘ir yuk ekanligi, undan qutilish, yengish zarurligi uqtiriladi. Bunday misollarni ko‘plab uchratish mumkin. Ammo Navoiy har bir asarining maslagi, janriy mohiyatidan kelib chiqqan holda ifodalar tanlaydi. She’riyatida lirik qahramonning ma’naviy hol va maqomlarining izhori sifatida o‘z, o‘zluk turkiy so‘zlaridan foydalansa, dostonlarida nazariy xulosalarni o‘rtaga tashlaydi:

⁸ Alisher Navoiy. Badoe’ ul-bidoya. MAT. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B.96.

*O'zni o'zluk qaydidin aylab xalos,
Topib o'zdin o'zgalikka ixtisos.
Menu o'zluk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo Rab, yetur.
Menda, yo Rab, qo'yma menlikdin nishon,
O'zlugungda mahv qil domonkashon⁹.*

O'zlukni mahv etib, o'zlukka yetish tavhid vodiysi fano maqomi bilan bog'liqligiga guvoh bo'lindi. Solikning shunday baland maqomida o'zluk haqida bahs yuritiladi:

*Ey Navoiy, tashlab o'zlukni, fano yo'lig'a kir-
Kim, erur ul yo'lda egningga bu og'ir yuk balo.*

Jumladan, ishq bilan bog'liq hollarda o'z, o'zlik, ya'ni nafsdan so'z ochiladi. Zero, o'zlik tarbiyasi ishq bilan boshlanadi. Qalblarda ishq urug'i tushgach, inson o'zlik mohiyati haqida tafakkur qilishni boshlaydi. Shuningdek, o'zlikni yengib, o'zlikka yetish mashaqqatida kuch topa oladi.

Tavhid yo'lida o'zluk og'ir yuk ekanligi, undan xalos bo'lgachgina fano eshiklari ochilishini shoir qayta-qayta ta'kidlaydi. Tavhid maqomi ham turkcha *"birlik"* kalimasi bilan beriladi:

*Kim Rasulullohg'a bo'lg'och bu maqom,
Kim Buroqin ayladi gardunxirom.
Yetti birlik gavharidin toj anga,
Bo'ldi vahdat poyasi me'roj anga¹⁰.*

"Lison ut-tayr"dagi bu go'zal hol izohini anglatuvchi *"birlik"* lafzi quyidagi o'rinda ham tavhidga ishora qilib, tavhid maqomini anglatadi:

*Oshiqi mahzunu ma'shuqi hazin,
Bo'ldilar ishrat uyida hamnishin.*

⁹ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.19.

¹⁰ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.234.

*Andoq o'ldi birlik oyini ravo,
Kim ikilik o'rtadin bo'ldi sivo*¹¹.

Ma'naviy safarda riyozat chekib, nafsini tarbiya qilgan orif zotlarni ham turkcha *er, eran* deb ataydi. “Ma'lumki, jahondagi aytarli har bir xalq, el va millatning o'ziga xos fe'l-atvori, asosiy fazilatini ifodalaydigan so'z, istiloh va timsollari bo'ladi. Er kishi, erkak, mard, askar, bahodir, himmatli, ilohiy fayz va xosiyat sohibi, rahnamo kabi o'nlab ma'nolarda qo'llanib kelingan er va eran kalimasi turkiy xalqlar tili va tarixida shunday mavqega egadir. Boshqasini aytmaganda ham turkiy yozma va og'zaki adabiyotdan er, eran, alp eran, g'ayb eranlari obrazlari chetga surilsa, uning nafaqat milliy-tarbiyaviy, balki umuminsoniy mohiyati ham kuchsizlanib, hatto mahdudlashib qoladi. Ular tilga olinganda mumtoz she'riyatdan mardlik, matonat, hikmat, jasorat kabi boqiy haqiqatlar yorishib, yolqinlashib kelganday tuyuladi”¹², – deydi I.Haqqul. “Turklar va mo'g'ullarning qadimgi dini” kitobida er so'zi haqida esa: “... Turkchada er nomining berilishi, albatta, ruhning butunlikka, mukammallikka erishganini belgilash uchundir. Bu ot aslida ruhning o'zidir. Turklar bu so'zga muhim ahamiyat berganlar. O'rxun yozma yodgorliklarida bu ahamiyat quyidagicha ifodalanadi: “Onam xotunning baxtiligi uchun eng kichik avlodim Kultegin ER otini olmishdir”, – deyiladi. Sayri suluk – ruh sayri ekan, manzilni qat' etgan, maqsadiga erishgan fano ahli – eranlardir... Mahmud Qoshg'ariy esa “eran – er so'zining ko'pligidir”, – deydi. Eran mumtoz adabiyotimizda murshidi komil yoki insoni komilning umumlashma obrazi. Navoiy erlarni shunday ta'riflaydi: “Shariat – jodaedur tuz, anda xoh kecha yuru, xoh kunduz. Sirotedur, bag'oyat mustaqim, anda oziqmoqdin ne vahm va ne biym. Har

¹¹ Alisher Navoiy. MAT. Lison ut-tayr. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.266.

¹² Haqqul I. Navoiy ijodida er va eran obrazi. O'TA. 2019 yil 1-son. – B.3.

kimki, ul yo'lg'a ozim bo'lg'ay, ikki jahon saodati anga mulozim bo'lg'ay. Andin chiqqan itti, tuz borg'on maqsadg'a yetti. Har solikkim, maqsadg'a yetibdur, bu yo'ldin chiqmay ketibdur. Qildin inchka, qilichdin itik yo'ldur. Har kim bu yo'lni mardona qat' qilsa, er uldur!" Demak, er so'zi turklarda ruh bilan bog'liq o'z qudrati va muqaddasligiga ega. Er faqat erkak emas, balki ruhiy – ma'naviy kamolotga erishgan, nafsini mag'lub etgan ma'rifat sohibidir.

Shubhasiz, Alisher Navoiy o'z ona tilining targ'ibotchisi va turkiy tafakkur yalovbardoridir. Turkiy tilning, deyarli, ming yillik taraqqiyotida "hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas". Shoir badiiy janrlarning barchasida turkiy tilda ijod qilib, mazkur tilning badiiy, leksik, grammatik va stilistik imkoniyati kengligi va rang-barangligini ham amaliy, ham nazariy isbotlab berdi. Navoiy an'anaga, ularning til materiallariga tayandi, turkiy urug' va qabilalarning shevalaridan keng foydalandi. Navoiy ijodida turkiy sheva va tillar qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki buyuk ijodkor tasavvurida juda ko'p shevali turkiy til, xuddi shunday ko'p shevali arabiy va forsiy tillar kabi imkoniyati bemisl ekanligi dalillanadi. Shuning uchun Navoiy o'zi bilgan va eshitgan shevalar, turkiy dialektlar va tillar materiallarini birday aralash qo'llaydi. Bu bilan qalblarni fath etgan Navoiy asarlari barcha turkiy tillarga mansubligini o'zi ham e'tirof etgan:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg'a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham,*

Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham.

Navoiy ijodiyotidagi ma'no va hol uyg'unligi, tasvir va bayon sehri ham turkiy tilning imkon va imtiyozlarini ko'rsatib berdi. Asarlari bilan tasavvufiy she'riyat obrazlar olamini kengaytirib, lirik qahramonning ruhiy rutbasini yuksaltirdi. "Siroj ul-muslimin", "Nazm ul-javohir", "Munojot" kabi asarlari ham diniy tasavvurni badiiy tafakkur vositasida shakllantirishga xizmat qilganligi ma'lum. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" hamda "Xamsa" tarkibidagi dostonlari esa epik tafakkur kengligi, turkiy ruhiyatning ustunligi bilan ajralib turuvchi sanoqli asarlardandir. Navoiyning turkiy tilni she'riyat tiliga aylantirish maqsadi bilan birga turkiy ruhni berishdagi imkon-imtiyozlardan foydalanishi ham alohida ahamiyatga ega. Zero, xalq o'z tilidagi yaqinlik tuyg'usini boshqa biror tilda his qilmaydi. Bu so'zlardagi ma'no qatlami, mohiyat asosini boshqa biror til so'zi bilan almashtirish mumkin emas. Arab va fors adabiyotining ta'sirida turkiy diniy-tasavvufiy adabiyotning paydo bo'lishi alohida bir hodisa bo'lganligidek, turkiy so'zlarning irfoniylar istiloh sifatida qo'llanilishi ham alohida ahamiyatga ega. Til millatning ruhini belgilaydi. Qalb o'rnida *ko'ngil*, tavhid ma'nosida *birlik*, tariqat mohiyatidagi *yo'l*, nafs ma'nosida *o'z*, *o'zlik* kabi so'zlarning qo'llanishida xalq qalbiga yaqinlashuv barobarida ma'no qirralari ham kengayadi. Turkiy so'zlarning irfoniylar istiloh sifatida qo'llanilishi ko'proq hikmat va ilohiylarda ko'zga tashlanadi. Ammo Alisher Navoiy ijodida bu ifodalar yana-da san'atkorona mahorat bilan qo'llangan.

Xulosa qilib aytganda, *o'z*, *o'zlik*, *menlik*, *yo'l*, *birlik*, *ko'ngil*, *er*, *eran* kabi so'zlarning irfoniylar istilohga aylanishi mavzusi ulkan tadqiqotni talab qiladi va turkiy til imkon va imtiyozlarini ochib berishga xizmat qiladi.

SHARIAT VA TARIQAT MUSHTARAKLIGI

Adabiyot, ayniqsa, irfoniyl adabiyot maqsad-mohiyati, obrazlar olamini ilohiyot va tarixga oid bilimlarsiz teran hamda xolis tahlil-u talqin etish aslo mumkin emas. Tasavvuf manbalarida ham shariat amrlarini ado etmasdan tariqat amaliyotiga o'tish, ma'rifat mushohadasiz esa haqiqat sirlariga yetish imkonsizligi ta'kidlangan.

Mutafakkir va mutasavvif ijodkor sifatida Alisher Navoiy ham inson kamolotidagi arkon-u usuldan so'z ochar ekan, avvalo, shariat, so'ngra uning mantiqiy davomi o'laroq tariqat xususida bahs etadi. Guyo "qalam yozishiga arzirli" deya tan olgan kitoblaridagidek, uning asarlarida ham suvrat va ma'no, zohir va botin, vujud va ruh, shariat va tariqat har doim mushtarak. Bu shoirning ijodiyoti, xususan, "Hayrat ul-abror", "Nasoyim ul-muhabbat", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari hamda lirikasida ravshan ko'rinadi. Ma'lumki, Navoiyning tasavvufga doir fikr-qarashlarini oydinlatuvchi asarlaridan biri valiyilar hayoti haqida xabar beruvchi "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidir. Muallif valiyilar hayoti haqidagi ma'lumotlardan oldin qisqacha tasavvuf nazariyasiga to'xtaladi. Haq oshig'i soliklar haqidagi qarashlarini *"... har nimadin bir miqdorni olsalar, bir miqdori qolur, shariatdin o'zgaki – bir miqdori ondin kam bo'lsa, hech nima qolmas. Bu toifaning shariat rioyati va sunnat mutobaatin ulug'roq ishlari yo'qdur"*¹³, degan qat'iy xulosa bilan boshlaydi. Darhaqiqat, suluk ahli shariatga rioya qilish va sunnatga ergashishdan ulug'roq va foydali amalni tan olishmagan. Kubraviya tariqati vakili Najmiddin Doya esa tariqat ostonasiga shariat yetaklab kelishini shunday izohlaydi:

¹³ Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 16.

“Mashoyixlarga ko‘ra, nafs bir umr tazkiya etilsa ham, nihoyasiga yetmaydi va kishida ruh tahliyasi boshlanmaydi. Bu sababdan nafs oldin shariat rishtasi bilan qattiq bog‘lanishi shart... “Menga yurib kelganga men yugurib kelaman” sirri bilan Haqning lutflari karam istiqbolidan tug‘iladi hamda uluhiyat fazlining fayzi va ilohiy tasarrufning jazbalari ketma-ket keladi”. Albatta, ma‘rifatparvar Navoiy ham bu xususida goh ochiqdan-ochiq, ba‘zan ishorat tili bilan barcha asarlarida fikr-mulohazalarini aytgan. Zero, haqiqiy adabiyot aslida odob-axloq asosini belgilab, unga targ‘ib etadi, unga erishish yo‘llarini ko‘rsatadi. Umri so‘ngida yozilgan “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy yanada millatning murabbiy bir ijodkori sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Asardagi har bir fikr muallifning hayot so‘ngidagi xulosalariga o‘xshaydi. Komil inson, ya‘ni eranlar maqomiga ko‘tarilish qildan ingichka, qilichdan keskir shariat yo‘lini bosib o‘tish bilan qo‘lga kiritilishini aytib shunday deydi: “Shariat – jodaedur tuz, anda xoh kecha yuru, xoh kunduz. Sirotedur, bag‘oyat mustaqim, anda oziqmoqdin ne vahm va ne biym. Har kimki, ul yo‘lg‘a ozim bo‘lg‘ay, ikki jahon saodati anga mulozim bo‘lg‘ay. Andin chiqqan itti, tuz borg‘on maqsadg‘a yetti. Har solikkim, maqsadg‘a yetibdur, bu yo‘ldin chiqmay ketibdur”¹⁴. Odam avlodi fitratida komillikka intilish bor ekan, eng to‘g‘ri yo‘l shariatdir. U orqaligina ikki dunyo saodatiga erishiladi. Shu bois komil murshidlar oldin muhaddis, keyin so‘fiy bo‘lish kerakligidan saboq berib, muridlariga tavsiya etadigan asosiy qo‘llanmalari Qur‘oni karim va Hadisi sharif bo‘lgan. Chunki inson nafaqat Alloh, balki barcha olamlarni, jumladan, Olami akbar hisoblangan o‘zini ham faqat va faqat Allohning kitoblari orqali tanidi. Buni Shayxi Akbar Ibn Arabiy

¹⁴ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 91.

shunday izohlagan edi: “Allohgga hamd bo’lsinki, agar shariat ilohiy xabarlar keltirmaganda, hech kimsa Allohni tanimas edi. Va faqat zakiiy insonlar, donishmandlarning “...unday degan, bunday degan”, deya Alloh zoti mavzusida ilgari surgan aqliy dalillarigagina asoslansaydik, hech bir inson Uni sevmas edi. Faqat shariat orqali ilohiy xabarlar kelgach va Subhon bo’lgan Tangri haqida bizga xabar bergach, biz ham subutiiy sifatlardan to’lib Allohni sevdik”¹⁵. Navoiyda ham bu qarashga hamohang fikrlar talaygina. Masalan, “Nabiiy shar’idin ayoq chiqarg’an kajrav...” qit’asida:

*Bu yo’lda kimki nabiiy shar’idin chiqardi qadam,
Yo’l ozdi, chunki mute’ o’ldi aqli johilig’a.
Tavakkul ahliki chiqmas safarda jodadin,
Yaqindururki, yetar gom birla manzilig’a*¹⁶,–

deya, manzilga eltuvchi qisqa yo’ldan xabar beradi. Navoiyga ko’ra, insonni komil etuvchi, ubudiiyat qarzini ado qiluvchi amallarni Yaratgan ko’rsatib bergan. Ilm insonda tavakkul, rizo, sabr, qanoat, shukr kabi ne’matlarni paydo etsa, haq e’tiqod iroda va jasorat sohibini dunyoga keltiradi. Shu bois Navoiy suluk ahlining riiyozati haqida gapirar ekan, avvalo, tavba, so’ngra shariat haqida so’z ochadi. Tariqat ahlining shariatga munosabati, ularga xos xushu’, zavq-shavq manzaralarini chizadi. Islomning besh ustuni haqidagi “Nasoyim”dagi qarashlar “Hayrat ul-abror” dostonining 24-bob 2-maqolotida ham o’ziga xos tarzda ifodalangan. “Islom bobi”dagi mazkur bayonlar tasavvuf Islomning botini ekaniga zarra shubha qoldirmaydi. Bu besh ustunning birinchisi shahodat kalimasi ekanligi barchaga ma’lum. Navoiy bu to’g’risida:

¹⁵ İbn Arabi. İlahi Aşk. – İstanbul: İnsan yayınları, 1988. – S. 38.

¹⁶ Alisher Navoiy. Badoe’ ul-vasat. MAT. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 497.

*Anglag'il arkonini beishtiboh,
Avvali «Illalloh» ila «lo iloh».
Yona Muhammadni anga bil rasul,
Ber munga tonug'lug'u qilg'il qabul.
Olloh, Olloh, bu ne ikki kalom,
Kim ikki olamg'adur andin nizom¹⁷,–*

deydi. Qalam ilk bor yozgan kalima Lavh ustidagi “La ilaha illalloh” bo‘lib, u ikki dunyoning nizomidir. Navoiy ham idrok-u ibodat sinovi bo‘lgan bu dunyo va ajr-u mukofot beriladigan oxirat olami saodatiga faqat shu kalimaning zikri bilan erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Insonning o‘zligini tanib, nafsini orif aylashga kirishishi, ushbu Tavhid kalimasini dilda naqshlash va tilda iqror etish bilan boshlanadi. Aslida “La ilaha illalloh” o‘n sakkiz ming olamning zikridir. Zero, Qur’oni karimda ham: “Ogoh bo‘lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur (Ra’d 113/28)”, – deya eslatiladi. Xususan, tariqat ahli bir lahza bo‘lsin, ushbu zikrdan ayro bo‘lishmagan. Hatto “...ondin mash’ufu mustag’raq bo‘lubdurlarkim, ba’zi bu kalimani eshitgach, behush bo‘lib yiqilubdurlar. Va ba’zining ham bu kalima istimo‘idin ruhlari muforaqat qilubdur”¹⁸. Navoiy ta’kidlashicha, bu zikr qalbgga ishq o‘tini solib, Haq oshig‘i haqqal yaqiyin darajasiga ko‘tariladi. Uning jazbasidan hatto ruh qushi tan zindonidan ozod bo‘ladi. Komillikka qadam qo‘yish, o‘zlikni anglashga jahd etish Haq amrlariga bo‘ysunish, shariat yo‘lini mahkam tutish bilan amalga oshgan. “Miftoh ul-qulub” muallifi ham: “Bir kimsaki Qur’ondan g‘ayri ila yo‘lini topmoq istasa, Alloh uni adashtiradi”, – deya muridning qalbi dini islom kaliti bilan ochilishini aytgan edi. Maqsad nafsni tanish va Allohga

¹⁷ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991, – B. 111.

¹⁸ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 16.

qurbat hosil qilish ekan, bu haqda Qur'oni karimda shunday deyiladi: "Allohga sajda (ibodat) qilib, unga yaqin bo'ling (Alaq: 96/19)".

Sajda bilan hosil bo'ladigan unsiyatda saloti xamsa, ya'ni namozga teng keluvchi ibodat yo'q. Navoiy ham buni e'tirof etadi va bir fiqhshunos kabi namoz uchun ado etiladigan amallarni ketma-ketlikda bayon qiladi. Avvalo, namozning birinchi sharti tahoratning zohiriy jihatlarini bir-bir sanaydi. Shundan so'ng bundan boshqa lavhai xotirni pok etuvchi "nafis tahorat" ham borligi va hatto bu asl maqsad bo'lishi kerakligiga urg'u berib, shunday deydi:

*Jonni solib bo'yla tahorat aro,
Kim yuzida nuqtacha qolmay qaro.
Ko'zni arig' ashki zuloliy qilib,
Balki ko'ngulni dog'i xoli qilib.
O'zluk uyin o'zga harom aylabon,
Tengri evi sori xirom aylabon,¹⁹.*

Bu – ko'ngil tahoratidir. Unda ko'ngil Alloh yodidan boshqa barcha narsadan xoli etilib, poklanadi. O'zlik uyini buzib, Tengri uyi sari qadam tashlanadi. Qur'oni karimda: "Sabr va salot (namoz o'qish) bilan madad so'ranglar. Albatta, u (namoz) og'ir ishdur. Magar o'zlarining Parvardigorlariga ro'baro' bo'lishlarini va shubhasiz, Unga qaytajaklarini biladigan shikastanafs zotlarga og'ir emasdir (Baqara: 2/45-46)", – deyiladi. Navoiy ehtiroslarni jilovlab, ruhni quvvatlantirmaydigan, jismoniy harakatlardangina iborat vujud namozini emas, balki qalbda muroqaba va mushohadani dunyoga keltiruvchi, huzur va xotirjamlik baxsh etuvchi Ruh namozini yoqlaydi. Suluk ahli bu muhabbat namozida guyo "Alast bazmi"dagi suhbatdoshlik

¹⁹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991, – Б. 112.

lazzatini his etadi. Bunda insonning mas'uliyat-u irodasi toblanib, qanoat-u jasorati tarbiyalanadi. Ruh chin hurriyatga erishib, "Namoz – mo'minning me'rojidir" maqomiga ko'tariladi.

Nafsni hayvoniylikdan tazkiya etib, Haq sifatlari bilan sifatlantiruvchi ilohiy amrlardan biri – Zakotdir. Najmiddini Doya zakotning ma'naviy poklanishdagi ahamiyatini shunday sharhlagan edi: "Mol to'plash va uni bo'lishmaslik hayvoniy sifatdir. Bundan qutulmoq uchun zakot ber va Haqning karam va jo'mardliligi bilan sifatlan. Chunki bag'ishlay olish Allohga xosdir". Navoiy ham, albatta, zakotning faqat zohiriy jihatlariga emas, balki botiniga ham e'tibor qaratib, unda ikki jihat borligini aytadi:

*Munda dog'i ikki sifatur tariq,
Birisi aslu biri far', ey rafiq.
Har ne matoiki, zakotin berur,
Shar' tariqi bila bilkim erur²⁰.*

Muallif shariat bilimdoni sifatida zakotning miqdori, shartlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Ammo yana bir asl zakot – Ko'ngil zakoti bo'lmasa, qalb salomatligi, ruh xotirjamligiga erishib bo'lmasligiga kitobxon diqqatini qaratadi. Zero, ko'ngil uchun g'ayri Allohdan barcha g'anim, u Arshi maallodir. Ko'ngil uchun yetarli ganji xazina "faqr-u fano"dirki, Navoiy:

*Ko'ngli qachon qilsa zaxira havas,
Bo'lmoq anga faqr-u fano ganji bas²¹,–*

deydi. Zero, oshiq ko'ngillarning Allohga muhtojlikdan boshqa faqrligi, o'zini mahbubda fano etmoqlikdan o'zga dardi yo'qdir. "Faqr-u fano" aslida ko'ngil ozodligi. Inson mansab, shuhrat, boylik, shahvat kabi son-sanoqsiz hoyu havaslar zanjiridan

²⁰ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 113.

²¹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 114.

o'zini ozod etishi kerak. Bu g'aflatdan bir lahza bo'lsin uyg'onmog'i shart. Shu zahoti qo'rqqoqlik, ojizlik, tubanlik, tamagirlik kabi o'nlab illatlar uni tark etadi. Dunyoga qo'l silkib, faqr-u fanoga erishish – barcha xorlikdan, bechoralikdan qutulishdir.

Ro'za masalasida ham Navoiy hazratlari zohir va botin ro'zasini uyg'unlikda ta'rif-tavsif etadi:

*Daf' qilib zangi xayolotni,
Asramoq ul nav' bu mir'otni.
Kim anga juz do'st zuhur etmagay,
Balki aning g'ayri xutur etmagay.
Hech suvar naqshig'a bermay mador,
G'ayr bu ne'matdin o'lub ro'zador²².*

Ko'ngil ro'zasi har lahza ming turli hiyla-yu nayrang o'rgatuvchi shaytoniy vasvasalardan, vijdon ovozi o'chiruvchi turli buzuq o'y-xayollardan qalblarni asramoq. Inson uchun g'ayr – bu uning nafsu havosi, Odam o'g'lini qiyomatga qadar yo'ldan ozdirish uchun izn olgan Iblisi lain bo'lgan. Ko'ngil Haq oynasi, omonat yukini olgan Alloh taxti, butun vujudning "Xoja"si ekan, uning pokligi, taqvosi Haq s.t.din o'zga hech nimani xotirg'a keltirmaslikdir. "Nasoyim"dagi she'rlar, hikmatlar ham navoiyona tanlov bo'lgan. Abulfazl Hasan Xatmiyning: "Dunyo bir kundir, unda bizning vazifamiz ro'zadir", – fikri ham bejiz keltirilmagan. Vujudni nopok yo'llarga yetaklaydigan ehtiroslardan muhofaza etuvchi ro'za insonning ulviy sifatlaridan. Chunki Allohdan boshqa barcha maxluqotlar yemak va ichmakka xoslangan. Hatto malaklar Allohga tasbeh va taqdis aytish bilan oziqlanadilar. Tasavvuf manbalaridagi xulosaviy ahamiyatga ega ushbu fikr

²² Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 115.

qimmatlidir: “Har bir ibodatning mukofoti jannat, ro‘zaning mukofoti esa Alloh xulqi bilan xulqlanishdir”. Inson – quldir, inson – oshiqdir. Uning ma’shuqiga bandalikdan, qaysi amali bilan bo‘lsa-da mahbubiga qovushmoqdan boshqa orzusi yo‘q. Bu matlabning ushalmog‘i uchun bo‘lgan har bir xatti-harakat Unga aylanish jarayonidir. Bu jarayonni, ya’ni ko‘ngil sayri manzaralarini Navoiy barcha asarlarida betakror uslubda mohirona badiiy ifoda etadi.

Navoiy – haqiqatan, daho ijodkor. Uning bayonlaridagi teranlik, haqqoniyat, samimiyat, qalblarga ta’sir etuvchi quvvat, albatta, uning betakror shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda Navoiyning din va tasavvuf haqidagi qarashlarini to‘g‘ri belgilash va xolis baholashda ham shoirning hayot yo‘li yaqindan yordam beradi. Uning shariat va tariqatga munosabati, bu yo‘ldagi sidq-u sadoqatini nafaqat asarlaridagi lirik qahramon yoxud adabiy shaxsiyatidan izlash kerak. Balki ba’zi asarlarida ochiqdan-ochiq e’tiroflari bor. “Vaqfiya”da bunga guvoh bo‘lamiz: “... chun kishiga abadiy davlat va sarmadi saodat va hayot chashmasining navidi va najot manzilining umidi islomning besh sutunluq zotulumodig‘a kirmaguncha mumkin ermas va bu xams-ul-muborak panjasiga ilik urmog‘uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavhiddur. Shukrkim oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinchi salavoti xamsadur. Bihamdillohkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi ramazonning o‘ttuz kunining ro‘zasidur. Shukrullohkim, oni lomdek qalbimda yoshurubmen. To‘rtinchi zakotdur. Jonim naqdi ul Tengriga zakotkim, ko‘nglumga nasabqa yetkuncha mol zaxira qilmag‘aymen, solmadi va nisobqa yetgan mol zakotin ayirg‘uncha ilkimda qolmadi”²³. Bu

²³ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. МАТ. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1991, – Б. 261.

parchani o'qir ekanmiz, mashoyixlarning "Tariqat – shariatning ruhidir", degan hikmatiga iqror bo'lamiz. Darhaqiqat, Navoiy zohirparastlik, shaklbozlikdan juda yiroq, barcha zamonlarda insoniyatga ibrat bo'la oladigan baland shaxsiyat. U Kalimai Tavhidni jon mohiyatini belgilovchi alifdek qalbida naqshlagan, Tengriga naqdi jonini zakot etgan, dinni qalb hayotiga aylantirgan xos bandalaridan edi. U uchun Shariat Xudovand dargohiga yaqinlashtiruvchi, komil tark maqomiga ko'taruvchi ruh hayoti edi²⁴. Shu bois o'zi uchun armon bo'lib qolgan haj ham shoir uchun nafs sahrolarini bosib o'tib, Allohga eltuvchi qurbat safari hisoblangan. Ham zohirda, ham botinda barcha rishtalarni uzib, barcha xavf-u xatarni unutib, yolg'iz diydor bazmi tomon mardona qadam tashlashdir haj. Zotan, Allohning shunday va'dasi bor: "Unda aniq alomatlar – "Maqomi Ibrohim" bordur: Unga (Ka'baga) kirgan kishi omonda bo'lur". Bu faqat jism emas, albatta, qalb omonligidir. Navoiy bu maqom, bu omonlik, din komilligini istab, shunday degan edi: "Beshinchi Hajdurur va ul bay uzri muyassar bo'lmayin hamonoki, islom shaxsi bir kishiga o'xsharkim, onda xos xamsadin to'rti boru bas. Muqarrardurkim, beshalasi – xoskim bo'lmasa muvajjab nuqsoni bo'lur va bu mazkur bo'lg'on ikki orzudin biri muborak safardurkim, islomim shaxsi besh hisdin birining o'ksukluga jihatidin noqis bo'lmag'ay va musulmonlig'im panjasi bir barmoq yo'qlig'idin ma'lul qolmag'ay"²⁵.

²⁴ **Izoh:** Naqshbandiya tariqatining buyuk vakili Imom Rabboniy hazratlari: "Qiyomatda shariatdan so'raladi, tariqatdan emas. Abadiy hayotga erishish va azobdan qutilish shariat ijrosiga bog'liqdir. Koinotning ruhi bo'lgan barcha payg'ambarlar insonlarni shariatga da'vat etdilar. Xalos bo'lmoq faqat shariatdadir", – deydi. Maktublaridan birida esa ushbu fikrini davom ettirib, aslida Tariqat shariatdan ayri hodisa, ayri yo'l emas, balki shariatning botini ekanligini ta'kidlab shunday degan edi: "Bilmoq lozimki, shariatning bir suvrati va bir haqiqati bor... Shariatning suvratiga zohir ahli deya atalgan ilm odamlari, shariatning haqiqatiga esa tasavvuf ahli ma'murdirlar.... (Imam-ı Rabbani. Mektubot. B.d. yayinlari, s. 203)". Navoiy asarlarini sinchiklab o'qigan har bir kitobxon U hayot yo'li va asarlari bilan shariatning ham suvrati, ham haqiqatini qo'riqlovchi ma'murlardan bo'lganligiga hech shubhalanmaydi.

²⁵ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. МАТ. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1991, – Б. 261.

Navoiy umri qaynoq hayot ichida kechgan zamonasining ma'naviy sultonlaridan edi. Uning "amir ul-muqarrab"ligi guyo mamlakat tinchligi, xalq faravonligini belgilovchi unvondir. "Hayrat ul-abror" dostonining Badiuzzamon bahodirga bag'ishlangan bobini o'qir ekanmiz, o'z zamonasida shohlar oldida ham rost so'zini ayta oladigan, payg'ambarimizning "Haq so'zni ayting, u rizqingizni kamaytirmaydi, ajalingizni yaqinlashtirmaydi" hadisini diliga naqshlagan haqiqat, adalat maydonining mardonlaridan ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Shoh Husayn Boyqaro ham so'zining e'tiborga olishini eslatib, xalqning ma'naviy va moddiy hayotiga javobgar bo'lajak hukmdor Badiuzzamonga ham pand berishga haqli ekanligini ta'kidlaydi. Shoirning bu satrlarini o'qir ekanmiz zamondoshlarining u haqidagi "din va millatning pushtipanohi" ta'rifi beixtiyor xotirimizga keltiradi:

*Jumla jahon foniyi mutlaq durur,
Boqiya mutlaq tilasang haq durur.
...Bo'lmasa Haq yodidin ogohliq,
Bilki gadolikcha emas shohliq.
Bo'lsa gado Tengridin ogahlig'i,
Bordur anga ikki jahon shahlig'i*²⁶.

Bu dunyoning o'tkinchiligini anglash Haq yo'lidagi solik uchun ilk shartlardandir. Haq yodidan ogohlik boylik, mansab, hirs-u havasdan uzoqlashishga, o'tar dunyoga "etak silkish"ga olib keladi. Navoiy insonning sharafi, shaxsiyati Haq bilan munosabati orqali belgilanishidan o'git beradi. Inson ikki jahon shohligiga Tengridan ogohligi bilan saylanishi, asl maqsadga Muhammad (s.a.v.) shariatini mahkam ushlab bilan erishishini aytib shunday deydi:

²⁶ Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 320.

*Istar esang maqsadi aslig'a yuz,
Joddai shar'i Muhammadni tuz.
Shahki najot uyiga istar panoh,
Ushbu yo'l ul uyga erur shohroh...
Shar' tariqini shior aylagil,
Adl ila mulkunga mador aylagil*²⁷.

Xalq istayotgan adolat, himmat, yaxshilik, bir so'z bilan aytganda, najot – Islomdadir. Buni, ayniqsa, Allohning yerdagi soyasi hisoblanmish hukmdor anglamog'i kerak. Ma'naviy barkamollik poydevori, saltanatning mustahkamligi, fuqarolarning xavfsizligi islomiy hayot bilan bo'lishini fahmlamog'i lozim. Olomonchilikdan yuksalish, milliy g'urur, jasorat diniy ma'rifat bilan shakllanadi. Shariat bir amaliyot: avvalo, vujud, so'ngra qalb va keyin ruh hayotida yashaydi. Nafsga qarshi kurashda shariatdan buyukroq qurol yo'qdir. Duqqiy hazratlari ta'kidlaganidek: "Ofiyat ilm, ya'ni shariatda"²⁸. Shariat ilmlarning sharaflisi. Faqat uning salomatligi amal bilandir. Navoiy "Ulumdin ashraf din ilmidur..." qit'asida:

*Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq*²⁹, -

deydi. Shariatning amali har zamonlarda ham mushkul bo'lganki, Navoiy: "Nabi shar'ig'a istiqomat, Erur solikka mushkulroq karomat", degan edi. Faqat tariqat ahli ta'rif etgan ishq tufayli bu mushkulni oson etish mumkin. Yolg'iz ishq dardni darmonga, baloni bazmga aylantira oladi. Haqiqat sirlarini oshkor etuvchi bu ishq bayonida Navoiyga teng

²⁷ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброҳ. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 322.

²⁸ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 133.

²⁹ Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 1-жилд. Тошкент: Фан, 1990, – Б. 497.

keladigan ijodkor o'zbek adabiyotida sanoqli. Uning na't g'azalaridan birida kelgan mana bu maqta'ga e'tibor qarataylik:

*Navoiy xush ko'rar olamni aning yodidin, yo'qsa
Anga xoshok aro o'tdekdurur dunyo-vu mofiho.*

Bu olamni shoirning xush ko'rishi Rasululloh (s.a.v) yodi tufaylidir, bo'lmasa dun, ya'ni past degan ma'nodan olingan dunyo bir olov ichidagi bir xoshokdir. Navoiy shunchaki din va dindorlik da'vatchisi emas. Shariatni ruh hayotiga aylanishini orzu etgan ahli dillardan edi. Zohiriy shariat odob-arkoni, ilohiy amrlarning vojibligi haqida gapira turib, botiniy shariat – tariqatdan, bu mujodalaning yanada og'irligi va qiymatli ekanligidan bahs yuritadi. Vujud va ruh mushtarakligidan yaralgan inson komilligi shariat va tariqat uyg'unligida xulosasiga kelish va uni mohirona ifodalash Navoiyning mutafakkir va mutasavvifligidandir. Necha yillar avval ustoz navoiyshunos Ibrohim Haqqulov tadqiqodlaridan birida shunday degan edi: "Buyuk daholar, allomalar barcha asrlarda ham bashariyat qayg'ulariga malham so'zni axtarganlar. Shohu gadoning ong va yurak xastaliklarini bab-barobar tuzatadigan jonbaxsh so'zlar, afsuski, g'oyatda siyrak yaralgan. Navoiyning bu to'g'rida o'ylamasligi mumkin emasdi. Mana, shu yo'nalishdagi bir fikr:

*Olam ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko'ngli aro hamroh erur.
Qur'onni tilovat etsin ar ogoh erur,
El ko'ngliga chun davo Kalomulloh erur.*

El ko'ngliga Kalomulloh davo bo'lmog'iga Navoiy shubhalanmagan"³⁰. Zotan, Alloh kalomida ham: "Ey odamlar! Sizlarga Robbingizdan va'z (nasihat) dillardagi narsa (shirk

³⁰ Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, – B.126.

illati)ga shifo va mo‘minlarga hidoyat va rahmat keldi (Yunus 10/58)”, - demaganmidi?! Darhaqiqat, qalb xastaliklarining davosi uchun mazkur kitoblarga, ayniqsa, bugun ehtiyoj katta. Faqat bu kitoblarning asl mohiyati, ramz va ishoratlarini anglash mushkul. Shu bois uning botiniy kashfi hanuzgacha davom etmoqda. Undagi haqiqatlarni anglash, mohiyatni his etish uchun adabiyotning ham muhim o‘rni bor. Shuning uchun madrasa, xonaqohlarda Yassaviy, Hofiz, Navoiy, Bedil kabi ijodkorlar asarlari ham jiddiy o‘rganilgan. Yassaviyxonlig-u bedilxonliklar keng xalq ommasiga ham begona bo‘lmagan. Shu ma’noda Navoiy ijodiyotida Muhammad (s.a.v.) va ahli nubuvvatga bo‘lgan muhabbat hamda uning badiiy ifodasini tahlil etish ulkan bir tadqiqot. Navoiy turli janrlaridagi asarlarida Payg‘ambar (s.a.v.) shariatidan uzoqlashish, bandalikdan, odamiylikdan yiroqlashishdir, deya to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi:

*Olam aro xalqni Yazdoni pok,
Ahli najot ettiyu, ahli halok.
Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrai islom bil.
Kufr eli yo‘l topdi malomat sari,
Zumrai islom salomat sari³¹.*

Shariat insonga muxoliflarini aniq ko‘rsatib beradi. Bular: nafs, vujud, shayton va mo‘min bo‘lmagan birodar. Tolib, avvalo, nafs, qalb va ruhning talablarini bir-biridan farqlashi va shunga ko‘ra harakatlanmog‘i lozim. Ularni ajratish – har biriga beriladigan imtihondan oson o‘tishga ko‘mak beradi. Tariqat murshidi bosqichma-bosqich nafsni sof holga keltiradiki, solik

³¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1998, – B. 110.

tavhid maqomiga ko'tariladi. Tariqatning bu maqsad muddaolariga adabiyotdagi betakror ifodalar jon baxsh etgan.

Muhaqqah, bani bashar uchun najot yo'li – Islom dinidir. Insoniyat har doim zalolat-u halokatidan so'ng bunga iqror bo'lishga majbur bo'lgan. Shu bois mana shunday najot yo'lini ko'rsatgan, takror-takror eslatgan ulug' ijodkor "Navoiyga qaytish", "Navoiyni anglash"ga burchlimiz, ehtiyojimiz bor. Uning Xoliq va xalqqa bo'lgan buyuk muhabbati, bayonida sehr bo'lgan betakror iste'dodi yuraklarni eng chekka sarhadlarigacha zabt etishi aniq. Aslida Navoiy shaxsiyati va ijodiyoti haqiqatini anglash va uni o'qitish avlodni hidoyat sari boshlashdir.

HADISLAR HAQIQATI VA NAVOIY IJODI

Hadis arabcha soʻz, yangilik, xabar, asar maʼnolarini anglatadi. Ammo hadis aksariyat istilohiy maʼnoda, yaʼni Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nisbat berilgan soʻz, feʼl, taqrir va xilqat – tana tuzilishi yoki xulqdagi sifat hamda siyrat – tarjimai hollari tushuniladi. Bir soʻz bilan aytganda, hadisda Rasulullohning soʻzlari va amallari, koʻrsatmalari nazarda tutiladi. Navoiy ham hadisga quyidagicha nazmiy izoh beradi:

Hamd angakim, kalomi xayрмаol,

Qildi elga rasulidin irsol.

Ul rasuleki, ham kalomi fasih

Elga tegurdi, ham hadisi sahih.

Islom dinida Qurʼondan keyingi ishonchli manba hadisdir. Rasululloh hayotligida hadislar yozilmagan. Ammo keyinchalik turli maqsadlarda sahih hadislar barobarada mavzu, yaʼni soxta hadislar ham tarqaldi. Shu sababli beshinchi roshid xalifa deya tan olingan Umar ibn Abdulaziz davrida rasman hadis kitoblar yozila boshlandi. Ibn Shihob az-Zuhriy sodda tarzda hadis kitob taʼlif etdi va bu anʼana davom ettirildi. Hadislar yozish tobeʼinlar tomonidan amalga oshirilgan. Saʼid ibn Musayyib, Ato ibn Abu Raboh, Qatoda, Tovus, Hasan Basriy, Ibn Shihob az-Zuhriy buyuk muhaddislar sanalgan. Ishonchli hadis kitoblari “kutubi sitta” nomi bilan jamlangan. Imom Buxoriyning “Jomeʼ us-sahih”, Imom Muslimning “Sahihi Muslim” hamda imom Abu Dovud, imom Termiziy, imom Nasoiy, Ibn Mojalarning “Sunan” asarlari kutubi sitta tarkibiga jamlangan. Bu kitoblar taʼsirida boshqa ilmiy risolalar paydo boʻlgan. Buyuk tafsir kitoblari ham hadislar asosida yozilgan. Musulmon olami adiblari asarlari mazmun mohiyatida ham islomning asl manbalariga tayanilgan. Shunindek, Hazrat Ali anʼanasini davom ettirib “Arbain” nazmiy

kitoblari yaratilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ham, asosan, qudsiy hadislarga tayangan holda “Arbain” asarini yaratadi.

“G‘aroyib us-sig‘ar” devoni debochisida Navoiy: “Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotimig‘akim, *“innash-she’ra lahikmatun va innal-bayona lasihrun”* (*“albatta, she’rda hikmat va bayonda sehr bor”*) nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti”), - deydi. Demak, mutasavvif shoir Rasululloh hadisiga ko‘ra, she’rni hikmat va bayonni sehra aylantirishda, ya’ni, Navoiy har bir asari g‘oya va badiiyatini belgilashda Qur’oni karim va hadisi sharifga asoslangan. Bu ikki sarchashmadan bexabar o‘quvchi Navoiyning asl maqsadini tushunishi qiyin. Avvalo, Navoiy shoir, olim, arbob, butun millatning farzandi edi. Uning asarlari yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi, insoniyatning kamolotiga xizmat qilgan. Navoiyning “Mahbub ul-ulub” asarida ulamolarga bir talabi borki, bu shoirning o‘ziga ham tegishlidir: “Olim kerakkim, mutaqqiy bo‘lsa va ogoh va ayturi qola Alloh va qola Rasululloh.

Qit’a:

*Har ne aytur bo‘lsa Xudovu Rasuldin
Andin so‘ng o‘lsa mujtahidu avliyo so‘zi.
Andin kishi ne kim eshitur va yoki o‘rganur
Bo‘lsa Xudo so‘zi, yo‘q esa, Mustafo so‘zi”.*

Demak, hikmat ahlining aytar so‘zi Alloh azza va jallaning vahiysi hisoblangan Qur’oni karim yoxud butun insoniyatga ibrat bo‘lgan xotami nabiy Muhammad Mustafo s.a.v.ning hadisi shariflari bo‘lmog‘i kerak. Shundan so‘ng Alloh do‘stlari, Rasululloh izdoshlari avliyolarning so‘zlaridan bahs etishi lozim. Xususan, odob-axloq targ‘ibiga bel bog‘lagan ko‘ngil tili adabiyotning bosh qahramoni “Men buyuk xulq ustida yaratildim” degan Muhammad s.a.v. ekanligi shak-shubhasizdir.

Navoiyning ham nubuvvatga muhabbat ifodalangan asarlari hadislar asosida dunyoga kelgan.

Navoiy yoshligidan Qur'oni karimni yod oldi. Va hadis ilmi bilan ham maxsus shug'ullandi. Samarqandda yurgan kezlari ham buyuk faqih Xoja Fazlulloh Abulays huzurida bo'lganligi uning bilimlarini mustahkamladi. G'iyosiddin Xondamir ta'kidlaganidek, fiqh va boshqa sohalardagi katta bilimi tufayli ikkinchi Abu Ali ibn Sino laqabini olgan, foydali ilmlar xazinasi bo'lmish Xoja Fazlulloh Abulaysiy huzurida ilm o'rgangan va ilm olishda uzluksiz davom etgan Navoiy "fayzli ko'nglining lavhi borliqdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi haqiqatlar tasvirlangan joyga, foydali bilimlar joy olgan qalbining sahifasi esa Yuqori olamning nozik jihatlarini isbotlash makoniga aylandi.

Qit'a:

*So'zingda bayonning nozik jihatlarini ifodalangandir,
Qilgan ishlaringda Qur'on mohiyati sharhlangandir".*

Xondamirning Navoiyga bergan ushbu ta'rifini uning asarlari to'la tasdiqlaydi. Shuningdek, ham tariqat, ham she'riyatda birday murshidi komili bo'lgan Abdurahmon Jomiy hazratlarining ham hadis ilmida tengsiz ekanligi ma'lum. Navoiy pirining "Arbain"dan tashqari "Sharhi hadis" nomli diniy-irfoniy sharhnomasi borligidan "Xamsat ul-muttahayyirin" asarida xabar beradi. Navoiy asarlarida hadislarining ko'p qo'llanishi va oliy san'atkorona ifodaga erishuvdagi omillaridan yana biri fors, arab, turk mumtoz asarlaridan birday xabardor bo'lganligidir. Irfoniy asarlarda ko'p qo'llanadigan "*Men jin va insni o'zimga ibodat qilishlari uchun yaratdim (Zoriat: 51/56)", "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi.*

Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)", "Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim", "Nafsini tanigan Robbini taniydi", "O'lmasdan burun o'ling", "Siz buyuk xulq ustida yaratildingiz", "Faqrlik faxrimdir", "Bir olimni hurmat qilgan meni hurmat qilgan kabidir", "Sahobalarim yulduzlar kabidirlar..." singari oyat va hadislar bor. Navoiy ham o'z asarlarida ularni keltiradi va ba'zan keng izoh bersa, ba'zan ularga ishorat qiladi. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonida "Kuntu nabiyan va kaana adam baynal ruh va jasadun" hadisi asosida ruh jihatidan Muhammad s.a.v.ning ota ekanligini asoslaydi:

*Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato.
Naslida harkim anga payvand o'lub,
Borchasi farzandingga farzand o'lub.
Kimki munga da'viyi hujjat etar,
«**Kuntu nabiyyan**» anga hujjat yetar.*

Ayniqsa, dostonlarning hamd va na't boblaridagi ifodalarda hadislar ketma-ket keltiriladi. Hatto bu o'rinlarni baytma-bayt sharhlashga to'g'ri keladi. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonidagi 3-bobning ilk baytlari:

*Anbiyo sarxayli sultoni rusul,
Kim erur oning tufayli juzvi kul.
Ulki Odamdin burun ul bor edi,
Ham Nabi ham sohibi asror edi.
Nuri mavjud ofarinishdin burun,
Kim edi xalqig'a muddat olti kun, -*

deya boshlanadi. Birinchi bayt "Sen bo'lmaganingda olamni yaratmasdim" qudsiy hadisiga, ikkinchi bayt "Odam Ato suv bilan tuproq orasida bo'lgan paytdayoq men (Muhammad) payg'ambar

edim”, uchinchi bayt esa *“Alloh taolo yaratgan ilk narsa – mening nurimdir”* hadisiga ishorat qilmoqda. Qolgan baytlar ham mana shu tarzda davom etadi. Aslida Navoiy asarlariga oyat va hadislar asosida sharhlar yozish lozim. Shunda shoirning maqsadi, asarning mohiyati aniq ayon bo’ladi.

Alisher Navoiy asarning maqsadidan kelib chiqqan holda hadislar tanlaydi. Ba’zi hadislar turli asarlarda keladi va har xil ma’no qirralarini namoyon qiladi. *“Ulki, ‘kuntu nabiyyan va Odamu baynalmoi vattin’ mazmuni anbiyoga muqaddamdur, ‘rahmatan lil-olamin va xotamun nabiyyin’ mantuqi bila alarga muaxxar va xotamdur, habibi Hazrati Iloh Muhammad rasululloh sallallohi alayhi vasallamdur... Buroqi inoyat aning markabi ulvi xiromi va Jibrili hidoyat aning payki barqgomi, laylat ul-me’roj aning shabistoni va ‘li ma’ollohi vaqtun’ aning maqomi. ‘Munojot’dan olingan parchada ‘Odam Ato suv bilan tuproq orasida bo’lgan paytdayoq men (Muhammad) payg’ambar edim’, ‘Butun olam va oxirgi payg’ambar’, ‘Menda Alloh bilan birga shunday lahzalar bo’ladiki’ uch hadisni keltirish bilan shoir o’z salovatini aytadi. Navoiyni anglash uchun hadis kitoblarini o’qish, ularni qalbgga singdirish lozim. Chunki hadislardan istifoda etishda Navoiy turli usullardan foydalanadi. Navoiyshunos Olim Davlatovning nazariy xulosalariga ko’ra, Alisher Navoiy ham hadislarining ma’no-mazmuni va matnidan turli ma’naviy san’at va bayon vositalari yordamida o’z she’rini ziynatlagan. Bu usul va vositalarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) hadis matnini aynan, to’liq keltirish (iqtibos san’ati); 2) hadis matnidan muayyan qismini iqtibos kilish (iqtibos san’ati); 3) hadis matnini juz’iy o’zgartishlar orqali she’rning vazn va qofiyasiga moslashtirish (aqd san’ati); 4) islom tarixiga oid biror hadisga munosabat bildirish orqali she’rning badiiy-emotsionallik xususiyatini kuchaytirish*

(talmeh san'ati);5) hadisni she'riy tarjima kilish; 6) dalil sifatida keltirilgan hadis mazmunini erkin tarjima qilish; 7) tazod, tashbeh, ishora san'atlari yordamida hadis ma'nosiga mos tushadigan g'oyalarni bayon etish; 8) hadis ma'nosi asosida mustaqil syujet yaratish. Ta'kidlash joizki, bu borada Hasanxon Yahyo Abdulmajid va Husaynixon Yahyo Abdulmajidning "Navoiydan chu topqaylar navoe" tadqiqotida "Arbain", "Siroj ul-muslimin", "Munojot" asarlaridagi hadislarning roviylari va sanadlarini ham qo'shib to'ldirishgani, hadislarning sahih yoki zaifligini ham ko'rsatishganligi navoiyshunoslikdagi yutuqlardandir.

Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi shoirning lirikasi va dostonlaridagi irfoniylar qatlamni anglashda muhim manba hisoblanadi. Unda Abu Sulaymon Doroniy q.r.ning quyidagi iqrori keltiriladi: "ko'pincha haqiqat (kashfu asror) qalbmida qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbmizdan joy olishiga ruxsat beraman". Navoiy valiylarning fikrlarini berishda inja bir tanlovga asoslanadi. Qisqa bir ma'lumotlarda ham katta masalalarni yoritganligiga guvoh bo'linadi. Doroniy q.r.ning holi, mushohada sirri ham boshqalarga ibratdir. Asarda hadis ilmini egallash muhimligi xususidagi targ'iblar ham mavjud: "Va Shayx Abulqosim debdurki, ul dediki, hadis bitimak kishidin jahlni eltur va darveshlik kibrni. "Agar ikkalasi jam' bo'lsa, shularning fazilati senga kifoya". Ma'lumki, tazkirada, asosan, Ansoriy hazratlari ma'lumotlariga tayaniladi. "Laqabi Shayx ul-islomdur va bu kitobda har yerdakim Shayx ul-islom voqe'durur mutlaq murod ondindur" deya ta'rif etilgan Abu Ismoil Abdulloh b. Abu Mansur Muhammad Ansoriy Hiraviy q.s. haqida muallif shunday deydi: "Ko'prak kun namozi xufton o'tguncha nahor erdim va debdurki, kecha chirog' yorug'ida hadis bitir erdimki,

non yemak farog'atim yo'q erdi. Onam nonni tikka qilib, og'zing'a solur erdi nima bitirning arosida. Debdurki, Haq s.t. manga hofiza berib erdiki, har ne qalamim tahtig'a kirsas, yodimdin chiqmas erdi va debdurki, men uch yuz ming hadis yod bilurman, yuz tuman isnod bila. Debdurki, ulcha men Mustafo s.a.v. hadisi talabida tortibmen, kishi tortmaydur. Bir manzil Nishoburdin Dizbodg'achaki yog'in yog'ar erdi. Ikki bukanib hadis juzvin ko'ksunda tutub, boribmenki, juzv o'l bo'lmag'ay. Va debdurki, uch yuz kishidan hadis bitibmenki, bari sunniy ekondurlar..." "Nasoyim ul-muhabbat" kabi tazkiralarni yozishda mualliflar asosli manbalarga tayanishgan. Chunki zikr etilayotgan shaxslar valiy zotlar ekanligi, ularning qalbigaingan vorid va shatahotlarning hol ahli uchun bir sir ekanligi ma'lum. Shu bois ularning ilhom onlarida aytilgan so'zlarining to'g'riligi va ma'naviy bir hijob ochish darajasini muallif yaxshi tushunishi lozim bo'lgan. Shu nuqtai nazardan Navoiy ham ko'proq muhaddis Ansoriy ma'lumotlariga asoslanganligini anglash osonlashadi.

Navoiyning umr so'ngida yozilgan "Mahbub ul-qulub" asaridagi Xoliq, xalq, dunyo to'g'risidagi xulosalarida hadislardan kelib chiqqan. Unda turli toifa odamlarning zikrida ham, hamida axloqqa erishish sir-asrori, usuli arkonini yoritishda ham, tanbehlarning mazmun-mohiyatida ham hadislar asosiy mezon vazifasini o'tagan. Masalan, Odil salotin shunday zikr etiladi: "Odil-u oqil podshoh ibodullohg'a zillulloh. Xilofat mulki aning farmonida *"Inni joilun fil arz xalifatun"* (*"Men yerda (Odamni) xalifa qilmoqchiman"*) (Baqara. 1:30) aning sha'nida. Bukim odil podshoh rif'ati ta'rifdin biyikroq erur *"Vulidtu fi-zamonis-sulton ul-odil"* (*"Men odil sulton zamonida tug'ildim"*) andin xabar berur. Ulki aning zoti bila mubohidur

xojai kavnayn (ikki dunyo egasi, Muhammad payg'ambar a.s.) debdurkim, *"Adlun soatun xayrun min ibodatis-saqalayn"* (*"Bir soatlik adolat, insu jin ibodatidan yaxshiroq"*). Ko'rinib turibdiki, Navoiy har soha, har bir shaxsiyat haqidagi ta'rif-tavsifida oyat va hadislardan kelib chiqib yondashadi.

Lirik merosida qit'a janrida hadislar yorqin ko'zga tashlanadi. Chunki *"hadis mazmunikim..."*, *"hadis tarjimasikim..."* sarlavhalari ostida qit'alar beriladi: "Hazrat nabaviy hadisi tarjimasidakim, "kun fid-dunyo kaanaka g'aribun av obiru sabilin"

*Dedi hazrati mafxari koinot,
Anga kim edi huznin o'ksitguchi.
Ki dunyoda bo'lg'il nechukkim, g'arib
Va yoxud aningdekki, yo'l o'tkuchi".*

Qit'ada Navoiy muhrida naqshlangan *"Kun fid-dunyo kaannaka g'aribun av obirus-sabil (Bu dunyoda g'arib yoki yo'lovchidek bo'l)"* hadisi mazmuni ochib beriladi.

Navoiyning shahzodalar ta'lim-tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratgani ma'lum. Ularga maslahatlarida ham ta'sir doirasini kengaytirish va kuchaytirish maqsadida hadislardan unumli foydalanadi. "Farhod va Shirin" dostonining 53-bobi Shoh G'arib Mirzoga bag'ishlanadi. Uning xalq va mamlakat taqdiriga mas'ul shaxs sifatida fiqh, hadis va tafsir – diniy bilimlarni, shuningdek, hikmat va tarixni o'rganishini nasihat qiladi:

*Birovkim qilsa olimlarg'a ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.
Hadis o'lmish nabiyydin bo'yla hodis
Ki, olim keldi payg'ambarg'a voris.
Kishikim bo'lsa olam podshohi,*

*Aning ummatlig'idindur mubohi.
Birovkim ilm ila bo'ldi barumand,
Angakim voris o'ldi – bo'ldi farzand.*

“Ulamo payg‘ambarlar vorisidirlar” hadisiga hamohang o‘git beradi shoir. Uning bu kabi pand va tanbehlari turli asarlarida keltirilgan. Navoiyning hadis so‘ziga alohida diqqat qaratganligini “G‘aroyib us-sig‘ar”ning 89-g‘azali hamda “Badoyi’ ul-vasat”ning 91-g‘azalida hadis so‘zi radif vazifasini bajarganligidan ham bilish mumkin:

*Ulusni tutti Navoiy so‘zi, aning birla
Magar Rasuli alayhis-salom qildi hadis.*

Mazkur baytlarda hadis so‘zi ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nolarda qo‘llanilgan. Ayniqsa, quyidagi kabi baytlarda ko‘ngil so‘zining ta’sirida hadis so‘zining ma’no buyoqlari yanada ranginlashadi:

*Do‘stlar, ko‘nglum hadisin demangiz Tengri uchun,
Kim men ul devonayi sargashtadin bezormen.*

Navoiy asarlarida faqr-u fano asosiy mavzulardan ekan, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) nisbat berilgan “Al-faqr faxriy” (“Faqirlik mening faxrimdir”) hadisiga ko‘p o‘rinlarda e’tibor qaratiladi. Ushbu hadisning sahifligiga ishtiboh bildirganlar. Ammo “Tuhfat ul-afkor”da o‘qiymiz:

*Rah sui Haq behad, ammo hast aqrib rohi faqr,
Bahri onk-“Al-faqr faxri” guftai payg‘ambar ast.*

(Mazmuni: Haqqa olib boradigan yo‘llar behad ko‘p, ammo faqr shu yo‘llarning eng yaqinidir, chunki payg‘ambar “Faqirlik mening faxrimdir” dedi).

Ko‘p baytlarda hadislar aynan keltirilmay, ularga ishorat qilingan:

*Poya mundin biyik o‘lmaski, risolat xatmi,
Faqrning nisbatida faxrg‘a qildi tasdiq.*

Tasavvuf qo'llanmalarida ham, irfoniy-badiiy adabiyotda ham, so'fiyona she'riyatda ham tez-tez yodga olinuvchi "**Mutu qobla an tamutu**", ya'ni "**O'lmasdan burun o'ling**" hadisi ham Navoiy she'riyatida yangi bir ifodalarda beriladi. Navoiy g'azallaridagi hollar ifodasi, uning qolda chizilgan tasviri hol tovlanishiday murakkab. U hol chaqmog'iday tafakkurda birdan yorug'lik baxsh etadi, goho toshqin suv kabi mushohada zangini yuvadi, birda tuproqdek bezovta hislarga tamkinlik baxsh etadi, ba'zan sarkash ehtirolarni bodi sabodek allalaydi. Xullas, Navoiyning lirik bayonidagi ramz, ishoratlar shoirning holi kabi sirli va baland. "Dema, ne sud erur o'lmoq fano harimig'a xos" matla'li g'azalida:

Desang bu yo'lda o'lay, nafsni burun o'ltur,

Ki ishq shar'ida go'yo bu nav keldi qisas, –

deydi. Fano harimig'a loyiq o'limga erishmoq uchun, avval nafsni o'ldirish kerakligi barcha mutasavviflar tomonidan aytilgan haqiqat. Lekin Navoiy bu Ishq shariatining hukmidir, deydi. Nafsni yengish, undan mardona voz kechish va bu ayriliqdan huzur topish, shu qadar mashaqqatli riyozat bo'lmaganda "Jihodi akbar" deya atalmasdi. Nafs o'limiga rozi bo'lish, uni huzur ila qarshilash uchun irfon va ishq zarur. Insonda o'zini va Yaratuvchini tanish ma'rifati qanchalar keng bo'lsa, uning ahdiga sidqu sadoqati, Xoliqiga muhabbati shu qadar yuksak bo'ladi. Oshiq orif uchun tiriklik hijroni ham xush, o'lim visoli yana-da xush. Unda sevgilisining amri farmoniga rizolikdan o'zga narsa qolmaydi. Ma'lum bo'lmoqdaki, Navoiyning hadislarni qo'llashdagi mahorati ham o'ziga xos. Shoir asarlarida hadislarining tutgan o'rnini belgilash muhimdir. Shundagina Alisher Navoiyning shoirlikdagi maslak-u matlabi, san'atkorligi teran ayon bo'ladi.

ISHQ SAVDOSI

Savdo – arabiy lafz bo‘lib, mumtoz adabiyotda oshiq qalblarda kechadigan bir holdir. Shu ma’noda savdo, ayniqsa, mumtoz tasavvufiy adabiyotda quyidagi ma’nolarda keladi:

1. Qora o‘t, melanxoliya (qadimgi meditsina ta’limotiga ko‘ra, kishi tani tarkibiga kiradigan to‘rt suyuqlik – xilt: savdo, safro, qon, balg‘amdan iborat. Bu xiltlardan birortasi ortib ketishi natijasida, go‘yo kishida ruhiy o‘zgarish, g‘am-kadar paydo bo‘ladi). Ma’lumki, inson vujud va ruhdan iborat. Bu imtihon dunyosida ular ayri tasavvur etilmay, mushtarak hodisa o‘laroq qaralgan. Zero, vujudagi sog‘lomlik ruhiyatga, ruhdagi komillik vujudga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ilohiy kitoblardan oziqlangan har qanday ta’limotda jism va qalb salomatligiga birday diqqat qilingan. Adabiyot ham lirik qahramonning hol tasvirlarida bunga e’tibor qaratgan, natijada, savdo so‘zi ham jismoniy, ham ruhoniy hollarni ifodolovchi istilohga aylangan:

Seyl un chektiyu savdo menda bepoyon hanuz,

*Dasht sarsabz o‘ldiyu men telba sargardon hanuz*³².

Demak, to‘rt unsur dan iborat vujudda hamisha mutanosiblik saqlanishi lozim. Bo‘lmasa, inson ruhiyati ham o‘zgaradi, savdosi ortib ketganda va xalq tili bilan aytganda “savdoyi” bo‘lib qoladi. Navoiy asarlarida lirik qahramonning savdoyi holiga ko‘p duch kelinadi. Shoir uchun savdoyilik jununvashlik, oshiqlik, darveshlik maqomlari kabi balanddir. Shuning uchun quyidagi baytlar dunyoga kelgan:

Damim dudi xirad ahlin qilur har lahza savdoyi,

Dimog‘imda, ko‘rung, ul zulf mushkidin ne savdodur?!

³² Alisher Navoiy. Badoe’ ul-bidoya. MAT. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B.88.

2. Savdo soʻzining kuchli ehtiros, ishq, shaydoyilik kabi maʼnolari ham mavjud. Darhaqiqat, qalbida ishq urugʻi tushgan oshiqda kuchli ehtiros va shaydoyilik boshlanadi. Bu zavq-shavq manbai, avvalo, ilohiy goʻzallikdir:

*Zihi husnuing zuhuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz gʻavgʻo.*

Bu dunyo Mutlaq borliqning zuhurotidir. Aslida har bir yaratiqda Allohning ism-u sifati namoyon boʻladi. Qalblarda savdoni paydo qiluvchi mana shu ilohiy ishqdir. Ishq insonni oʻzligidan qutqarib, yaʼni yangi bir men paydo qiladi. Shu bois ishq savdosi birikmasi keng qoʻllaniladi. Unda zohiriy bir tartib koʻrinmaydi. Undagi mahrumiyat ham axloqni goʻzallashtirishga xizmat qiladi. Navoiy ham inson nafsini uchun eng foydali savdo ishq savdosi ekanligini taʼkidlaydi:

*Ishq savdosida jonimgʻa ziyondur, demakim,
Har kishi mundoq ziyon ishq ichra qilsa, sudidur.*

Ishqi ilohiy farogʻatidagi shoir kechinmalari bayonida ishq savdosidagi hollar juda baland. Navoiy boshqalardan koʻra oʻz maqomining balandligini ishq savdosi bilan bogʻlaydi:

*Telba deb qilma Navoiyning ilojin, ey hakim,
Kim mushavvashdur anga bir oʻzga savdodin dimogʻ.*

Yoki yana bir gʻazalida quyidagicha faxriyasi bor:

*To jilva qildi ul sanam, Layli soʻzi boʻldi adam,
Savdom oʻti chekkach alam, past etti Majnun shuhratin.*

3. Navoiy savdoni xayol, istak, havas, orzu; telbalik, jinnilik singari maʼnolarda ham istifoda etadi. Mumtoz adabiyotda insonning xayolot olami va Haq yoʻlovchisining ruhoniyligi asosiy tasvirlardandir. Shu maʼnodagi savdoyilik – junun holiga tengdir. Shuning uchun ahli junun, ahli savdo – ishqqa muhtalo boʻlgan, nafsini mahv etib, oʻzligini unutgan oshiqdarga nisbatan qoʻllaniladi. Ularning jununi, aqldan ozishi

savdoning ortib ketishi bilan bog'liq. Bu savdoyilik aslida ruh pokligiga, qalbi salimga ishoradir:

Zulfi savdosi bu boshinda ko'p turur,

Bo'lsa savdo ahli, tong yo'q, ahli savdo birla do'st.

Savdoyilar o'z hollaridan maqtanmaganidek, shu maqomlaridan or ham qilishmagan. Badiiy adabiyotda ularning holiga sultonlar havas qiladigan baland bir rutba sifatida baho berilgan. Navoiyda ham bu kabi e'tiroflar mavjud:

Ishq ila bo'ldum masal savdo bila afsona ham,

Shukrilillohkim, yana oshiqmenu devona ham.

Albatta, Navoiyday ulug' shoirlar savdosi she'riyat bilan bog'liqligi shubhasiz. Buni shoirning "G'aroyib us-sig'ar" devoni debochasidagi: "Ammo ba'd so'z bayt ul-haramining bodiyapaymoyi va nazm shohbaytining zevaroroyi al faqir-ul-haqir Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy satara uyubahu va g'afara zunubahu andoq arz qilurkim, bu xoksori parishonro'zgor kichik yoshdin o'zumni *she'rning parishon savdosig'a* giriftor bo'lg'animniyu tufuliyat zamonidin ko'nglumni[ng] nazmning parokanda vasvosig'a mash'ufu sheftavor bo'lg'anin va motaqaddam shuarosi malik ul-kalomlari dasturi bila jam'u tartibida sa'y qilg'animniyu necha martaba aning tadvinida murattablar irtikob qilib har sinf she'rg'a zebu tazyin va oroyishu oyin berganimning kayfiyatin burung'i devonim fihrastidakim, «Badoyi' ul-bidoya»g'a mavsumdur, sharh bila arz qilib erdim" ³³, - iqrorida ham guvoh bo'lamiz.

Savdo lafzi bilan bog'liq "savdoyi", "savdozoda" (xayoli buzilgan, telba, tentak), "savdoiya" (savdoyilarcha, devonalarcha), "savdopesha" (savdogar) kabi istilohlar, "ahli

³³ Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. MAT. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1990. – B.8.

savdo”, “daf’i savdo”, “ishq savdosi”, “aql savdosi” kabi birikmalar paydo bo’lgan.

Daf’i savdo istadim la’li mayidin, bir yo’li

Ul pari savdozada ko’nglumni majnun qildilo.

Oshiqning jununini ko’rsatuvchi Savdozada istilohi, ayniqsa, “Devoni Foni”da ko’p uchraydi:

Xalq donist, ki on rashki pare yori man ast,

Dili savdozada nogufta, ki devonai kist³⁴?

“Majolis un-nafois” tazkirasida shoir Bobo Savdoyi haqida shunday ma’lumot beriladi: “Bobo Savdoy – Bovarddindur. Avval “Xovariy” taxallus qilur erdi. G’aybi olamdin anga jazaba yettikim, aqli zoyil bo’lub, eldin chiqib bosh-ayog’ yalang devonalardek tog’y dashtda kezar erdi. O’z holig’a kelib el orasig’a kirgandan so’ngra, “Savdoy” taxallus qildi”.

Ta’kidlash joizki, savdo forsiy kalima bo’lib, oldi-sotdi ma’nosini ham bildiradi. Navoiy asarlarida bu lafz moddiy ashyo va ma’naviy hol savdosi ma’nosida qo’llaniladi. “Mahbub ul-qulub”da “Bozor kosiblari zikrida” mol-mulk oldi-sotdisi haqida shunday fikr bildiradi: “Bozorda savdogar kosib-Tengrig’a xoin va va’dag’a kozib. Birga arzirin yuzga sotmoqdin alarg’a ming mubohot, mingga tegarni yuzga olmoqdin alarg’a yo’q bir zarra uyot. Rostliq bila savdo alarg’a ziyonkorlik va va’dag’a vafo alarg’a badkirdorlik. Oxirat ilmi savdosidin e’rozlari va amal mezoni adolatig’a e’tirozlari. O’g’ul atog’a boziy bermak peshalari, dag’alliklarin kirom ul kotibayndin yoshurmoq andeshalari”³⁵.

Adbabiyotda tasvirlanishicha, eng yuqori savdo husn, go’zallik savdosi ekanligi aniq:

³⁴ Alisher Navoiy. Devoni Foni. MAT. 18-jild. – Toshkent: Fan, 2002.

³⁵ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 102.

*O'zungni sotmog'ingda husn savdosidin, ey Yusuf,
Habibim yetsa erdi, ne ushalg'oy erdi bozoring.*

Husn savdosi bozorida Yusuf a.s.ga beriladigan baho tengsiz ekanligi ma'lum. Ammo Navoiy husn bozorida Yusuf a.s savdosini sindiruvchi Rasululloh (s.a.v) ekanliklarini aytishi bilan go'zallik haqidagi tasavvurlarimiz yanada tiniqlashadi. Navoiyda har bir tasavvufiy istiloh o'zining yangi va baland mohiyatini ochadi. Bu ta'kidni savdoga nisbatan ham bemalol qo'llash mumkin. "Biad-dunyo bil-oxirati tarbahu" hadisini Navoiy shunday sharhlaydi:

*Dunyo bila necha zebu oro qilmoq,
Ul zeb ila do'zax o'ti barpo qilmoq,
Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,
Uqbo bila xushdur ani savdo qilmoq.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, Navoiy asarlaridagi eng go'zal, bebaho savdo, ya'ni oldi-berdi, tarki dunyo qilish, unga imkon bo'lmasa, bu foniyl dunyoni, u abadiy dunyoga, ya'ni uqboga sotishdir.

Ta'kidlash joizki, mumtoz adabiyotda bahs etilayotgan savdo bir "ruhiy xastalik", ammo u g'aybdan keladigan ilhom, jazba oqibatida yuzaga chiqadi. Bunday savdo ortishining o'z muolajalari bo'lib, ularning tabibi, asosan, komil murshidlar, Robbul olamin Alloh taoloning o'zidir. Savdo insonning vujud va ruhoniylatidagi mushtarak bir holatdir. Irfoniyl adabiyotda u oshiqlik holi va maqomidir.

DUNYO DENGIZIDA TAQVO KEMADIR...

Taqvo – Allohga itoat etib, har turli tahlikadan, azobdan qutulmoq, jazoga yetaklovchi harakatlardan nafsini tiyish, gunohlardan parhiz orqali himoyalanişdir. Taqvo va taqvo ahlining ta’rif-tavsifi Qur’oni karimda ko’p bora keltiriladi. “Kim Alloh va Uning payg’ambariga bo’yinsunsa va Allohdan qo’rqib, taqvo qilsa, bas ana o’shalargina (baxt-saodatga) erishguvchilardir (Nur:52)”, - deyiladi Nur surasida. Demak, taqvo Allohdan qo’rqish va uning rasuliga ergashishdir. Baqara surasida esa taqvo ahlining rahnamosi haqida shunday deyiladi: “(Haq ekanligiga) hech qanday shak-shubha bo’lmagan ushbu Kitob g’oyibga ishonadigan, namozni to’kis ado etadigan va biz rizq qilib bergan narsalardan infoq-ehson qiladigan taqvoli kishilar uchun rahbar – yo’lboshchidir (Baqara: 2-3)”. Taqvo ahli *taqvodor, ahli vara’*, shuningdek, *atqiy*o deb atalgan. “Nsoyim ul-muhbbat” tazkirasida Shayx Rashn Avliyo q.t.s. haqida shunday ma’lumot beriladi: “Hind mulkining kibor mashoyixidin va mashohiri avliyosidindur. Zohiriy ilmida komil va botiniy irfon-u nukotda mukammal. Munavvar hazirasi avliyo atqiyoning chilla o’lturur xilvatlari mavzeidadur”. Ba’zan taqvodor kishi *muttaqiy* ham deyiladi. Ahmad Yugnakiy shunday zotlardan ekanligi urg’ulanadi: “Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g’arib nimalar manquldur. Derlarki, ko’zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo’lub, o’zga basirlardek andoq emas ermishki, ko’z bo’lg’ay va ko’rmas bo’lg’ay. Ammo bag’oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish”. Taqvoning muhim shartlaridan biri o’zini taqvo ahli sanab, kibrga berilmaslik, hech kimdan o’zini ustun sanamaslikdir.

Taqvo tasavvufning tamali hisoblangani bois ko’pincha zuhd-u taqvo, ilm-u taqvo birgalikda keladi. Zero, solikka faqat

zuhd, faqat ilm yetarli emas, balki amal, taqvo juda zarurdir. “Quzot zikrida” Navoiy shunday deydi: “Ilm-u taqvosi din ko’ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko’nglida anduh. Ko’ngli Kalomulloh ahkomidin qaviy va hukmida muqtado ahodisi mustafaviy”. Ammo mayxona bilan bog’liq holatlarda oshiq zohidga qarshi borganidek, taqvoni ham unutadi. “Mutrib va mug’anniylar zikrida” mana shu hol kuzatiladi: “Andakim rubob boshin yerga qo’yub niyoz ko’rguzgay va qo’buz quloq tutub ayshg’a targ’ib ohangni tuzg’ay. Chun qonun va chag’ona nolasi quloqqa tushgay va mahvash soqiy yukunub, may ayoqig’a tushgay, ul vaqt zuhdu taqvog’a ne e’tibor va hushu xiradg’a ne ixtiyor. Agarchi ishq faqr ahlini rasvo qilurda bulardin farog’dur va lekin ul o’tni yoruturg’a nay damidin yel-u maydin yog’dur”. Navoiy shuningdek, yoshlikda qilingan taqvoning ahamiyatidan bahs yuritadi: “Zuhd-u taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, yigitlikda dilpisandroq. Tavba va istig’no hama vaqtda sudmanddur, qariliqda sudmandroq”.

Navoiy lirikasida taqvoga munosabat boshqacha. Umuman, ta’kidlash joizki, tasavvufiy istilohlar izohida lirik ifoda tarzidagi o’ziga xoslikni inobatga olish zarur. Garchi “Yo’q! (Ularning da’volari botildir.) Balki kim ahdiga vafo qilsa va taqvodor bo’lsa (ana o’sha kishi Allohning suygan bandasidir). Zero, Alloh taqvo qilguvchi kishilarni sevadi(Oli imron:76)” oyatlar ila ogohlantirilsa-da, irfoniy istiloh va ifoda, hol va maqomni hisobga olgan holda tahlil qilish lozim:

*May mudom ich ul labi maygun sanam davrindakim,
Zuhd ila taqvo haromu may halol o’ldi yana.*

Yoxud:

*Ey, hamd o’lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.*

*Taqvo ahlig'a bilinsa edi charx avzo'i,
Aylagaylar edi bu dayrda xammorlig' ish.*

Oshiq, rind obrazi hollarida taqvoni unitish, taqvo ahlidan o'zlarini ustun qo'yish bor. Taqvoga munosabat lirik qahramonning ma'naviy holi bilan bog'liq. Junun yoxud fano holida quyidagi ifodalarga duch kelinadi:

*Vasl tahsili uchun, ey shayx, taqvo qilma amr
Kim, fano oyinin aylabtur menga irshod ishq!*

Ammo bu kabi ifodalar taqvoning muhim fazilat, baland maqom-martaba ekanligiga hech shubha solmaydi. Aslida har qanday maqomning asosida taqvo bo'ladi. Najmiddin Kubro hazratlari ham: "Bu hodisa Payg'ambarimizning shu hadis bilan tafsir va izoh etilur: "Shayton inson o'g'li tomirlarida qondek aylanur. Ehtiyot bo'ling va bu yo'lni ro'za bilan toraytiring". Quyidagi hadisning ma'nosi ham buning izohidir: "Imon yalang'och (bir odam kabi)dir. Libosi taqvodir. Va, albatta, taqvo shayton ila jangda ko'ngillar uchun bir sig'inoqdir", - degan edi. Shuning uchun valiy zotlarni ta'rif tavsifida taqvo ahli ekanligini Navoiy alohida e'tirof etgan. Hatto taqvo to'g'risidagi valiy zotlarning qimmatli fikrlarini ham keltiradi: "Birav Ruvaymdin so'rdikim, "ahvoling qanday?". Ul dediki, "kimniki, dini – hoyu-havas, himmati – dunyo bo'lib, o'zi solih taqvodor va pokiza oriflardan bo'lmasa, uning holi qanday bo'lishi mumkin?". Dedi: "albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo'lingan o'rinda bo'lurlar". Ibrohim Fotik debdurki, Abu Ya'qub Nahrajuriy debdurki, "dunyo – dengiz, oxirat – uning sohili. Kemasi – taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir". Taqvo Yaratganning amrlariga bo'ysunish, uni to'la-to'kis ado etish. Abadiyat orzusidagi inson, albatta, taqvo libosini kiyishi kerak. Bu haqida "Nasoyim ul-muhabbat"da shunday hikmat

keltiriladi: “Taqvodorlar o‘limi – mangu hayotdir. Zero, qavmlar o‘ldilar, ular esa, odamlar orasida tirikdirlar”.

TAVBA AYLAB, TAVBADA MARDONA BO'L...

Tasavvufiy hayot, shuningdek, mumtoz adabiyotning bosh maqsadi hamida axloqqa erishishdir. Bu yo'lda har bir tariqatning kamolotga yetish usul-u arkonlari har xil bo'lsa-da, biroq barchasi tavba bilan boshlangan, chunki u bashariyatning ilohiyotga qaytishi hisoblangan. Zero, "tavba" qaytmoq ma'nosini anglatuvchi arabcha so'zdirki, bu o'lik qalblarning g'aflatdan uyg'onishi hamda insoniy hayotga qaytishidir. Murshidga intisob etgan muridning ilk ma'naviy vazifasi bo'lmish tavba nafs ammoradan forig' bo'lishning dastlabki sharti hisoblangan. Tasavvuf kitoblarida tavba xususida alohida boblar ajratilib izohlangan. Tariqat ostonasidan tavbasiz kirib bo'lmaydi. O'tmishdagi qalb zanglari, avvalo, tavba bilan yuviladi. Shundan keyingina u ko'ruvchi oynaga aylanadi. Tavba insonning xato va gunohlaridan kechishi, yuragida hasad, kin, g'araz, g'iybat, tuhmat, adovat, riyo – xullas, barcha yomonliklarni ko'ra olishidir. Va ulardan poklanish uchun najot istash, ulardan voz kechish, xatolardan afv-u marhamat, gunohlardan mag'firat tilash. Tavba zohir va botin illatlar bilan xayrlashib, Alloh taologa yuzlanish erur. Navoiy hazratlari tavbani Allohning marhamati bilan ruhning ilk isyoni, degan. Tavba bandani nafsiga qullikdan ozod etadi. Shu bois "Mahbub ul-qulub"da Navoiy tasavvufning o'n asosini sharhlar ekan, ilk shart sifatida tavbani ko'rsatadi. Tavba etmasdan tavakkul, qanoat, rizo, ishq maqomlariga yetib bo'lmaydi. Unda Navoiy shunday deydi: "Nafsdin sanga zulm yetsa, nadomat eshikin och va Tengri panohiga qoch. Va tavba etokiga ilik ur. Ul tavba ustida mardona tur.

*Nafsi kofirdin nekim yetgay sanga,
Tavba aylab, tavbada mardona bo'l.
Yo'l ikidur, jurm birdur, tavba bir,
Ul yo'l ar bog'landi, ochug'dur bu yo'l"*³⁶.

Insonga zulm o'z nafsidan keladi. Zolim ham, mazlum ham uning o'zi. Bir yonda sufliy vujud, bir tomonda ulviy ruh. Bu zolimdan qutulmoq uchun mazlumning yagona panohi "Men o'z ruhimdan pufladim", degan Allohdan panoh istashdir. Kofir nafsni musulmon aylash tavba va unda sobit turmoq bilan ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Demak, mashoyixlar tavbani ilm qatoriga kiritishgan. Zero, u yo'l boshidagi muridlar uchun shart bo'lgan ilmlardan biridir. Xoja Ahmad Yassaviy:

*Ey osiylar, tavba qiling, Haq eshitsun,
Nolishingdin yer-u ko'klar navo qilsun,
Maloyiklar Haqdin tilab ulush bersun,
Ulush olgan qulning g'ami bo'larmukin*³⁷? –

deya, tavbaga chorlagan edi. Yuqorida aytilganidek, sayr-u sulukka qo'shilishda tavbaga juda katta e'tibor qaratishgan. Shu bois manoqib va tazkiralarda valiylarning tavbasi, ularning tariqatga kirish sabablari batafsil yoritilgan. Xullas, tariqatdagi barcha muvaffaqiyatlarning poydevori tavba hisoblangan. Zero, bashariyat otasi Odam (a.s.)ning najoti tavbasida edi. Robbini ismlari ila tanib, shaytonni lol qoldirgan hazrati Odam (a.s.)ning sirlar eshigini ochayotgan murid uchun ibrati ham, himmati ham cheksiz. Odam (a.s.) – Toyyib tavba maqomini eslatsa, Ibrohim (a.s.) – Oshiq ishq maqomi, Iso (a.s.) – Zohid zuhd maqomi, Muhammad (s.a.v.) esa Orif ma'rifat maqomini tamsil etadi. Darhaqiqat, ruh hayotiga safar Odam a.s.ning tavbasidan

³⁶ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – B.91.

³⁷ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar kulliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B.152.

boshlandi. Hech qanday sabab-u bahona ruh safaridan voz kechishga, to'xtashga asos bo'lolmaydi. Tanlangan, tan berilgan komil murshid o'zligini topishga qasd etganlar Odami Safiy alayhissalom farzandlari bo'lganligi, yo'lning boshlanishi esa tavba ekanligini eslatadi:

*Bu gunahdin orimoh etting havas,
Ul dog'i oson erur, ey bulhavas.
Tavbadur oni oritmoqqa iloj,
Zulmati isyon aro budur siroj.
...Tavba qilg'il dog'i behbudungg'a yet,
Yo'lg'a aylab azm, maqsudungg'a yet*³⁸.

Haq oshig'i ulug' shayx Abu Abdulloh Jallo (q.s.)dan muhabbat haqida so'raganlarida: "Mening muhabbat bilan nima ishim bor? Men tavbani o'rganmoq istayman"³⁹, – deya javob beradi. Ko'rinib turibdiki, tariqatga tavbasiz kirish ham, ildamlash ham yo'q. Shu o'rinda Ja'far Sodiqning tavba haqidagi ushbu fikrini xotirlash maqsadga muvofiq: "Ibodati tavbasiz yaxshi bo'lmas. Chunki Alloh o'z kalomida tavbani o'zga ibodatlardan avval keltirgan:

- Tavba qiluvchilar, ibodat qiluvchilar.

Tavbasiz zikr va toat bandani g'ofil etar. Tavba bilan bo'lgan zikr va toat vaqtida jamiki narsani ko'ngildan faromush etar, Haq bilan birga bo'lur"⁴⁰.

Allohning Murid sifatidan paydo bo'lgan sayr-u sulukdagi murid esa tom ma'noda murshidga irodasini taslim etgan solikdir. "Nasoyim"da o'qiymiz: "Dinovariydan so'radilar: "Murid kimdur va aning sifati nedur?" Bu oyatni o'qidikim: "To ularga keng yer torlik qilib qolguncha va dillari siqilib, Allohning

³⁸ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996. – B.144.

³⁹ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B.80.

⁴⁰ Fariddiddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent: G'afur G'ulom, 2012. – B.25.

faqat o'ziga tavba qilish bilangina qutulish mumkin ekanliklarini bilgunlaricha..."⁴¹. Tavba tasavvuf manbalarida bir ilm sifatida o'rganilar ekan, jumladan, "Risolai Qushayriy"da shunday deydi: "Tavba uch qismdir: tavba, inoba hamda avbo. Jazo ko'rilishidan (jazolanishdan) qo'rqib tavba etgan tavba sohibidir. Savob tamasida tavba etgan inoba, nihoyat, savob umidi va jazo qo'rquvi bilan aloqasi bo'lmasdan tavba etgan avbo sohibidir. Abu Ali derki: "Tavba mo'minning sifati. Haq taolo: "Ey mo'minlar, hammangiz Allohga tavba etingiz (Nur: 24/31), degan. Inoba vali va muqarrablarning sifatidirki, "Shuningdek, Rahmondan g'oyibona qo'rqqan va tavba etuvchi qalb bilan kelgan kishilarga (Qof: 50/33), deyilsa, avbo nabi va rasullar sifatidir. Ulug' Alloh: "... Darhaqiqat, u Alloh yo'liga butunlay qaytuvchidir (Sa'd: 38/17)", – deya marhamat qiladi". Mumtoz adabiyotda "tavbadan tavba etmoq", "tavba sindurmoq", "tavba ushotmoq" kabi iboralar xosu xoslar oldida aytiladigan, botiniy haqiqatlardan ogoh etuvchi hol ifodasidir. Bu muridning hol evrilishlarini ko'rsatadi. Nafs tarbiyasida ilk bosqich tavba hisoblansa-da, ahli tasavvuf har bir maqomning o'z tavbasi bor deyishgan. Shu bois solik holdan holga, maqomdan maqomga ko'tarilar ekan, go'yo endi uyg'ongandek, o'zini malomat qiladi. Kechagi holidan ham afsus, pushaymonlik chekadi. Tavbadan qaytish, tavbani buzish, tavbani sindirish aslida maqomdan yuksalish, muridning yana-da yuksak hollarga intilishidir. Qur'oni karimda bir necha o'rinda tavba tilga olinishi barobarida, alohida "Tavba" surasining kelishi ham so'fiylarning diqqat markazida bo'lgan. Tariqat tavbasi, albatta, avom tavbasidan farq qilgan. U guyo mudragan, hatto uxlab qolgan ilohiy hislarning uyg'onishi, hayotga qaytishidir. U shunchaki

⁴¹ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B.114.

xato-yu gunohlarni qayta takrorlamaslik uchun qilingan nadomatgina emas. Balki o'zini, o'zligini kashf etish mushohadasi, o'zining kimligini xotirlash, o'zini tanishga jiddu jahd etish holidir tavba. O'n sakkiz ming olam va odam, uning Yaratuvchisi haqida fikrlash, nafsdan kechib, ruhga qaytish uchun yo'lga o'tlanishdir. Ma'lum bo'layotirki, malomat ham ma'naviy yo'lchilikda muhim hol sanalgan. Bunda nafs g'aflatdan ko'z ochib, o'zini malomat qila boshlaydi. Dunyo hamda dunyoparastligidan ozorlanib, undan aloqani butkul uzishni istaydi hamda nafsda tazkiya – tubdan sayqallanish boshlanadi. Bu badiiy adabiyotda ham yetarli darajada o'z aksini topgan. Navoiy ham qator g'azallarida ushbu holdan xabar beradi:

*Zuhd ko'nglum ko'zgusin qilmish mukaddar, ey harif,
Sindururmen tavba piri ishq irshodi bila.*

Aslida zuhd tasavvufning ilk davri va uning buyuk vakillari borki, ularning hayoti, kashf-u karomati, valiylik darajasi insoniyat va insoniylik tarixida hali hanuz buyuk namunadir. Biroq zohidlikdan oshiqlik darajasiga ko'tarilgan solikka Ishq murshidi kirlangan ko'ngil ko'zgusini tavba sindurmoq ila poklashga buyuradi. Ishq piri tarbiyasidagi muridning holi, qalb kechinmalari, zohidnig ahvol ruhiyasidan farq qiladi. Solikning oshiq maqomida yozilgan g'azallari, aytilgan hol so'zlarining ohangu nag'masi ham boshqachadir. Ulardagi ramz va timsollar ham boshqa talqinga ega. Istig'for ham tavba qilmoq ma'nosida keladi:

*Istar ersang Tengrini, butlarni sindurkim, erur
Ushbu yo'lda dunyoyu uqbodin istig'for shart.*

Tengrini topmoqlik nafs butlarni sindirish, na-da dunyo, balki uqbodan kechish istig'for aytishdir.

Haqqa oshiq hazrat Navoiy bedor bir ruh, oshiq bir qalb sohibi o'laroq shunday "Munojot" etgan edi: "Ilohi, men tavba

qildim degandin ne sud, sen tavba bergilki, ham Tavvobsen-u ham Ma'bud". Darhaqiqat, Alloh taoloning ismlaridan biri Tavvob (tavba qabul qiluvchi)dir. Shunday ekan, Navoiy Allohning inoyat-u lutfi bilan nasib etuvchi, ahli dil tavbasini so'raydi. Biroq bu tavba insonning bir solih amali uchun berilgan mukofot yo inson anglolmagan qazoi qadarning bir siri, eng anig'i Yaratganning inoyati. Navoiy tavba maqomi xususida ham, albatta, turli asarlarida bahs yuritib, uning muhim bir jihatini yoritib bergan. Biroq "Hayrat ul-abror"da g'aybdan keluvchi ilohiy tavba haqida so'zlaydi. Murid qanchalar tavba tazarru etmasin, Alloh uning qalbiga soladigan pushaymonchalik muhim qiymatga ega emas. Bunda guyo Alloh bandasini o'z huzuriga chorlaydi. Ushbu tavbaning fayzi barakotidan mumtoz qullarning basirat ko'zi ochiladi:

*Hotife un chektiki, ey bul-fuzul,
Tavba qil emdiki yetishti qabul.*

*Sen tilading bizga rizo bo'lmadi,
G'ayri rizo hukmi qazo bo'lmadi.*

*Chunki bizing soridin o'ldi talab,
Kel berikim, bo'ldi mahalli tarab.*

*Rind ichiga tushubon tobi shavq,
Ashk bo'lub jismiga girdobi shavq...*

*O'zdin esa tavba bo'lur o'yla sust,
Haqdin esa tavba bo'lur bo'yla rust⁴².*

⁴² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.265.

Haq yo'lchisi tavbani g'oyibdan keluvchi bir ilohiy deb ataydi. Jaholat mayidan mast bo'lib, nainki badani, balki aql, his, din-u imonining yonmog'idan qutilish chorasi chin dildan ko'z yoshi ila qilingan afsus nadomat ekanligini aytadi. Bunday tavba ko'ngildagi o'zliknigina emas, do'zax o'tini ham o'chirishga qodirdir.

*Tavba emas yetmayin ilhomi g'ayb,
Kimki o'zi qilsa ushatmoq ne ayb.*

*Odami o'z jurmig'a muxtor emas,
Tavbasidin dog'i xabardor emas.*

*...O'zluk ila tavba tabohi degil,
Qilmog'idin tavba ilohiy degil⁴³.*

Navoiy hazratlari "Hayrat ul abrorda"da o'ziga tavbai nosuh so'rab shunday munojot qilgan edi:

*Jurm Navoiyni ko'p etmish malul,
Yorab, o'zung tavba berib qil qabul.*

*Soqiy, ayoq kelturu tut bizga bot,
Ahd boshin, tavba ayog'in ushot.*

*Uzr desam, bo'g'zuma quyg'il yiqib,
Quyg'ali ko'ksum uza lekin chiqib⁴⁴.*

Alisher Navoiy ijodiyotida tavba talqinlarining o'ziga xos o'rni mavjud. She'riyatida tavba lirik qahramonning hol va maqomini belgilaydi. "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi irfoniylarida esa tariqat usul-u arkonini

⁴³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.264.

⁴⁴ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.266.

belgilashda, hamida axloqqa erishishda asosiy vosita ekanligidan bahs yuritiladi. Shuningdek, shoirning molamatchi shaxsiyatini belgilashda ham tavba maqomi muhim mavqega ega.

SOQIY-MURSHID OBRAZI

Ahmad Yassaviy asarlari asrlar osha xalq tili, xalq ohangiga yaqinligi bilan butun turkiy xalqlar qalbidan chuqur o‘rin egallagan. Turkiy tasavvuf adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi Yassaviy nomi bilan bog‘liq. U ham turk tariqati, ham turk adabiyoti yo‘lboshchisi sifatida o‘zining qo‘llanmasi, odob-u arkoniga ega tasavvuf maktablari haqida taassurot uyg‘otuvchi Qalb “Hikmat”larini va faqat Yaratgan bilan ma’naviy aloqasi aks etgan “Faqrnoma”sini yaratdi. Darhaqiqat, turk piridan boshlangan va uning izdoshlari tomonidan davom ettirilgan adabiyot namunalari tasavvuf ramz va ishoratlarining mohiyatidir. Yassaviydan boshlangan adabiyotdagi mazmun va shakl uyg‘unligi tariqat va adabiyotda yonma-yon yuksaldi. Tariqat maktablarida ikki asosiy shaxsiyat: Haq yo‘lchisi – murid va uning yo‘lboshchisi – murshid adabiyotda ham xuddi shunday mavqeni egalladi. Ular adabiyotda shunchalar ko‘p ramz va timsollar bilan jonlantirildiki, o‘z-o‘zidan boshqa obrazlarni birlashtiruvchi, adabiyotdagi g‘oyaviy-badiiylikni ta’minlovchi eng asosiy obrazga aylandi, desa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Murid qalbiga inadigan tajallilar har xil, shu bois uning hol bayonlaridagi ramz va timsollar ham turlichadir. Alloh ba‘zan ism, ba‘zan sifat, goho fe‘l va nihoyat, zoti ila tajalli etadi. Adabiyot ham shunga munosib uning hol va maqom darajasini ko‘rsatuvchi, eng yorqin tasavvurni beruvchi obraz, ramz, timsollar tanladi. Murshid obrazi tarixi, ma’no qirralariga nazar solinsa, vaqt o‘tishi va davr kechishi bilan ularga muqobil yoki yondosh atamalar bilan mazmunan boyishi va kengayishlariga ham guvoh bo‘linadi. Murshid va murid dunyoga kelishidan to tariqatlar faoliyatiga chek qo‘yilguncha tarixiy mavqeini boy bermagan. Lekin vaqt hamda sharoit ularni boshqa nom va istilohlar bilan qo‘llashga ham to‘siq qo‘ymagan. Xuddi shu

narsa murshid va murid obrazining mohiyat e'tibori bilan boyishi, davr ko'zgusidagi o'zgarishlaridan so'z yuritishga imkon beradi. Biz mana shu zaruratni inobatga olib muxtasar tarzda bo'lsa hamki, Alisher Navoiy ijodida murshidga yondosh timsollardan soqiyga to'xtalib o'tdik.

Darhaqiqat, murshid o'rnida eng ko'p qo'llaniladigan, oshiq qalblar piri komili – **Soqiy** hisoblanadi. Adabiyotshunos Ergash Ochilov maqolalaridan birida yozadi: “Ma'lumki, soqiy deganda so'fiylar Allohni, Muhammad alayhissalomni, ma'shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgani kabi Alloh, payg'ambar va komil insonlar odamlar qalbiga ilohiy fayz bag'ishlaydilar, haqiqiy ishq o'tini soladilar, g'ayb ma'rifatidan bahramand etadilar”⁴⁵. Haqiqatan, qator baytlarda soqiyga murojaatga duch kelish barobarida “Soqiynoma”lar ham yaratilgan. Soqiy oshiq qalblarga malham beruvchi ruh tabibi ekanini chuqurroq anglash uchun u ulashadigan may sifatlashlariga e'tibor qaratmoq lozim, ana shundagina muriddagi ruhoniy huzur tushuniladi. Butun borliqning yaratilishi so'z bilan bog'liqligi, qalbni junbushga keltiruvchi so'zdan ta'sirliroq vosita yo'qligi hammaga ma'lum. Shu ma'noda murshiddan fayz olish aslida uning ma'rifat, hikmat to'la so'zlaridan bahramand bo'lish, u bilan musohiblik darajasiga yetish ekan, eng ta'sirlantiruvchi may – “**so'z mayi**”dir:

*So'z mayini ul kishi oshom etib,
Kim duri ma'ni sadafin jom etib.
Menki bu may nash'asidin mast men,
Dayri fano ahlig'a hamdast men*⁴⁶.

⁴⁵ Ochilov E. Navoiy asarlarida komil inson timsollari // O'TA. 2001.№1.– B. 11.

⁴⁶ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 62.

Daho shoir Alisher Navoiy o'zining dayri fano ahliga hamdastligini "so'z mayi"dan mastligi bilan izohlamogda. Zotan, dunyoi dunda undan ko'ra kuchliroq may yo'q. Oshiqning istagi ma'shuqni tinglash, uning suhbatidan mast bo'lish. Soqiyni talabgorga in'omi – may, sharob, rahdir. Tasavvufiy lug'atlarda murshidi komilning fayzli nafasi ma'nosida izohlanadigan bu istilohlar, insonning ruhiyatiga tegishli ozuqadir. Chunonchi, bu "Alast"dagi mastlik bilan bog'liq bo'lib, orif-oshiq ruhlarga juda tanishdir. Chunki may istilohi haqida o'ylashimiz hamon xayolimizga, avvalo, ruh lafzi keladi. Zero, may – mastlik, behushlik, sarxushlikka olib kelar ekan, bu ruhga tegishli bo'lib, insonning ilk va oliy huzuri Odami xokiyga ruhning kirishi onlarida bo'lgan. Alastdagi mastlikning sog'inchi, adabiyotdagi hijron asosini tashkil etadi. Navoiy ham:

*Odami xokiyni chu subhi alast,
Ayladilar **ruh mayi** birla mast⁴⁷,–*

deya, ruhoniy mayning kuchiga alohida urg'u bergan edi. Komil murshidni tamsil etgan soqiy tutadigan may ruhoniy fayzdir. Daf'atan, Alloh taoloning "Bas, qachon uni rostlab, unga O'z ruhimdan puflab kirgizganimdan so'ng unga sajda qilgan hollaringizda yiqilinglar (Sod: 38/72)" oyati karimasi eslanadi. Bu esa Yaratgan va bandalari o'rtasida yaqinlik bo'lib, so'fiyona she'riyatda *Soqiysi azal, Alast soqiysi* esa Alloh taolodir.

*Soqiyo, piri mug'on tokim bo'lubdur pirimiz,
Boda ichmakdin o'ngin yo'q fikru ham tadbirimiz.
Ketmagay boshdin havoyi boda bo'lsak xok ham,
Chun azalda qildilar boda bila taxmirimiz.
O'zligimiz birla bu mayxonag'a biz kelmaduk,
Kelturubturur qazoyi Haq bila taqdirimiz⁴⁸,–*

⁴⁷ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 188.

misralarida shoir ma'rifat va muhabbat ahlining "mayxona"ga kelishini qazoi qadar, taqdiri azal bilan bog'lagan. Chunonchi, yaratilishdagi asos "boda" bilan aloqador edi. Bu holni anglaganlarning murshidi soqiy yoki piri mug'on ekan, ularning mayparastlikdan boshqa yana qanday maqsadi bo'lishi mumkin? Ma'rifat murid ko'nglining zavq va farahidir. Modomiki, irfon tashnaligi sharob bilan qondirilar ekan, oshiq qullar soqiydan o'zga kimga murojaat qilishardi?! Ba'zan soqiydan may, sharob emas, oddiy, ramz-u timsollardan yiroq "jon suyi" so'ralishi ham uning ma'naviy darajasini ko'rsatadi:

*Ishq seni qilsa, Navoiy, halok,
Pok esa ul ishq o'lumdin ne bok.
Soqiy, o'lubmen, menga tut jon suyi,
Sofiyu pok, o'ylaki hayvon suyi⁴⁹.*

Sayri suluk – ishq yo'lidir. Ushbu yo'lda oshiqqa darmon dard-u balo, uning ma'shuqiga tuhfası esa jondir. Mana shunday qurbonlikdan so'nggina vahdat mayi nasib etadi. Maqomi tavhidda inson o'z holiga muhayyir. Uni maxmur etgan esa Azal soqiysi tutgan "xamri alast"dir:

*Xojaki **hayrat mayidin** mast edi,
Mastliq uyqusig'a hamdast edi⁵⁰.
Alast xamrin kimga bersa, o'shal soqiy,
"Balo" mayin mudom ichib yurur mangu boqiy⁵¹.*

Muhabbat sharobini to'la sipqorgan oshiqqa Vahdat va Sir sharobi in'om etiladi. Ishqda zavq, jazba qanchalar ortsa, soqiy va u ulashgan mayning ramz va timsollarida ham o'shancha aniqlik, yuksalish bo'ladi. Qalb o'z tug'yoniga mos imon

⁴⁸Hofiz Xorazmiy. Devon. Ikki kitobda. I kitob. Nashrga tayyorlovchilar H.Sulaymon, F.Sulaymonova. – Toshkent, 1981. – B. 80.

⁴⁹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 200.

⁵⁰ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 90.

⁵¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 310.

sharobini istaydi, uning soqiysi Payg'ambar va nihoyat, Azal bazmida ruh mayin tutgan Yaratgandir. Murshid va murid, soqiy va rind, dayr piri va oshiq muvofiqligi aslida ustod va shogird o'rtasidagi ilm-u ma'rifat, ishq-u muhabbat, hol-u maqomning darajasidir. Bu tasavvufdagi sakr va sahv holi bilan ham bevosita aloqador. Sakr almashib turuvchi hollar, turli shatahotlar aytiladigan lahzalarni bildiradi. Murid ishq sharobi va mushohada mayini ichgachgina sakr holiga tushishi aytiladi. Tajalliyoti zavqiyaning to'rtinchi darajasi sukr deyilgan. Ilk zavq totish, ikkinchisi shurb, ya'ni ichishdir, uchinchisi qonmoq bo'lsa, to'rtinchi sakrdir. Bu hol qanchalar oshsa, Allohga yaqinlik ham shuncha ziyoda bo'ladi. Mana shu zavqni tuygan, talvin hollarini yashagan murid eslagan may – imon mayidir:

*Soqiy, o'lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidin jon ketur.
Quyma bu kun jomima davron mayi,
Jonim ol, og'zimg'a quy **imon mayi**⁵².*

Alisher Navoiy ham hol shoiri sifatida soqiyga murojaat qilib, jismiga jon baxsh etuvchi imon mayidan berishini yolvormoqda. Soqiyning ahli abrorga sunadigan mayi imon mayidir.

*Dayr piri qo'ldabon, tirguzdi maydin mug'bacha,
Ey, Navoiy, bu ikkavni qil gumon Xizru Masih⁵³,*
deydi Navoiy g'azallaridan birida. Ma'lumki, "dayr piri" (butxona piri, mayxonachi) qo'llab, "**mug'bacha**" (may tashuvchi) tutgan may tolibga tiriklik baxsh etmoqda. Irfoniy adabiyotda tiriklik ramzlari turli-tuman: goh zulmat qa'rida yashiringan obi hayot, goh butxona ahli qo'lidagi may, goh yor labi va hokazo. Binobarin, yagona maqsad ruh tarbiyasi va yuksalishi ekan,

⁵² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 110.

⁵³ Alisher Navoiy. Badoe' ul-bidoya. MAT. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 103.

albatta, Xizru Masih singari bir pirning madadi shart. Murshid-soqiy muridlariga tutadigan may ruhlarga zavqu shavq uygʻotadi. “Shavq sharobi”, “sir sharobi”, “vahdat mayi” – bularning barini izohlash aslida “Balo mayi”dan totgan murid hol maqomlari bilan bogʻliq sharhlarni talab etadi. Biroq shuni taʼkidlash lozimki, bunday maydan mast boʻlgan tariqat murshidlari oʻzlarini soqiy, hatto toliblar – zavq ahli uchun mul, yaʼni ishq va irfon ulashuvchi may deb atagan hollar ham uchraydi:

*Qul Xoja Ahmad qul boʻlgʻan, yoʻl ustida kul boʻlgʻon,
Toliblargʻa mul boʻlgʻon, andin ibrat olinglar*⁵⁴.

Ahmad Yassaviy qalblarning ochilish sababi pir ostonasiga bosh urishda, uning fayzi maʼrifatidan bahra olishda ekanligini aytib, ***fano fish-shayx*** maqomida bir qancha hikmatlar bitgan. Bu hol barcha tariqat arboblari ijodida koʻrinadi. Mutasavvif Navoiy ijodida esa eng oliy rutbaga koʻtarilgan. Bunday misralarda rahnamo pirdir. ***Fano fir-rasul*** maqomida yozilgan sheʼrlardagi pir, soqiy, hodiy, rahbar, murshid va boshqalar Rasululloh (s.a.v.) ekanligi shubhasiz. ***Fanofilloh*** maqomi aks etgan hol ifodalarida soqiy – irshod etuvchi Ar-Rashid Alloh taolodir. Alisher Navoiyda bu haqiqat goʻzal betakror ifodalarda keladi:

*Tutub sanga chu mayi lutf **soqiyi rahmat**,
Shafoating urub ikki jahon eliga salo.*

“*Soqiyi rahmat*” deyilishi bilan kitobxon tasavvuri tiniqlashadi. Va bu ifodadagi maqsadni toʻla anglaydi. Navoiy

⁵⁴ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar kulliyoti. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. – B. 205.

Taʼkidlash joizki, xalq ogʻzaki ijodida ham soqiy obrazini uchratamiz. Uning eng mukammal koʻrinishi Soqibulbul boʻlib, u qahramonning piri va otining sayisi hisoblanadi. Xizr bobosi Goʻroʻgʻliga shunday pandi nasihat qiladi: “Soqibulbul senga ham ustod boʻladi, ham Gʻirkoʻk otning sayisligini qiladi. Shu kuni, shaharning ichida bir majlisxona bino boʻladi, odamlar yigʻiladi, majlis boʻladi. Soqibulbul soʻzni aytib, sozni chaladi, soqiy boʻlib mayni hammaga beradi; qoʻrgʻoningga ot qoʻyiladi. Soqibulbul nima deb ot qoʻysa, oʻsha boʻladi. Soqibulbulning aytgani-aytgan, bilgani-bilgan, qilgani-qilgan, – boʻladi deb” (*qarang*: Goʻroʻgʻlining tugʻilishi. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 1967, –B. 135).

ijodiy merosida soqiy takror-takror murojaat qilinadigan bosh obrazlardandir. Biroq har gal yangi bir ifoda, o'zga bir talqinga guvoh bo'linadi. Natijada boshqa bir zavq, boshqa bir hol dunyoga keladi.

Soqiy – bir komil murshidki, u nafs tarbiyachisi. Soqiy-murshid nafs o'zligidan qutqazib, ruh o'zligiga yetkazadi. Ishq va irfon ne'matini ulashuvchi may, shoir ta'kidlaganidek, kofir nafsni musulmon aylaydi. Bu xususida “Hayrat ul-abror”da o'qiymiz:

*Lek jihat ichra bu asg'ar durur,
Nafs bila aylagan akbar durur.
Tengri Navoiyg'a yeturgay jazo,
Kofiri nafs bila qilsa g'azo.*

*Soqiy, olib kel qadah el jonidek,
To sumuray dushmani din qonidek,
Xisravi g'oziy kafidin ber nabit,
Ichmogidin aylay o'zumni shahid.*

Irshod yo'lidagi Navoiy “jihodi akbar” sanalgan nafs mujodalasida o'zligini shahid etishni istaydi. Uning soqiyga iltijosi mana shundandir. Navoiy – hol shoiri. Uning asarlaridagi barcha haqiqatlarni anglash, his qilish imkonsizdir. Biroq aytish mumkinki, soqiy timsolining mazmun-mohiyati Haq yo'lchisining ma'naviy maqomi bilan uyg'unlikda to'la tushuniladi. Alisher Navoiy ijodida Soqiy dastlab komil murshid, keyin shafotchi Rasululloh (s.a.v.) va nihoyat haqiqiy murabbiy Robbul olamin, bir so'z bilan aytganda irshod etuvchidir.

Ta'kidlash joizki, murshid bahsida adabiyotdagi ranginlik o'quvchini hayratga soladi. Tazkiralarida “...nubuvvat davomchilari hisoblanmish murshidi komil”, dostonlarida mashaqqatli manzil so'ngiga yetkazuvchi ruhoniylar rahnamo,

lirikasida esa “bazmi balo”ni eslatuvchi dayr piridan tortib, shayxi koziblar tasvirini jamuljam etgan muhtasham bir merosga ega o‘zbek adabiyoti. Albatta, Haq yo‘lovchisi ***murid*** bo‘lganda rahnamosi ***murshid, oshiqu rind*** bo‘lganda ***soqiyu ma’shuq, ma’naviy farzand*** bo‘lganda ***bobo, ota, bulbulda gul, shamda parvona, tomchida daryo, zarrada oftob, qul*** bo‘lganda esa ***Haq***dir. Tahlil va talqinda mana shu ma’rufiy juftlikni har doim inobatga olish zarur.

JONIMNI HABIB AYOĞ'I TUFROG'IG'A SOL...

Badiiy adabiyotda tuproq (tufrog') obraz darajasiga ko'tarilgan. Avvalo, Odam atoning tuproqdan yaratilgani tuproqning adabiyotdagi o'rnini mustahkamladi. Odam atoning yaratilish hodisasida tuproq bilan kechgan muloqotlar nafaqat diniy, balki badiiy adabiyotda ham batafsil bayon qilinadi. Anosiri arba', ya'ni olov, havo, suv va tuproq insonning vujudinigina emas, ruhoniy sifatlarini ham ko'rsatadi. Odam yaratilishida to'rt unsur dan suv, olov va havoning o'zini taklif qilganligi ma'lum. Ammo tuproq Jabroil, Mikoil, Isrofil a.s.larga rad javobini beradi. Azroil a.s. esa tuproqning iltijolariga qaramasdan "Tarixi mulki anbiyo"da Navoiy aytganidek: "Er Azroilg'a ont bergandin so'ngra Azroil ayt tikim, Haq subhonahu va taoloning amri saning ontingdin yuqoriroqdur. Bir ovuch tufroq yer yuzidin olib, Haq taoloning amri bila bihishtga kelturub, Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning tiynatin tasnim suyi bila yug'urub, borchha maloikka arz qildilarkim, maqsudi olam va odam ofarinishidin munung xilqatidurkim, oxiruz-zamon payg'ambari bo'lg'usidur"⁵⁵. "Tarixi mulki anbiyo"da ko'pgina payg'ambarlar tarixiga oid manbalarda ko'rsatilmagan tuproqning jannatga olib kirilishi va eng avvvalo, Rasululloh tiynatining poklanishi aytiladi. Malomatiya tariqatining dunyoga kelish ildizlaridan biri aslida tuproqning o'z-o'zini malomat qilishidan boshlanadi. "Qissasi Rabg'uziy"da "Odamni tuproqdin yaratmoqg'a hikmat ne erdi?" savoliga shunday javob beriladi: "Qachon mavlo azza va jalla Odamni yaraturman teb xitob qildi ersa barchha narsalar bosh ko'turub Odamni bizdin yaratg'il teb tama' qildilar. Tog' aydi: «Man qutlug'men», tengiz aydi: «Man

⁵⁵ Navoiy A. "Tarixi anbiyo va hukamo". MAT. 16-tom. – Toshkent. Fan, 2000. – B.99.

haybatlikman», oltun aydi: «Man azizman», ko'k aydi: «Man adizman». Qamug' narsalar bosh ko'turub o'zlarini o'ta quvondilar. Ul holda yer tavozi qilib aydi: «Man qamug'din za'ifman, azoq oltindaman, manda quvong'u narsa yo'q», teb tavozi'liq qildi ersa xitob keldi: «Man Odamni tuproqdin yaraturman», teb. Odamni tuproqdin yaratdi»⁵⁶. So'fiylarda malomat eng zarur va baland hollardan sanaladi. Albatta, malomat orqali nafsni poklash, nafsni lavvoma bosqichini kechib o'tish insonning asliy fitrati tuproqning mohiyati bilan bog'liq. Tuproqdagi malomatchilik badiiy adabiyotda "tuproqsifat" maqomini dunyoga keltirdi:

*Haqni topqon tufroq bo'lub yo'lda yotdi,
Tufroq sifat olam ani bosib o'tdi,
Manmanliklar boshin bosib, tepib ketdi,
Bosh ko'tarib, anga suxan qilg'ani yo'q.*

Navoiy ham Odam avlodlarining asli tuproq ekanligiga e'tibor qaratib bayon qiladi: "Andin so'ngra Odam alayhissalom tufrog'ig'a qirq kun rahmat yomg'uri yog'durub, o'z qudrat ilki bila taxmir qildikim, "Xammartu tiynati odama biyadayya arabaina sabohan" (Odamning loyini qirq kun (tong) o'z qo'lim bilan qordim) andin xabar berur. Chun inson kisvatin odamg'a kiydurdilar⁵⁷". Bu voqea sababidan badiiy adabiyotda "Anal Haq" bilan bir qatorda "Anal Turob" masalasi ham keltiriladi. Mashoyixlarga ko'ra, "Bu mening Robbimdir" ofiyati malakut olamida "Anal-Haq" sirriga aylanadi. Bu ibtido bo'lib, unda hali xomlik, qusur bordir. Shu bois beixtiyor "Anal-Haq" va "Subhoni" kabi imtihonlar o'rtaga chiqadi. Va bular hulul shubhasini tug'diradi. Solik bu holdan hazrati Muhammad

⁵⁶ Navoiy A. "Tarixi anbiyo va hukamo". MAT. 16-tom. – Toshkent. Fan, 2000. – B.99.

⁵⁷ Navoiy A. "Tarixi anbiyo va hukamo". MAT. 16-tom. – Toshkent. Fan, 2000. – B.99.

yo'lini izlab va uning pok ruhidan madad tilab, shubhalardan qutuladi. Natijada borlikdan yo'qlikka odim tashlarkan, Allohning nuri ila ubudiyatdagi nuqsonini ko'radi va undagi iftixor va ehtiyojini ham idrok etadi. Va "Anal-Haq" emas, "Anal-Turob" (Men tuproqman) deyishga boshlaydi"⁵⁸. Demak, "Anal-Turob" Haq yo'lchisining eng baland martabalaridanir.

Insonning komilligida suv va tufroq kabi bashariy sifatlardan forig' bo'lib, ruhoniyl yuksaklikka erishishi nazarda tutiladi. Tuproq bir ma'noda insonning vujudiy istaklarini ham tamsil etadi. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi bu xabar fikrimizni dalillaydi: "Abulasvad Makkiy r.t. Azizening ziyofatig'a bordi va salom qildi va dedikim: sening do'stingmen, Abulasvad. Azize sakrab qo'pti va dedi: alaykassalom, nechuksen? Va filhol o'zidin g'oyib bo'ldi. Uch qatlag'acha bu hol erdi. Abulasvad bildikim, Azize tufroq_va suv iligidin va insoniyat rusumidin tashqari chiqibdur va aning diydorin g'animat tutti va qaytti"⁵⁹.

Tazkiralarda komil murshidlarga ko'rsatiladigan sidq-u sadoqat ham tufroq lafzi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Shu bois "pir oyog'i tufrog'i bo'lish", yoxud "xokisor boshin ul oyoqlarga tufroq qilmoq" oliy martaba ekanligi ta'kidlanadi: "Umid uldurki, bu zalolat vodiysida gumrohdek mahrumlar bu hidoyat olamida rahnamoylarning oyog'i tufrog'i bila tiyra bo'lg'on botin so'zlarin yorutmoqqa bahramand bo'lg'aylar. Va xokisor boshin ul ayog'larg'a tufroq qilmoq bila sarbaland". Ma'lumki, Rasulullohning oyog'i tufrog'i va undan yetadigan fayzi barakot, shafolat oliy maqsadligi shubhasiz. Navoiy ham buni urg'ulaydi:

*Ey, joni habibu ko'ngli ahabog'a lol,
Men ham qildim jonu ko'ngulni irsol.*

⁵⁸ Gökbulut S. Mecdüddin Bağdadı ve tasavvufi görüşleri. – Ankara: İlahiyat yayinevi, 2019. – B.157.

⁵⁹ Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B.34.

*Ko'nglumga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol.*

Tuproq joy, maskan, yanayam kengroq ma'noda Vatanni tamsil etadi. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy r.t.ning Hazrat Xoja Bahouddin hazratlari haqidagi: "... bu tufrog'din bir er isi keladur. Bo'lg'ayki, Qasir Hinduvon Qasri Orifon bo'lg'ay"⁶⁰ bashorati bunga ishoradir. Xalqda ham "tuproq'i olinmish" va yo "tuproq'iga qo'yilmish" iboralari qo'llaniladi. Tuproq qabr ma'nosida ham qo'llaniladi va tuproqning mazmun-mohiyati "Nasoyim"da keltirilgan quyidagi ma'lumotda yanayam ochiqqlanadi: "Va Qutbi zamon Imoduddin Abdulvahhob hazirasida madfun bo'ldilar. Bir kun darvishe alardin savol qildikim, chun bu badang'a tufroqta idrok yo'qdur va ruh andin muforiq bo'lubdur va arvoh olamida hijob yo'qdur, ne ihtiyojdur qabr boshig'a bormoq? Chun har maqomdagi, bir buzurgning ruhig'a tavajjuh voqe' bo'lubdur, hamuldurki kishi qabri boshig'a boribdur. Shayx dedilarki, ko'p foydasi bor. Biri bukim, birovgi bir azizning qabri ziyoratig'a borur, har necha ul yonki qadam qo'yar, tavajjuh ko'prak bo'lur. Chun tufrog'i boshig'a yetar, hissi dog'i ul tufrog'ni mushohada qilur va tavajjuhda hissi dog'i mashg'ul bo'lur va kulliy mutavajjih bo'lur, foyda ko'prak bo'lur".

"Mahbub ul-qulub"da ham Navoiy ilm yo'lida xizmat va marhamatdan bahs yuritadi: "Ilohiy, bu ogohlar ayog'i tufrog'idin biz gumrohlar tiyra ko'ngliga ochug'liq yetkur va qororg'on ko'zlariga yorug'lug' yetkur.

Bayt:

*Hamul kuhlul – javohirni ko'zumga to'tiyo ayla,
Ul iksiri saodatdin vujudim kimiyo ayla"*⁶¹.

⁶⁰ Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B.256.

⁶¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – B.62.

Shuningdek, yaratilish sababiga ko'ra, inson va shayton tufrog va olov misolida qarshilantirilishiga diqqat qaratadi: "Tabiiy dushman vaqte do'st bo'lg'aykim, suv o'tni o'churmagay va yel tufrog'ni sovurmag'ay. Inson bila shayton orasida adovatdur va tabiiy muxolifat: biri o'tdin yorotildi va biri tufrog'din yorotildi. Bu adovat arolaridadur ul chog'din o't g'olib bo'lsa, tufrog'ni kul qilur va tufrog' g'olib bo'lsa, o'tni o'chirur". Insonning haqiqatga erishishi ma'lum ma'noda uning shayton bilan kurashishidir. Zero, nafs shaytoniy istaklar ortidan zalolatga yuz tutadi. Bu kabi haqiqatlar adabiyotda ramzlashdi hamda quyidagicha ifodalarni yuzaga keltirdi:

*Bo'ldi sarkashlikdan oning ofati.
Ajzu tufrog'liq – bu birning rofati.
Birga ul masjudlug' bergan o'zi,
Birga bu mardudlug' bergan o'zi*⁶².

Insonga sajda qilishlikka amr etilishini Navoiy insonning tuproqdan yaratilgani va o'z aslini yo'qotmaganligi bilan bog'laydi.

Navoiy lirik merosida, ayniqsa, tuproqning o'ziga xos badiiy vazifasi bor. Asosan, oshiq o'zini tuproqqa tenglashtiradi:

*Yor ko'yi ichrakim tufrog' ila teng bo'lmisham,
Ishq g'avg'osi bu yanglig' poymol etmish meni.*

Yoki:

*Tufrog' o'lsam ko'yida, ey abri rahmat yomg'uri,
Qil madad onchakim, andin chiqmag'ay gardim mening.*

Xususan, ma'naviy hol va martabalarni anglatuvchi istilohlar bilan kelgan tuproq oshiqning qiyofasini aniq chizgilarda berishga xizmat qiladi:

⁶² Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996. – B.10.

Kim *fano tufrog'ig'a* yotib qo'yar tosh uzra bosh,
Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga.
Baland rutba hisoblanmish fano ila birlikda "fano tufrog'i"
birikmasi eng ko'p qo'llaniladi. Shuningdek:

Faqr tufrog'i:

Falak qasri bila kavn muttakosidin demang so'z kim,
Fano dayri makonim, faqr tufrog'i faroshimdur.

Junun tufrog'i:

Junun tufrog'in, ey ahbob, aritmang zor jismimdin,
Libosin so'ymangiz hazl aylabon majnuni uryondin.

Mayxona tufrog'i:

Qilib mayxona tufrog'in vatan, qon yutmog'im,
ko'rgil,

Ki bu bir bodayi ayshimdurur, ul masnadi johim.

G'am tufrog'i:

Daf' etay dermen jahondin ashk ila g'am tufrog'in,
Bu buzug'ni sel ila istarmen obod aylasam.

Odamiylik tufrog'i:

Odamiyliq tufrog'in bersa fano yeliga charx,
Ohkim, yo'qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Hajr tufrog'i:

Vasl torin chekti ul, men dog'i chektim, ohkim,
Rishtani urdiyu bo'ldum hajr tufrog'ig'a past.

Mazallat tufrog'i:

Mazallat tufrog'i sorig' yuzumda bordur andoqkim,
Behida gard o'lturg'on masallik tuk bo'lur paydo.

Bu birikmalar orasida "*qora tufrog'*" iborasi alohida mavqega ega. Zero, bu hayotning bir intihosi borligi ma'lum. Shu ma'noda bu birikma o'lim – intiho o'rnida qo'llaniladi:

Makon gulxan kulin qildim, Navoiy, telbadek, ya'ni
Junun torojidin oxir *qaro tufroqqa* o'lturdum.

Navoiy ruhning ozod bo'lishini asar ruhiyatidan kelib chiqib har bir asarida turli ifodalarda beradi. Ishq yo'lini ko'rsatgan "Lison ut-tayr"dagi tasvir ham o'ziga xos:

*Qush tavajjuh aylasa uchmoq sari,
Tufroq etsa mayl ham tufroq sari*⁶³.

Navoiy asarlaridagi maslak hamda janriy talablardan kelib chiqib, tuproq obrazining yangi-yangi qirralarini ko'rsatadi. Tuproqdan yaratilishdan tuproqqa qaytishgacha bo'lgan ma'naviy yo'lda solik hol va maqomlarini anglatishda mazkur obrazning ayricha o'rni hamda ahamiyati bor.

⁶³ Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996. – B.14.

KAMOLAT KASBINING KOMIL SOHIBI

Murshid – arabcha irshod lafzidan kelib chiqqan. Tariqat yo‘lidagi soliklarni to‘g‘ri yo‘lga soluvchi, siroti mustaqimni ko‘rsatuvchi, muridlar nafsini tarbiya etib, komil axloqqa erishishda vosita bo‘luvchi shaxsdir. Zero, murshid istilohi Alloh taoloning asmo‘ul husnasidan bo‘lmish *Ar-Rashid*, ya‘ni irshod etuvchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi lafzidan paydo bo‘lgan. Demak, bashariyat uchun ilk haqiqiy murabbiy zot Robb ul-olamin – Allohdir. Murshid suluk asrorlari, mashaqqatlarini to‘la fahmlay olishi zarur. Zero, buyuk shayx Najmiddin Kubro qayd etganlaridek: “Tariqatda sayri suluk etmagan, g‘ayb olamida yaxshi-yu yomonni ko‘rmagan, haybat, o‘lim va fanoning buyuk taarruzlariga ko‘krak kermagan kishining shayx bo‘lmog‘i va tarbiya ishlari bilan shug‘ullanmog‘i aslo to‘g‘ri emas”.

Insonning o‘zini anglashga, tanishga bo‘lgan ishtiyoqi koinotni idrok etishdan ham ustundir. Asli inson sayri Azalda – Olami Arvohda boshlandi, so‘ngi esa Oxirat – Abadiyatdadir. “Miysoq”dagi “Balo” ahdi bilan Azal va Abad oralig‘ida imtihon dunyosiga keldi Odam. Insonlar uning sinov dunyosi ekanligini unutdilar, goho o‘tar dunyo, deya qadr bermasdan boy berdilar. Ammo ushbu uzoq yo‘lchilikning insonni sharif aylagan iroda, ishq, ilm sinaladigan eng mashaqqatli manzili, eng qiyin davri – mana shu foniylar dunyodir. Zero, Yaratganga ibodat, ma‘rifat, muhabbat – solih amallar o‘tar dunyodadir. Agar u shunchalar “umri aziz” bo‘lmaganda: Kalomullohda ta‘kidlanganidek: “Koshkiydi, yana bir karra (yashashning” iloji bo‘lsayu...”, – deya afsus, xusron-u nadomat bilan yo‘qotilgan imkoniyat qayta berilishi orzu qilinmasdi. Bu pushaymonliklarning oldini oluvchi, mana shu idrok va iroda sinovida muhim sanalgan Payg‘ambarning ma‘naviy vorisi bo‘lgan komil murshidlardir. Murshidning, jumladan, adabiyotning asosiy vazifasi soyirun

nos – musofir insonga: “Nechun yaratildi, bu dunyoga nega keldi va qaerga ketmoqda?” kabi savollar berish va yechim topgunicha murabbiylik qilmoqdir. Shu ma’noda Alisher Navoiy ijodida ham murshid muhim obrazlardan sanaladi. U xoh lirik, xoh nasriy asari bo’lsin mazkur obrazga qayta-qayta murojaat qiladi. Hayot so’qmoqlarida bir piri komilga ehtiyoj tabiiy va zarur ekanligini ta’kidlaydi. Umri so’ngida yozgan “Mahbub ul-qulub” asarida ham: “Har qachon musofir ko’rmagan yo’liga rahbarsiz qadam ursa va yetolmaydigan vodiya tomon yugursa, uning yo’lni yo’qotmoq, yo’ldan adashmoq ehtimoli bor. U uqubatlardan va xatarlardan musofirni o’tkazib quyuvchi bir yo’lboshchi kerak”, – degan edi.

Murshidning, jumladan, adabiyotning maqsadi insonga nafsini tanitish, zotan “Nafsini tanigan Robbini taniydi”. Bu maslak Navoiy asarlaridagi bosh g’oyadir. Shu bois murshid mavqei haqida Navoiy barcha asarlar to’xtaladi, xususan, “Lison ut-tayr” da bu xususida qat’iy hukmni bildiradi:

*Har jamoatqaki yo’qtur peshvo,
Yo’lg’a ermastur qadam qo’ymoq ravo.
...Nafsdin har kimgakim bu biym erur,
Chora murshid ollida taslim erur.
Bo’yla illatlarg’a murshiddur tabib,
Kim xaloyiq pir derlar, ey habib, –*

Navoiy asarlarida shunchaki murshidning ta’rif va tavsifi berilmaydi. Balki uning insoniyat taqdiridagi muhim o’rni aniq ko’rsatiladi. Shuningdek, bu buyuk shaxsiyatning nafs tarbiyasidagi o’ziga xos usul-u arkoni ham chuqur yoritiladi. Mutafakkir “Nasoyim muhabbat” tazkirasida murshidning ma’naviy vazifasini nazariy asoslarda ko’rsatib bersa, “Lison ut-tayr” dostonida ma’naviy yo’lboshchilik sir-asrorini badiiy tarzda ifodalaydi. “Mahbub ul-qulub”da esa irfoniy-badiiy

asarlarga xos xulosalar tarzida bayon qiladi. Lirikasida yana bir o'ziga xos talqinga guvoh bo'lamiz. Najmiddin Kubro hazratlari: "Hol chaqmoq kabidir" deya ta'kidlaganlaridek: devonlarida goh talvin, goh tamkin hol-u maqomlari rangdan-rangga o'tib, ko'nglingda, tafakkuringda har gal bir yorug'lik baxsh etadi. Va bu nafs evrilishidagi ranginlik, tabiiyki, bayon tarziga ham o'z ta'sirini o'tkazadi: goh ko'ngil sayrida qo'lidan mahkam tutgan ma'naviy ota, goh ruh bazmiga chorlayotgan ma'shuqi matlub, ba'zan bu dahri dun xilxonasidagi murshidi komil, ba'zan ko'ngul xarobotida ma'rifat mayini sunayotgan soqiyu dayr piridir. Mana bu misralarga e'tibor qarataylik. Shunda imon mayini so'rayotgan talabgor nazarda tutgan soqiy obrazining mohiyati ravshanlashadi:

*Soqiy, o'lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidin jon ketur.
Quyma bu kun jomima davron mayi,
Jonim ol, og'zimg'a quy imon mayi.*

Demak, mutafakkir shoir ijodida piri komildan to soqiyi azalgacha mazkur obraz, ramz, timsollarning bari aslida irshod etuvchi, nafs tarbiyachilari, ya'ni murshidlardir.

Alisher Navoiyning murshid obrazi talqinidagi mahorat, uning yuksak ruhiy bir hol-u darajasi bilan aloqador. Ma'lumki, shoirning hayot yo'li o'ta ziddiyatli bir davrga to'g'ri keldi. Shu bois uning betakror shaxsiyatini belgilash ham juda mushkuldir. Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida Navoiyning ruhiy olami, ruhoniylar hayoti haqida mulohazalarini aytadi: "... ul Hazrat qabo kiygan valiylar qatoridan joy oldilar va "Ular uchun oxiratda xavf yo'q va ular tashvish ham chekmaydilar", deya xabar berilgan martabaga yetdilar. Ulug' Tangriga hamdlar bo'lsinki, hidoyat va iqbol osmonining quyoshi bo'lgan ul zotning muborak xulq-atvorlari doimo mana shu tarzda bolalik

yillaridan va endigina o'sib-ulg'aya boshlagan o'spirinlik chog'laridan boshlab bu dunyo va undagi narsalarga bo'lgan e'tiborsizlik etagini silkidi hamda hech qachon o'tkinchi molidunyoga bo'lgan muhabbat changini va bu dunyoning narsalariga bo'lgan qiziqish g'uborini o'zining himmat etagiga qo'ndirmadi". Navoiyning tasavvuf, jumladan, murshid to'g'risidagi qarashlarini xolis tahlil va talqin etishda o'zi piri komillari deya iqrор etgan Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ahror Valiy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiylar bilan munosabati haqida komil bir tasavvurga ega bo'lmoq lozim. Ma'lumki, Navoiy bir necha vaqt dunyo hoyu havaslaridan etak silkib, Raboti Suhayl degan joyda yashagan. U sayri sulukning usullarini nafaqat nazariyotchi, balki sobit bir amaliyotchisi ham edi. Biroq "Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'zlaringizdan bo'lmish boshliqlarga itoat etingiz!" oyatiga muvofiq ish tutishga majbur bo'ldiki, bu bilan zamonasida adolat va insof eshiklari ochildi. Muhrdor, vazir, hokim bo'lganda ham Mutlaq Mulk egasini bir lahza bo'lsin xotirdan faromush etmadi. Va zamonasining irshod qutbi, komil murshid Abdurahmon Jomiy ostonasidan ayrilmadi. Aytish mumkinki, ham Mulk, ham Ma'no olamida birday safar etdi.

Albatta, tamagir yo'ldan ozdiruvchi, murshidlik da'vo qiluvchilar ham Navoiy nazaridan chetga qolmaydi. Murshid turli fitna, ixtiloflarga sababchi bo'lmasligi, murid ham ta'lim jarayonida islom odob-arkonidan aslo yiroqlashmasligi lozim. Hadisshunoslikdagi roviylar sanadi kabi murshidlarning ham to'rt xalifa orqali Muhammad (s.a.v.)ga borib ulanadigan uzilmas silsilasi bor. Xalifalik martabasiga yetishmagan va ushbu zanjirga nisbat berilmaganlar tariqatda komil murshid, deya tan olinmagan. Riyokor shayxlar haqidagi qarashlar, deyarli, barcha mumtoz ijodkorlar diqqat-e'tiborida bo'lib, hamisha murodtalab

muridlar ogohlikka chorlangan. Biroq ma'rifatparvar Navoiyning murshidga ehtiromi qanchalar baland bo'lsa, riyokor, tamagir shayxlarga nisbatan nafrati ham hech bir ijodkorda uchramaydi. "Meni ishqdan man etar soda shayx" deya, hatto "shayx" radifli g'azallar bitgan mutafakkir shoir, so'nggi asarida "Riyoyi shayxlar zikrida" nomli alohida bob ajratib: "Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat. Turfa bukim, bu mazharg'a muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftau qaror. Ul bu do'konni yurutib tadbir bila va ma'rakani qurub tazvir bilakim, shayoting'a mahalla hayratdur va devi laing'a mujibi ibrat va nafratdur", – deydi. Haq yo'lchilariga haqiqiy murshidlar topilmasa, oydin yo'lni ko'rsatuvchi asarlar tavsiya etilgan. Binobarin, "(Haq ekanligiga) hech qanday shubha bo'lmagan ushbu **Kitob** g'oyibga ishonadigan, namozni to'kis ado etadigan va biz rizq qilib bergan narsalardan infoq-ehson qiladigan taqvoli kishilar uchun rahbar – yo'lboshchidir (Baqara: 2/2-3)", – deya Alloh bandalariga haqiqiy yo'lboshchi Qur'on ekanligini eslatgan. Navoiy ta'rifidagi murshid ham qalb kasalliklarini davolovchi tabibdir. Bu tabibning davo usulida Qur'oni karim va hadisi sharifga tayaniladi.

Navoiy murshidlarning o'ziga xos jihatlari to'la gavdalantirish maqsadida "*murshidi komil*", "*murshidi ishq*", "*murshidi aql*" birikmalarini qo'llaydi.

Navoiy asarlarida murshid "*sohib irshod*", "*irshodgar*", "*rahnamo*", "*rahnamoy*", "*rahnamoyliq*", "*rohnamun*", "*rahshunos*", "*peshvo*", "*pir*", "*bobo*", "*ota*", "*qulovuz*", "*yo'lboshchi*", "*shayx*", "*xoja*", "*hodiy*" singari istilohlar bilan keladi. Shuningdek, *orif*, *er*, *eran*, *soqiy*, *valiy*, *Xizr*, *Hudhud* obrazlari ham murshidlik xususiyatlarini namoyon qiladi. "*Kalomulloh*", "*ishq*", "*ko'ngil*" kalimalarini ham murshid ma'nosida qo'llab, ba'zi hollarda istiloh darajasiga ko'taradi.

Darhaqiqat, Allohning kalomi ko'ngillar dardiga davo bo'lishini ta'kidlagan shoir asarlari ham bir tarbiyachidir. Navoiy ta'rifidagi murshid – sinov dunyosining qadr-qimmatini anglagan hayot odamidir. U insonni faoliyatga undaydi. Har lahza o'z nafsini bilan musohib bo'lib, unga aldanmaslikka olib keladi. Insonning yashashdan maqsadi nima ekanligini, qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib beradi. Mumtoz adabiyotda komil inson haqida ko'p gapiramiz, ammo barkamollik bir murshidning tarbiyasi bilan qo'lga kiritiladi. Tariqat ustodi ma'nan yengib bo'lmaydigan haqiqiy hur, ozod, butun shaxsiyatni dunyoga keltiradi. Yana shuni ta'kidlash joizki, Navoiyning murshidi nubuvvatga muhabbat paydo qiluvchi, natijada Yaratganning zikrini dillarga naqshlovchi valiy, orifibillohdir.

YETTI VODIY SAYRI

“Lison ut-tayr” – Alisher Navoiyning umr so‘ngida (1499 yil) ulviy nazar, orif qalb ila yozilgan dostoni. Mazkur asar imtihon dunyosida sayri jamol aylagan muallifning ubudiyatidan, ishq-u ma‘rifatidan goh murid, goh murshid sifatida hasbi hol etgan ilhom mahsulidirki, zamondoshlari ham bunga iqror etishgan. Muarrix G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida Alisher Navoiyning ahli dilga qanchalar oshnoligi va ijtimoiy-siyosiy faoliyati ruhoniy hayotidan uzoq etolmagani haqidagi qarashlarini ikki asari bilan dalillaydi. “Ulardan biri “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi, yana biri esa “Farididdin Attorning “Mantiq ut tayr” asariga muqobil tarzda turkiy tilda she‘riy yo‘l bilan bitilgan “Lison ut-tayr” (1499) risolasidir. Ushbu qutlug‘ asarda fano yo‘lidagi sayri suluk hamda Xudovand dargohiga yaqinlik maqomiga yetishish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida hikoya qilinadi”. Darhaqiqat, tasavvufdagi huzuri ilohiyya, zavq-u shavq, hol-u maqomlarni aks ettirib, xos-u xoslarga ma‘naviy yo‘lchilik haqida bahs yurituvchi “Lison ut-tayr” visolga yetish usullarini ko‘rsatuvchi bir dastur ul-amaldir. Bu yo‘lchilik – ruh safari. Bu qush tili – ishq yo‘lidir. Abu Ali Ibn Sino va Abu Homid Muhammad G‘azzoliyning bir nomda, ya‘ni “Risolat ut-tayr” asari, Shahobiddin Suhravardiyning “Risolai musammo ba safari Simurg” kabi asarlari bo‘lsa-da, Navoiy:

*Lek haq tavfiq bersa, men — gado,
Shayxning ruhig‘a aylab iqtido.
O‘yla qushlar-nutqini izhor etay,
Bulbulu to‘ti kibi g‘uftor etay.
Tengrining lutfu inoyat xonidin,
Ya‘ni, ul Attorning do‘konidin, -*

deya ta'kidlaganidek, ma'naviy piri, fors-tojik adabiyotining yirik vakili Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga tatabbu'dir. Bolaligida "Mantiq ut-tayr"ni yod olgan shoir ayni ma'naviy bir xazinaga to'lgan yoshida unga munosib javob qaytaradi.

Ramziy-majoziy ishorat tilida yozilgan dostonning tarkibiy tuzilishi muallifning maqsad-u maslagini yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan. Doston an'anaviy hamd bobi bilan boshlanadi. "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)" oyati, shuningdek, "*Kuntu kanzan xafiyyan fa xalaqtul* xalqa (Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim) kabi qudsiy hadislarga ishora qilinib, Xoliq va xalq munosabatidan, ko'ngilning sir-asroridan so'z yuritadi. Biroq haqiqat yo'li bitta – bu shariati Islom, bu ishq safaridir. Bu omonat bilan Inson Allohning yerdagi xalifasi bo'ldi.

*Chun xaloyiqdin oni mumtoz etib,
«Kuntu kanzan» sirrig'a hamroz etib.
Boshig'a qo'yub hidoyat tojini,
Qismati aylab sharaf me'rojini.
Olam ichra andoq aylab muqtado,
Kim bo'lub xayli malakka peshvo.*

Navoiy mazkur dostonida o'zgacha bir uslubdan borgan. Aynan shu dostonida shoir shaxsiyati, uning ruhiy holati yorqinroq ko'ringan. Hamd bobdan keyin kelgan munojot ham buni to'la tasdiqlaydi. Munojot Navoiyning malomot holidan xabar beradi:

*Adlu ehsoningg'a xos etgil meni,
Nafsi zolimdin xalos etgil meni.
...Qush tavajjuh aylasa uchmoq sari,
Tufroq etsa mayl ham tufroq sari.
...Boshima yetkur meni qo'ymay hazin,
Onikim deb sen shafi'ul-muzannibin.*

Nuh surasidagi: “Holbuki U zot sizlarni bosqichma-bosqich yaratdi-ku (Nuh: 71/14)!” oyatiga asoslanib, mutasavviflar Alloh insonni yetti darajada yaratgan, degan fikrni ilgari surishadi. Shu tarzda tasavvufda **atvori sab'** – yetti maqom: *nafs, qalb, ruh, sir, sirrus-sir, xafi, axfo* tushunchalari paydo bo'lgan. Bu yo'lda yetti vodiy, yetti to'siq, yetti qasr, yetti bosqich, yetti qadam yoxud yetti sir bor. “Lison ut-tayr”dagi yetti vodiy ham ana shunga bir ishoradir. Qalb xastaligiga davo izlab qilingan safar juda qattiq va uzoq bo'lishiga qaramay, komil murshid tajribasi bilan yetti vodiy: **talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat** va **fanoga** ajratilib, sayri sulukda izchillik va yengillik hosil qilingan. Bu yetti vodiy bosib o'tilgach, qalbdagi shu qadar soflik va tiniqlik hosil bo'ladiki, ularda Lavh ul-mahfuz inadi. Ammo vodiylarning har biri qanchalik yaqin yoki uzoqligini hech kim bilmaydi. Avvalo, so'ng manzildan o'tib ketganlardan hech kim qaytmadi va eng asosiysi, bu yo'lchilikda Haq va yo'lovchi o'rtasida sir muhimdir. Shuningdek, Haqqa borish yo'llari insonlar nafasi yanglig'. Bunda har bir kishining iqtidor va irodasi o'ziga xosdir.

Tariqatda Rasululloh s.a.v. vorisi o'laroq yo'l bosiladi. Aslida o'zlikni anglash yetti, Ibn Sinoning “Risalat u-tayr” kabi asarlarida esa sakkiz manzil deya belgilanishi ham Muhammad s.a.v.ning me'rojdagi sayriga asoslanadi. Me'roj payg'ambarimiz s.a.v.ning Alloh taolo huzuriga ko'tarilishi. Tariqat tarbiyasida ham mo'minning me'roji nazarda tutiladi. Bu yo'lchilikda

murshidlar Haq yo'lchilarini payg'ambar orqali Allohga bog'lovchi bir robitadir. Shu bois "Lison ut-tayr"da bu vazifa yo'l boshchi Hudhud zimmasiga yuklatiladi. Navoiy doston syujetida Yetti vodiylar ta'rifini keltirishdan oldin bir qush tilidan "Qachon bu qatig' yo'lni qat' etamiz-u qachon manzilga yetamiz" kabi savolni beradi. Rahnamo Hudhud bu savolga shunday javob beradi:

*Ollimizda yetti vodiylar azim,
Har birida behadu andoza biym.
Lek har vodiylar manzil behisob,
Kim hisobidin qilur tab' ijtinob.
Yetti vodiylar aslu manzillar furu'
Ayloli ul asl sharhig'a shuru'.
Vodiyi avval — Talab vodiysidir,
Boshlag'on ul yon sharaf hodiysidir.*

Ma'lum bo'lmoqdaki, yetti vodiylar tamkinga erishib, solikning ma'lum muddat dam olib ko'chadigan bekatidir. Ammo u vodiylar va bu vodiylar orasida solik qancha tuyg'ularni to'yib, qancha hollarni yashaydi. Solikning bu yo'lga kirishini, Alloh azza va jallaning ne'mati sharifi sifatida qabul qilishgan so'fiylar Anfol surasining 17 oyatini xotirlashadi: "Bas, (ey musulmonlar), ularni sizlar o'ldirmadingiz, balki Alloh o'ldirdi. (Ey Muhammad, ularning yuziga qo'lingizdagi bir siqim tuproqni) otgan paytingizda, siz otmadingiz, balki Alloh otdi, va (bu g'alabani Alloh) O'z tomonidan mo'minlarga chiroyli in'om bo'lsin, deb qildi. Albatta, Alloh eshitguvchi, bilguvchidir". Demak, hidoyat bandalik muhabbati va Yaratgannning bandasini xotirlashidir. Bani bashar Odam a.s. avlodlari. Nafs tarbiyasida merosiylar tuyg'ularga tayaniladi. Odam a.s.ning Alloh taolaga ishq va vatanga sog'inchi, umuman, hijron-u huzunidan Tavba tazarru dunyoga keldi. Bu Odam a.s.ning nafsiga qo'ygan ilk talablaridan

edi. Komil murshidlar ham ilk vodiyni talab deb nomlanadilar. Tasavvuf ta'limotida, nafs maqomlarining ochilishida talab eshigidan kiriladi. Avvalo, maqsuduni to'g'ri anglagan solik matlubini talab qila boshlaydi. Navoiy "Talab vodiysining sifati" sarlavhasi ostida ushbu vodiya sayr aylagan tolibning holini bayon qiladi. Eng asosiysi, istak ranjidan zor ko'ngil, hijron azobida afgor ruhga to'g'ri yo'lni ochiq-oydin, ichzillikda ko'rsatiladi. Natijada, tariqatning o'ziga xos usul-u arkoni ochib beriladi.

— *«Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Ollingg'a har dam kelur yuz ming alam.
Istabon topmay duri noyobni,
Mundadur tark aylamak asbobni.
Mol-u mulk-u har nedur solikka band,
To'rt takbiri fano urmoq baland.
Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,
O'zni maqsad manzilig'a boshlamoq.*

"Lison ut-tayr" dostonidan o'rin olgan vodiylar sharhiga bag'ishlangan qismlardagi san'atkorona ifodalar, sehrli bayon baytma-bayt sharhlansa, shubhasiz, tariqatning nazariy asosi hosil bo'ladi. Navoiy tavba vodiysida barcha sabablarni o'rtadan ko'tarishni, to'rt takbiri fanoga erishishni ta'kidlaydi. Yaratganni ulug'lab «Allohu akbar» iborasini aytish takbirdir. Foniylarning to'rt takbiri, ya'ni to'rt yo'lni bosish lozimligiga urg'u beradi. Bular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir. Demak, talabda Rafiqqa yetishda to'siq bo'layotgan barcha sabablar o'rtadaan ko'tariladi. Talab vodiysi tavsifidan so'ng talab mohiyatini amaliy jihatdan yorituvchi hikoyat keltiriladi. Yusuf surat shahzoda ishqida zindonga tashlangan, shahzoda sakboni bo'lgan ikki talabgorning holati bayon qilinadi.

*Dardmande ayladi bir kun savol,
Kim: — «Nedur sizga bu mehnat ichra hol?»
Bu dedi: «Mehnat degan qaysi bo'lur,
Komu rohatdur mashaqqat ne bo'lur,
Menki ishq ko'nglum ichra to'lg'ali,
Rozi erdim ko'yida it bo'lg'ali...»
Ul dedikim: — «Ishq etib ko'nglumga zo'r,
Rozi erdimkim maqomim bo'lsa go'r.
Garchi holo band aromen ustuvor,
Vaslidin ko'nglum erur ummidvor».*

Solik doimiy imtihonda bo'ladi. Turli mashaqqatlar ila sinov maydoniga qayta-qayta tashlanaveradi. Faqat bu yo'lda talabdan voz kechmaslik, umidni uzmaslik, sidq-u sadoqat muhimdir. Shu bois bu ikki sodiq talabgor ham shahzodaning xos mahramiga aylanadi. Vodiylar sifati va hikoyatlar bir-birini to'ldiradi. O'quvchida tiniq tasavvurni paydo qiladi. Asar so'nggida har bir vodiy adosida munojotlarning kelishi bu maqomlar haqidagi bilimlarni yanada mukammallashtiradi. Bu yo'lda manzilga yetmoqlikning asosi to'g'ri talab ekanligi munojotdan ayon bo'ladi. Navoiy asarlarida komillikning yo'llarini: tariqi abror, tariqi ahyor, tariqi shuttor sifatida turlicha ko'rsatadi. "Lison ut-tayr" shuttorlar yo'lidir. Shuning uchun dostonidagi manzil-u makonlar tavsifini lisoni tayr orqali berish sirrini anglash kerak. Navoiy ham:

*Jannatu kavsaru gar to'biyu hur,
Istamak sensiz talabdindur qusur.
Jonu ko'nglumni o'zungga tolib et,
Dard ila ishqingga shavqum g'olib et.
Ham talab zavqini vosil qil manga,
Ham tilab topmog'ni hosil qil manga.*

*Mosivalloh xotirimdin salb qil,
Onda zikringni huzuri qalb qil, -*

deydi. Navoiy ushbu asarida o'zi ham go'yo ruhan parvoz etadi. Talab Allohning jamoli bo'lishini uqtiradi. Tolib hush-u lazzatini his qila boshlaydi. Tasavvuf ahli "Darhaqiqat mo'minlar najot topdilar (Mo'minun: 23/1)" xushxabariga ko'ra nafsning jidd-u jahd ila qutulmoqqa jazm etishi talab bo'lib, nafsning musulmonlashuvi boshlanadi.

Irfoniy adabiyotda bosib o'tilishi kerak bo'lgan ikkinchi vodiy Ishqdir. Barcha mutasavvif shoirlar kabi Navoiy ham ishqni o't – otashga tamsil etadi. Ishqda parvonalik har nimadan ustun qo'yiladi. Oshiqlik parvonadek ko'ymoq, oshiqlik bulbuldek izhori dil aylamoq. Ishq vodiysi ta'rifida boshdan-oxir olov haqida bahs etish bu vodiyda solik o'zlugidagi barcha qusurlarni yondirishiga, ishq pechagi chirmashib quritishiga ishoradir. Bu ishqning olovi bo'lganligi uchungina yonish oshiqda farah va huzur baxsh etadi:

*Ishq barqi xonumonni kuydurur,
Xonumon yo'qkim, jahonni kuydurur.
Tarki jon oshiqqa varzish onglag'il,
Yor uchun o'lmak kamin ish onglag'il.*

Asma'iy va ishqda jonbaxsh etgan oshiq haqidagi rivoyat keltiriladi. Ular orasida ishq mohiyati haqida yozishmalar ishq ta'rif-tavsifinigina emas, oshiqning holini ham aniq bo'yoqlarda tasvirlaydi. Ilmda talabning qalb maqomi bilan, ishqning ruh maqomi hollari bilan hamohangligi ma'lumdir. Bu yo'lchilikdagi parvozda qushning bir qanoti ishqdir. Ammo Shayx Najmiddin Kubro: "Ma'rifat va muhabbat qanotlari hech qachon teng kelmagay. Ma'rifat qanoti doimo muhabbat qanotidan balanddir", - deydi.

Ma'naviy yo'lchiligida uchinchi vodiya – ma'rifat. Ma'rifat Allohni ism va fe'llari ila tanishdir. Allohni tanigan kimsa qalbi poklanadi va unga ilhom beriladi. So'fiylar bu holga "lavoyih", "shohid", "fath", "ishorat" kabi nomlar berishgan. Ma'rifat qalbga, sevgi ruhga, tajalli sirga tegishlidir. Tasavvufda ma'rifat va ishq yo'lchilikning asosidir. Zero, inson sevganini taniydi, taniganini sevadi. Ma'rifat vodiysidagi orif tavhidi af'ol yoki fanofil af'ol martabasida bo'ladi. "(Iblis) aytdi: «Parvardigorim, qasamki, endi meni yo'ldan ozdirganing sababli, albatta, ularga (Odam bolalariga) yerdagi (barcha gunoh ishlarni) chiroyli ko'rsatib qo'yurman va albatta, ularning hammalarini yo'ldan ozdirurman (Hijr: 15/39)" oyatida ogohlantirilganidek, nafs o'zining g'animlarini bir-bir taniydi. Shu ma'noda, ma'rifat mujodala demakdir. Ma'rifatning kashfi ko'ngilda bo'ladi. Fotiha surasidagi yetti shart: hamd, jahd, xavf, rajo, tavakkul, ixlos, istiqomat sohibiga aylanadi orif. "Ma'rifat vodiysining vasfi"dan so'ng "Ko'rlar va fil" hikoyati keltiriladi. U ma'rifat vodiysi hamda oriflik maqomining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ruhiy tarbiyada har bir tolibning fe'l-atvori, ma'rifat darajasi inobatga olinadi. Umumiy bir tizim bo'lsa-da, tasavvuf xususiylik kasb etadigan tarbiya yo'lidir. Bu yo'lda pashshayu fil, Fir'avn-u Muso, Dajjol-u Iso bor. Kimdir Lotni panoh etsa, kimdir "La ilaha illalloh" deydi. Ular har biri o'zicha haq. Insonning zalolati va hidoyati, taraqqi-yu tanazzuli ma'rifatidadir. Ushbu vodiya kimdir adashib yo'lni yo'qotadi, kimdir halok bo'ladi, kimdir manzilga yetadi. Ammo uzun va xatarli yo'lni bir qadam qilish chorasi bor. Bu bor-u yo'qdan voz kechish, tajrid-u tafrid aylashdir. Ushbu haqiqatni oldinroq manzilni qat' etgan yo'l qarovuligina aniq ko'rsata oladi:

Chun suluk ichra ko'p erdi ixtilof,

Ko'pragi durd erdi, lekin ozi sof.

Kim ravishda sofi erdi mashrabi,

Bor edi ul tobe'i shar'i nabi,–

deya muallif ma'rifat vodiysining ta'rifini yakunlaydi. Yo'l nihoyasiga yetib, xazinani qo'lga kiritgan to'g'ri yo'l egalari nabi shar'ig'a itoat qilganlardir. Demak, to'g'ri yo'l dini islom, shariati Muhammadiyadir. Zikr ahli go'zal kalima Tavhid – La ilaha illalloh, uning mukammalligi esa Muhammadur rasululloh – Muhammad uning rasuli iqrori bilan deyishadi. Shunday ekan fano vodiysiga yetish va baqobillohga yuz tutish – “Barchalaringiz Allohning arqoniga bog'laningiz va bo'linmangiz” oyati bilan Qur'oni karim va Hadisi sharifni hayot mezoniga aylantirish, ilohiy amrlarga buysunish, taqdiri azalga rizo bo'lish va shukr etish. Mana shu yo'l turli-tumanligi kabi haqiqatlar ma'rifat vodiysida anglashiladi. Bunga juda yaxshi misol tariqasida “Ko'rlar va fil” voqeasi hikoya qilinadi: Naql qilishlaricha, bir guruh ko'rlar musofirlik yoxud asirlik tufayli Hindistonga borib qolibdi. Bir zamonlar o'tgach, taqdir taqazosi bilan ular o'z yurtlariga qaytib kelishibdi. Bir kishi ulardan so'rabdi: “Hindistonda fillarni ko'rdinglarmi?” Ular: “Ha”, – deya javob berishibdi. “Ko'rgan bo'lsangiz dalil keltiring-chi”, – debdi o'sha kishi. Ammo ular filni ko'rmagan, hatto yaxshi so'rab surishtirmagan ham edi. Har biri filning bir a'zosini paypaslab, u haqida o'zicha tasavvur, bilim hosil qilgan edi, xolos. Shu sababli fil qo'llarini ushlagan basir fil sutunga o'xsharkan desa, qornini paypaslagan “yo'q, u besutun” deydi. Xartumini ushlagan filni ajdahoga o'xshatsa, tishlarini ushlagan biri “yo'q fil ikkita suyak” ekan, deya ta'rif beradi. Quyrug'idan xabar topgan kishi esa filni osilib turgan ilonga qiyos etadi. Filning boshini paypaslash nasib etgan kishi uni bir qoyaning tumshug'i deya sharhlaydi. Nihoyat, filning quloqlarini paypaslagan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig'ich deya ta'riflaydi. Ular ko'rlik yuzasidan shu tariqa turli

soʻzlar aytdilar. Garchi ularning barcha soʻzlari rost boʻlsa ham ularning hammasi nuqsonli edi. Shu bilan birga bu taʼriflarda tartib ham yoʻq. Shuning uchun ham filbonlikda yetuk donishmand ustod, oʻzi hind boʻlgan kishi fil haqida naql qilganlarni malomat qilmasdan shunday deydi: “Har bir odam fil haqida bilganlaricha xabar berishdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytgan boʻlsalar ham kechirarlidir. Zero, ularning har biri bilganicha soʻzladi, biroq birortasi filni koʻrmagan edi. Lekin ular aytgan sifatlarning bari jamlansa, bir maʼrifat hosil boʻlib, ulardan fil haqida muayyan tasavvur dunyoga keladi. Komil koʻruvchi zot buni aniq bilgani uchun, hech ikkilanmasdan, koʻrlarning barcha soʻzlarini chin deya tasdiqlaydi. Mazkur hikoyat orifona mushohada ila tahlil va talqin qilinsa, tariqatning maʼrifat bosqichi haqidagi tasavvurlar tiniqlashadi. Hikoyatda eʼtibor berish zarur boʻlgan jihatlar: koʻrlar, fil, filbon donishmand kabi laduniy timsollar va joyning Hindiston deya tanlanishi. Koʻplab talqinlarda taʼkidlanganidek, hikoyatda Hindiston Haq dargohini tamsil etgan. U yerga yoʻl olgan koʻrlar Haq irfoniga talabgor yoʻlchilardir. Filbon esa komil murshid, fil haqidagi maʼrifatdan xabardor orifibilloh. Shu bois u koʻrlarning holini anglaydi va ularni ayblamasdan har birining soʻzini rost deydi. Zero, nafs tarbiyasida qanchalar maʼrifatga erishib, solik yuksak martabalarga koʻtarilsa ham Alloh azza va jallaning biror ism, feʼl va sifatlari tajallisini anglab yetadi, xolos. Demak, dahri dunda musofir inson Haqni, maʼrifat nuri ila koʻruvchi basirlar filni oʻz ilm-u irfoniga yarasha tasavvur etadilar. Biroq Allohning mutlaq zotiga erishish baribir imkonsizdir. Shunga qaramay bu sifatlar birlashtirilsa, Zot haqidagi tasavvur mukammallashadi:

*Lek jamʼ oʻlgʻonda bu barcha sifat,
Pilgʻa hosildur uldam maʼrifat.*

Sayri sulukda bosib o'tilishi shart bo'lgan ma'rifat vodiysidan murod maqsad ham ana shudir.

To'rtinchi vodiyl Istig'no deb ataladi. Istig'no g'ani asosidan olingan bo'lib boy bo'lmoqdir. Ammo bu badavlatlik Allohdan boshqasiga muhtoj bo'lmaslik bilan belgilanadi. "Zero, Alloh barcha odamlardan behojatdir (Ankabut: 28/6)" oyatga asosan, Al-G'aniy Allohdir. Barcha mulklar Yaratuvchisi va sohibigagina muhtojliklik martabasiga erishish Istig'nodir. Uning 3 turi bordir: barcha sabablarni qalbidan olib tashlagan solikning ko'ngil g'inosi, faqat Parvardigorning hukmlariga rozi bo'lishni o'ylaydigan nafs g'inosi. Bunda qalb barcha riyokorlik, yolg'ondan poklanadi. Va oxirgisi esa so'fiyning Haq taolo bilangina zanginlik topishidir. Buni ham uch darajaga ajratishgan. Birinchisi – Haq taolo o'zini zikr etganini mushohada etish. Ya'ni Alloh azza va jallaning azalda o'zini bilib yaratganini mushohada etgan solik abadiyatga qadar ham Allohning unutmasligini idrok etadi. Ikkinchisi – Allohning har narsaning avvali ekanini anglash. Solik bunda taqdirini yozuvchi, barcha rizqlarni ato etuvchi, butun ehtiyojlarni qondiruvchi Alloh ekanini idrok etadi. Uchinchisi esa so'fiyning Allohning ismlarida fano bo'lgach, uning zotida fanolikka erishishidir. Shu tariqa baqobillohga yuzlanadi. Istig'no vodiysidan o'tish juda mushkul. Ammo Navoiy nazdida, solik bu vodiyni rizo maqomi bilan bosib o'tadi. Shoir fikr-mulohazalarining dalili uchun Hazrati Ibrohimning Namrud tomonidan olovga otilishi rivoyatini keltiradi. Zotan, ushbu holida ham *"Hasbunallohu va ni'mal vakilu"* (U (Alloh taolo) naqadar yaxshi vakildir), deya omon qolgan Ibrohim (a.s.)ning rutbasi istig'no vodiysining sir-sinoatini to'la ochib beradi:

Oytqilkim ehtiyojing negadur?

Lutfu ehsondin mijoizing negadur?

*Neki sen dersen muhayyo ayloli,
Ulcha koming oshkoro ayloli?»
Dedi ulkim: — «O't manga ro'zi qilur,
Ehtiyojim ne ekonni ul bilur.
Yo'q sanga xud ehtiyojim bu nafas,
Toki zohir aylagaymen multamas».*

Istig'noda Haq yo'lchisi Al-G'aniy ismining tajallisi ila Haq tolonging rangi ila ranglanadi. Ahli botin sayrdan hayratga to'ladi va bu vodiyni Hayrat deb ataydi. Solik Xoliq va Uning yaratig'lar bo'lmish maxluqni birday ko'radi.

*Shariat aytadir o'ldir ilonni,
Tariqat aytadur og'ritma jonni,-*

kabi misralar so'fiylarning mana shu hollari izhorida yozilgan. Inson olami sug'rodan Olami Kubroni tamsil eta boshlaydi. Istig'no vadiysi insoniy olamda sidrat ul muntahoni ifoda etadi. Allohning fe'l va sifatleri tavihidiga erishgan solik bu maqom ta'sirida "Anal Haq" shathini zikr eta boshlashi mumkin. Tasavvuf arboblari qariyb barchasi bu mavzuga maxsus to'xtalishgan. Jumladan, Najmiddin Doya ham "Solik bu yo'lda ba'zi ruhoniylar maqomlarga erishadiki, bashariylar sifatidan, suv va tuproq libosidan chiqadi, mujarrat holga keladi. Haq sifatleri zuhurining nurlari unga yetishadilar. Butun ruhoniylar sifat va nurlar solikka tajalli etadi. Bu maqomda ko'ngil oynasi soflashganligi va ruh tajallisining aksini qabul etadigan holga kelganligi uchun o'ziga "Men Haqman" va "Na qadar shonliman" zavqini topadi. Shunda "Kamolotga erishdim" degan xayol va g'ururni paydo qiladi. Bu holda aqlining quvvati, vahmi va tushunchasi hech kim anbiyo va avliyodan ustun bo'lolmasligini idrok qilolmay qoladi. Bunday bir tahlika chog'ida agar Haq lutfining tasarrufi qo'lidan tutmasa, imonidan ajralish xavfi bor. Bu maqomda hushu va ittihad ofati ham kutiladi", - deydi.

“Sizlar qaerda bo’lsangizlar, U sizlar bilan birgadir. Alloh qilayotgan amallaringizni ko’rib turguvchidir (Hadid: 57/4)” kabi oyatlar solikka yordam beradi. Bu yo’llarni tanigan, oldin ko’rgan, bosib o’tgan pirigina to’g’ri yo’lni ko’rsatib yo’lning davomiyligini ta’minlaydi. Navoiy keyingi vodiy ta’rifini shunday boshlaydi:

*«Vodiyi Tavhid ondin so’ngra bil,
Fard o’lub tajrid ondin so’ngra bil.
Chun bu vodiy sori sayring qo’ydi gom.
Fardu yaktolig’ sanga bo’ldi maqom.
Borchag’a komu havo tajrid o’lur,
Borchag’a lahnu navo tafrid o’lur.*

Tavhid – yakka, yagonalik, birlikdir. Darhaqiqat, “Alloh, farishtalar va ilm ahllari — adolat bilan hukm qilguvchi yolg’iz Allohdan o’zga hech qanday tangri yo’q, faqat Uning o’zi borligiga guvohlik berdilar. Hech qanday tangri yo’q, faqat Uning o’zi bor. U qudratli, hikmat egasidir (Imron: 33/18)” oyatining sirri ko’ngillarda oshkor bo’ladi. Alal oqibat solik bu vodiyda senlik va menlikdan ozod bo’ladi. Ikkilik yo’qolib faqat birlik qoladi:

*Bir bo’lu, bir ko’ru, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.
Ikkilik bu yo’lda ahvolliqdurur,
Sirri vahdatdin mu’attalliqdurur.*

Bu vodiydan so’ng “Anal-Haq” zikri ila sir oshkor etgan Mansur Halloj haqida hikoyat keltirilishi bejizga emas. Barcha mavjudot Undadir, Undandir va U bilan tirikdir. Bunda zarra va oftob, tomchi va ummon birlashadi. Ruh tarbiyasida, Ishq yo’lchiligida “G’arqi vahdoniyat”dan hayrat dengiziga cho’mmagan Muhayyir solik yo’qdir. Maqomi tavhidda inson o’z holiga muhayyir. Axir soyirun nos – inson uchun ahd-u paymon

aylagan “Alast bazmi”ni eslash va unga qaytish sog’inchidan ham ortiq hayrat-u hayronlik yo‘q. Nafs tarbiyasida jidd-u jahd aylab, O‘zligini unutgan – nafs-u havoni yenggan vohid solik hayrat maqomiga ko‘tariladi. Dostonning asosiy qahramoni, ya’ni muallif ham Robbul olamin – olamlar Murabbiyidan tavhid maqomiga erishishni istab yolvoradi:

*Har kishikim qismi tavhid aylading,
Boisi tajridu tafrid aylading.
Kimki o‘zlukdin chiqording oni chust,
Aylading ollingda tavhiddin durust.
Menu o‘zluk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo Rab, yetur.
Menda, yo Rab, qo‘yma menlikdin nishon,
O‘zlugungda mahv qil domonkashon.*

Demak, tavhid sababni oradan ko‘tarish, har narsa Allohdan deb bilish va eng asosiysi, bashariy o‘zligidan tom ozod bo‘lishdir. Mana shunday ma‘nan qayta tug‘ilish bosqichini ko‘rsatishda dostondagi “Mahmud va Ayozi” hikoyati alohida e‘tiborga molik. Vohid bilan muhayyir (tavhid va hayrat), deyarli, farqlanmaydi. Yor bilan uchrashish tavhid, uchrashish paytidan keyingisi esa hayratdir. Allohning qudrati qarshisida qolgan solik hayratga cho‘madi. Ba’zi so‘fiylar hayratni so‘nggi marhala deydilar. Bu vodiya ham o‘ta xatarlidir. Solik va Haqni bir-biridan ajratib ko‘rsatuvchi yo‘lboshchiga ehtiyoj bo‘ladi. Solikda na jannat orzusi, na jahannam qo‘rquvi, na borlik g‘ururi, na yo‘qlik tahlikasi bor. Unda faqat sayri jamol ishtiyoqi, Yaratganning rizoligi qoladi. Hayrat tillarni sukut ettiradi, solik o‘z holining bayonini ham qila olmaydi. Alloh taologa makon va zamon nisbat etilmagani sababli solik uchun ham makon va zamon o‘rtadan ko‘tariladi. So‘fiy ham ibnul vaqt, ham abul vaqtdir. Najmiddin Kubro hazratlari: “So‘fiy ibnul vaqt, ya’ni

vaqtning o'g'li. U bilan barobar yurar. U o'tmishga ham, istiqbolga ham nazar tashlamas. Chunki uning moziyga yoki istiqbolga boqmog'i o'tmish yoxud kelajakni o'ylab ayni ondagi vaqtini behuda ketkazmog'i demakdir, buning takrori esa ko'p vaqtzni zo'ye' etar. Sog'lom muroqabaning sharti ham muhofazai vaqtdir", - degan edi.

Fano so'nggi vodiidir. Ammo ko'p irfon egalari kabi Navoiy ham bu vodiyni Faqr-u fano deb ataydi:

*Borchadin so'ng vodiysi Faqr-u fano,
O'tmas ondin sayr ila solik yano.
Qat' o'lur munda suluk ahlig'a gom,
Ish bo'lur o'zga qilig' birla tamom.
Lek manzildin xabar bermas birav,
Kim bu yo'ldin yonmadi bir rohrav.
Bu yetti vodiyy dog'i ijmol erur,
Lek tafsilida ko'p ishkol erur».*

Haq oshig'i Yunus Emro "Bir men bordir menda, mening ichimda" degan edi. Solikning jangi ichidagi minglab "men"lar bilan bo'ladi. Va jihodi akbar natijasida qaqnusbacha – ma'naviy farzand – Men dunyoga keladi. Allohning zot, sifat, ismlari tajalli etgan insoni komil Si Murg'ga erishiladi. Kubro hazratlari fano maqomini shunday anglatadi: "Sayyor avvallari sababni, so'ngra esa musabbibni mushohada etar. Vaqt o'tishi bilan sabab-u musabbibni ayni onda mushohada etgudek bir tarzda ular bilan aloqa bog'lab, ulfatchilik qilar. So'ngra esa foniyydan kechib boqiyni tanlar va shundan keyin faqat musabbibni ko'ra boshlar. Bir guruh shayxlar (q.s.)ning "Hamma narsadan so'ng Allohni ko'rdim, keyin esa Uni hamma narsa ila birga ko'rdim. Undan ham keyin hamma narsadan avval Uni ko'rdim", degan so'zlarining ma'nosi ham xuddi ana shudir. Bu Alloh tavhidida

foniyl va zikrida istig'roq holining sharofatidan erur". Atvori sab'aning alohida ta'rifiga bag'ishlangan asarlarda ko'rinadiki, tavihid vodiysida bir bor foniylkka erishgan solik hayratdan o'ziga keladi hamda faqr-u fano vodiysida tamoman o'zlikdan kechib baqobillohga yuz tutadi. Yaratiqlarning bari mahv o'lib, yolg'iz Yaratuvchi qoladi.

*Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas...*

*Munda zohir bo'ldi sirri «man araf»,
Kim ko'rubtur gavhar o'lmog'lig' sadaf.
Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.*

Insonning sharifligi odob-u axloqi bilan. Junayd Bag'dodiy: "Tasavvuf xulqdir. Kimki sendan xulqda ustun bo'lsa, tasavvufda ustundir", – degan edi. Bu ustunlik axloqi Muhammadiya bilan xulqlanishdir. Yetti vodiyl so'nggida solik "Men go'zal xulq ustida yaratildim" degan Rasulullohga vorislikka erishadi. Ammo bu vodiylarda riyozat chekish, mashaqqat ila bosib o'tish erlar ishidir.

*Barchasi fahm ettikim bu mushkil ish,
Ul jamoat loyiqi ermas emish.
O'zlaridin barcha navmid o'ldilar,
Mubtaloi huzni jovid o'ldilar.
O'yla topti bo'yla muhlik so'z vujud,
Kim nihodidin borining chiqti dud.
Balki chun bu ishga voqif bo'ldilar,
Vahmdin ul dam ko'pi xud o'ldilar.*

Vodiylar ta'rifini eshitgan ba'zi qushlar qo'rquvdan jon taslim etadilar. Zero, bu qatig' va uzun yo'ldir. "Lison ut-tayr"da

Navoiy bu zahmatli yo'lchilikni to'laqonli ko'rsatib bera olgan. Yetti vodiylar sifatini tasvifidan keyin – 10 (6 vodiylar sifatini ta'rifidan keyin 1 tadan, 7-vodiylar sifatini ta'rifidan keyin 4 ta) hikoyat (150-, 152-, 154-, 156-, 158-, 160-, 162-, 163-, 164-, 165-boblar) keltiriladi. Yetti vodiylar adosi munajjimlikdan keyin ham 7 tamsil (175-, 177-, 179-, 181-, 183-, 185-, 187-boblar) keltiriladi.

Xullas, Alloh bir mo'min qulini talabat ahliga qo'shmoq istasa, u qulining ko'ngliga Irodat sifatini ila tajalli etadi. U qul esa talabi Haq dardiga tushadi. Va darajama-daraja unsiyat hosil qiladi. Talab vodiysida – Tolib, Ishq vodiysida – Oshiq, Ma'rifat vodiysida – Orif, Istig'no vodiysida – G'aniy, Tavhid vodiysida – Vohid, Hayrat vodiysida – Muhayyir, nihoyat, Faqr-u fano vodiysida – Foniya aylanadi. Birinchi manzilda haqiqiy Matlub tanlanadi. Vujud bu manzilda riyozatga bel bog'laydi. Va Ikkinchi bekatda nafs poklanib, ko'ngil zavqqa to'ladi. Va bu manzil solik uchun eng xush manzillardan bo'lib, nafs shu yerda qolishni ixtiyor etadi. Ammo manzil uzoq, yo'l qatig'dir. Solik ilm yordamida ildamlashi lozim. Islom ma'rifati qalblarga inib, "aql" bu manzilda qoladi. To'rtinchi manzilda go'zal axloq sohibiga aylanib, zikrulloh bilan mashg'ul bo'ladi, tavakkul maqomiga ega aylanadi. Bu ko'ngil maqomidir, ko'ngil shu manzilda qoladi. Beshinchi manzilda orif talabkor bo'ladi. Ular basirati ochiq, voqifi asrorlardir. Bashariy sifatlar zaiflashib, malokoniylilik kuchayadi. Tayyi makon va tayyi zamonga erishiladi. Ilohiy ummonga g'arq bo'lish oltinchi maqomdir. Ularga lutf va qahr tafovuti yo'q. Vujud, nafs, aql, ko'ngil va jon tark etilgach, ularning yo'qligi tufayli ojizlangan solik Haqning rahmati bo'lmish inoyat, hidoyat, tavfiq, aqli kull orqali, shuningdek, ma'shuqa ishq va jamol umidi bilan visolga erishadi. Demak, avvalo, talabda Do'st tanlanadi, nafs ammora

nafsi marziyaga almashadi, aqli maosh aqli kullga, jon esa qudsiy ruhga aylanadi. Allohning fayzu rahmati Haq erini yo'l so'nggiga olib boradi. Shayx Abdulkarim Qushayriy ta'kidlaganidek, barcha istaklardan forig' bo'lgan foniyo' lchi Allohning irodasi bilan boqiy bo'ladi. Dostonda bu hol va maqomlar aniq, ravshan ko'rsatilgan. Navoiy "Lison ut-tayr" asari bilan insonlarga "Alast bazmi"ni eslatadi, ahdga vafo etishga da'vat etadi. Tavba-yu zikrulloh ila qurbat, riyozat eshigini taqqillatishga jur'at, yetti vodiyni bosib o'tishga ishq, irfon va jasorat paydo qiladi.

“MAHBUB UL-QULUB”DA MA’NAVIY VALODAT MASALASI

Mumtoz adabiyotning maqsad hamda vazifalarini aniq va xolis belgilash uchun ma’naviy valodat mazmun-mohiyatini anglash lozim. Zero, sharq irfoni adabiyotining asosiy maqsadi komil shaxsni dunyoga keltirishdir. Din va tasavvuf ta’limotidan oziqlangan adabiyotning ham bosh maqsadi ta’lim-tarbiya edi. Alisher Navoiy ijodiyotida ham ma’naviy-ruhiy valodat bosh mavzu sanaladi. Xususan, shoirning hayotiy va ijodiy saboqlari yakuni bo’lgan “Mahbub ul-qulub” asari ruh najoti uchun eng zarur fikr-mulohazalar, fano olamidan baqo saltanatiga safar etishdagi eng foydali maslahatlar, qat’iy xulosalardan iborat. Inson shubhasiz soir un-nosdir. Uning sayri Alast bazmidan boshlanib, imtihon uchun bu dunyoga keltirildi. Bunga sababchi ota-onadir. Ma’nan qayta tug’ilishining esa ma’lum bir omillari mavjud. Bular “Mahbub ul-qulub” asarida atroflicha sharhlangan. Navoiyning tariqat, irshod, murshid, murid haqidagi qarashlari barcha asarlarida mavjud. Ammo so’nggi asarida Navoiy ko’z o’ngimizda tariqatshunos sifatida gavdalanadi. Muallif asarning turli boblarida nafsning poklanishi, qalb xotirjamligi uchun zarur bo’lgan tarbiya haqida so’z yuritadi. Mashaqqatni irfon-u idrok bilan yenggan, fahm-u farosat, zavqini barchaga ulasha oladigan Murabbiy portretini eng yorqin chizgilarda chizadi: “...Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas, har qattig’ kishini bir tifi muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o’rgatgay, ko’rkim anga ne yetgay? Oncha borkim, ul qavmning idrok-u fahmi oz tushar, andoq kishiga yuz muncha mashaqqat ne bushar. Har taqdir bila atfolg’a haqqi ko’pdur, agar podshohliqqa yetsa va anga qulluq qilsa xo’bdur. Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri

rozidur”⁶⁴. Murshidlar muridni faqat Ma’rifat haybati bilan taslim etishgan. Shu bois irshod vazifasini shariat, tariqat, haqiqat ilmlaridan voqif bo’lgan oriflarga zimmasiga olishgan. “Mudarrislar zikrida” bobida Navoiy ularga shunday ta’rif beradi: “...Olim kerakkim, muttaqiy bo’lsa va ogoh va ayturi qola Alloh va qola Rasululloh.

*Har ne aytur bo’lsa Xudovu rasuldin
Andin so’ng o’lsa mujtahidu avliyo so’zi.
Andin kishi ne kim eshitur va yoki o’rganur
Bo’lsa Xudo so’zi, yo’q esa, Mustafo so’zi*⁶⁵.

Mutafakkir shoir talqinida ta’lim-tarbiya Haq yoki Payg’ambar s.a.v. so’zidan yiroq bo’lmasligi lozim⁶⁶. Navoiy ilmi musiqiydan ilmi nujumgacha, ilmi balog’atdan ilmi tafsirgacha, qisqasi, ham dunyoviy, ham diniy ilmni eng mohir ustozlardan o’rgangan benazir shogird edi. Biroq uning tarbiyachi haqida “Mahbub ul-qulub”dagi eng so’nggi xulosalari shunday: “Va’z bir murshid va ogoh ishidur va bir komil ahlulloh varzishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo’lni

⁶⁴Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 28-б.

⁶⁵ Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 22-б.

⁶⁶ **Izoh:** Navoiyning ilm haqidagi qarashlari ilmiy, nasriy, lirik asarlarida birday tilga olinadi, ta’riflanadi. “Farhod va Shirin” dostonida ilmu irfonda tengsiz temuriyzoda Mirzo Ulug’bek qasidasi keltirilgan bobda ilmning qadri naqadar balandligini e’tirof etadi. Va barcha dunyoviy, diniy ilmlarni o’rganish lozim ekanligi, uning foydalarini uqtiradi. Ammo ilmal yaqin maqsad bo’lishini hamda shu ilmga etgancha to’xtamaslikni, qolgan barcha ilmlarni o’rganish fazilat sanalishini ta’kidlaydi:

*Guzar qil har necha ilm o’lsa hosil,
Chu din ilmiga etsang ayla manzil.*

*Shah uldirkim, shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilmul-yaqindur.*

*Ulum ichra o’qusang yuz tuman fasl,
Tamomi far’u, din ilmu erur asl.*

*Bu din ilmiki xoma qildi tahrir,
Erur fiqhu hadisu so’ngra tafsir.*

*Chu takmil o’ldi bu uch ilm sen bil,
Yana har ilmin maylin qilma yo qil.* (Navoiy A. МАТ. 8-jild. Fan, Toshkent, 1991, 464-b).

bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar"⁶⁷. Demak, Navoiy uchun sohibi ilm – bu ilmlarini mushohada elagidan bir-bir o'tkaza olish va amalda zohir etishdir. Murshid faqatgina eshitgan, o'qib o'rgangan bilimlari haqida emas, balki o'zi istiqomatda bo'lgan yo'li haqida gapirishi lozim, chunki u tariqat shayxidir. Shundagina undan muridlarga fayz-u futuh yetadi, maqsad va maslakda xatolik bo'lmaydi. Murid va majzublikning tub mohiyatini mutasavvif Navoiy teran anglagan. Ruhshunos sifatida komil tarbiyatda, albatta, g'oyib murshidning ham qo'llab-quvvatlashi mumkinligidan xabardor bo'lsa-da, buyuk xavf va ulug' ofatlar kutib turgan bu azim yo'ldan hodiy boshqarmasa, murshid o'tkazmasa, aslo maqsadga yetib bo'lmasligini ta'kidlagan. O'zicha manzilga yetdim deguvchilar nafsiga tobe' va shaytonga masxaradir, deya xulosalarini shunday hukmlaydi: "Bu maqsudg'a bir vosita bo'lmay yetmak mumkin emas va murshidi rahnamoy bo'lmay, bir uning yetganidin kishi demas. Muridni maqsudg'a yetkurguvchi Haqdur vositai pir va solikni matlubqa qo'shuldurg'uchi ham Haqdur va vasila ham pir"⁶⁸. Demak, solikni haqqal yaqiyin maqomiga yetkazguvchi mutlaq murshid Haq, vosita va vasila esa pirdir. Bu yo'llarda murshid ko'rsatma va nazoratisiz qadam qo'yish poyoni yo'q sargardonlik. "Mahbub ul-qulub" Ruhning ulviy olamdan ekanligini, "Sen bizning Robbimizsan" Alast iqrorini eslatguvchi asardir. Xususan, ikkinchi qism bevosita boshdan oxir tariqat ilmiga bag'ishlangan. Tasavvufiy asar va tazkiralarda ruhoniylar hayotda solikning nafs darajalariga pog'onama-pog'ona ko'tarilishidagi tayanch marhalalar

⁶⁷ Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 32-б.

⁶⁸ Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 117-б.

ko'rsatilgan. Tariqat amaliy jarayon bo'lganligi bois ularga hollar va maqomlar nomi berilgan. Ular son-sanoqsiz ekanligi e'tirof etilsa-da, o'ntasini asosiy tamal deya belgilashgan. Va O'n usul (Usuli ashara) eng ko'p tarqalgan. Buni kubroshunos Sulaymon Ko'kbulut "Tasavvufda o'n asos" ("Usul ul-Ashara" sharhlari") kitobida shunday izohlaydi: "Mutasavviflar o'nli tasnifga bu qadar ahamiyat berganliklarini shunday asoslaydilar: Qur'oni karimdagi bir oyatda "Muso bilan o'ttiz kecha va'dalashdik. So'ngra uni yana o'n (kecha) bilan to'ldirdik. Shunday qilib, Robbining qirq kecha deya belgilangan vaqti kamoliga yetdi (A'rof 7, 142), degan Hazrati Muso bilan bog'liq "o'n kun" iborasi kelmoqda. Bunda uning ma'naviy poklanishi va komillik sari to'g'ri ketayotganiga ishorat etilmoqda"⁶⁹. Shu bois ahli tasavvuf, xususan Najmiddin Kubro hazratlari sayri sulukning tamal qoidalarini o'n asosga jamlagan edi. "Usuli ashara"ning shorihi Ibrohim Haqqi Bursaviy Valiytaroshning xulosalarini atroflicha sharhlab yozadi: "Bu o'n asos yo'lning tamallari bo'lsa, boshqa asoslar bino ustiga qurilgan binoga o'xshaydi. Aslida har narsaning asosi va tamali mavjud. Agar u bo'lmasa maqsadga yetib bo'lmaydi. Mavzuga daxldor shunday so'z bor: "Usulni yo'qotgan vusuldan mahrum qoladi"⁷⁰. "Usul al - ashara"da jamol va'da etuvchi tariqatdagi o'n asos: **Tavba, Zuhd, Allohga tavakkul, Qanoat, Uzlat, Doimiy zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizodir.** Navoiy esa bu o'n tamalni quyidagicha nomlaydi: **Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Sabr, Tavozi' va adab, Zikr, Tavajjuh, Rizo, Ishq.** Mazkur bob haqida asarning uchinchi qismidagi muallif izohlariga diqqat qilsak, bobning mohiyati yana-da ravshanlashadi: "Peshai solikka pir zarur erkoniga odamizod vujud mulkidin

⁶⁹ Suleyman Gokbulut . Tasavufta on asos. Insan yayinlari, Istanbul, 2010, 23-b.

⁷⁰ Кубро Н. "Тасаввуфий ҳаёт". Мовароуннахр. Тошкент, 2004, 48-б.

xonapardozdur. Va adam kishvarig'a safarsozdur. Bu safar maxsus sanga va manga emas yo xususiyat qilg'onni kishi shohu gadog'a demas. Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig'a qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o'lturubtur, yana qaytib asliy vatang'a azm etmak kerak va qaydin kelibdur yana ul yon ketmak kerak. O'lumdin guzir yo'qtur va hech kishiga ul mahlakida dastgir yo'q. Bas, aning yarog'ida bo'lmoq zaruratdur va borur asbobin tuzatmak chorasiz suratdur. Ul safar asbobi solih a'moldur va hamida xisol. Va aning zikri ikkinchi qismda tafsil va tartib bila raqamg'a keldi va mashruh bitildi"⁷¹. Haqiqatan, Navoiy hazratlari ikkinchi bobda horigan solik uchun marhalalarni tartib bilan raqamlab, ochiq, aniq, atroflicha sharh bitadi. Va har bir ilmiy izoh sharq adabiyotiga xos an'nana, ya'ni o'n ibratli hikoyatni keltirish bilan yanada ta'sirliroq ochib beriladi. Masalan, qalb xastaligida solik uchun asosiy davolardan biri nafsni muroqabaga mashg'ul etuvchi zikrdur. Ilmi tasavvufda nafsning yetti darajasi ko'rsatilar ekan, har maqomda murid zokir obrazida ma'lum bir virdni takrorlaydi. Va nafi ammoradan boshlangan riyozat nafi sofiyada yakun topadi. Navoiy bu rutbani "zokir mazkurda nobud va yo'q bo'lmoqdur" deya tushuntiradi. Mashoyixlar aytganidek, so'fiylar ism bilan emas, musammo (ism egasi) bilan mashg'ul bo'lganlar. Va bu sir hayrat va haqiqatlarini oshkor etmaslik muhim shartlardan ekanligi ham ta'kidlangan. Ammo inson Haqiqat mayini ichish bilangina maqomdan maqomga yuksalishini ta'kidlarkan, sohib

⁷¹ Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 117-6.

Izoh: Shuni ham ta'kidlash lozimki, ma'rifatparvar Navoiyning murshidga ehtiromi qanchalar bo'lsa, uning riyokor, tamagir shayxlarga munosabatidagi keskinlik ham hech bir ijodkorda uchramaydi. Ayniqsa, so'nggi asarida "Riyoyi shayxlar zikrida" xonagoh kunjida qalblarni o'ldirguvchi shayxi koziblardan ogohlikka chaqiradi: "Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat. Turfa bukim, bu mazharg'a muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftau qaror. Ul bu do'konni yurutib tadbir bila va ma'rakani qurub tazvir bilakim, shayoting'a mahalla hayratdur va devi laing'a mujibi ibrat va nafratdur".

marhala hayratidan o'zini yo'qotib, shu bekatni maqsad manzilining nihoyasiga aylantirib, qolgan ma'rifatlardan bebahra qolmasligiga urg'u beradi. Tariqat holdir. Holning bayoni faqat ishorat bilan bo'lmog'i kerak, agar so'zlovchi yoxud tinglovchi rumuz va timsollarni anglamas ekan, unda u zavqni "sukut dori"ga osish kerak. Navoiy buni Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirruhu) tilidan shunday ifodalaydi: "Ul takallumg'akim Mansur dam urdi, men ham urdum. Ul oshkor etti va men yoshurdum. Menkim yoshurdum, tojdorlig' manqarib bo'ldi. Ul oshkor etti, dorg'a toj bo'lmoqlik nasib bo'ldi. Ul hanuz xom erdi va bu ma'nidin xurush qiluri behangom erdi. Eshitguvchi ibo etti va anga yetti va ulcha yetti. Men ul so'zni anjumanda izhor etarmen va izhorida isror va takror etarmen hech kishi manga nima dey olmas va demaskim, so'zumning agarchi ma'nisi uldur, ammo suvrati ul emaskim, suvrat ahli suvratga nazar solurlar va ma'ni ahli ma'nidin bahra olurlar"⁷². Davomli zikr natijasida nafs chirkinliklardan qutilib, latiflik boshlanadi. Avval qalb, so'ngra ruhda samoviy sayr ehtiyoji tug'iladiki, bu murshid nigohidan chetda qolmaydi. Betinim murabbiylik va rahnamolikning imtiyozi ham mana shunda.

Ma'lumki, Navoiy ko'pgina tariqat namoyandalari tarjimai holi va asarlari bilan juda yaxshi tanish bo'lgan. Biroq mutasavvif Navoiyning tariqatning o'n tamali haqidagi qarashlari boshqa ba'zi tasavvufga oid asarlardan biroz farqlanadi. Kubroning "Usuli ashara"sidagi **"Uzlat"** va **"Muroqaba"** o'rnida shoir **"Tavoze' va adab"**, **"Ishq"** xususida to'xtaladi. Avvalo, muhrdor, vazir, hokim, bir so'z bilan aytganda, amir ul-muqarrab Navoiy hayot yo'liga nazar solsak, u

⁷² Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 61-б.

zamonasida kechayotgan har bir voqea-hodisaning bevosita va bilvosita faol ishtirokchisi edi. Ikkinchidan, uzlat, ya'ni yolg'izlikni qanchalar istamasin yoki badiiy talqin etmasin, insoniyat taqdiri oldidagi mas'uliyati unga faqat qalb xilvatini yoqlashga imkon berardi. Zero, Najmiddin Kubro ta'kidlaganidek: "Agar inson yetishgan maqomiga ko'ngildan bog'lanmasa, bu maqom unga parda va to'siqlik qilolmaydi. Ilk xalifalar mansab sohiblari edilar, ammo mansab ular uchun hech bir tarzda to'siq bo'la olmagan"⁷³. Solik yo'l boshida jisman uzlat qilsa, bora-bora u naqshbandiya tariqatidagi kabi "dil ba yoru dast ba kor" maqomida xilvatninishin bo'ladi va bemalol xalq orasida ham Haq bilan bo'la oladi. Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari ham bir hikmatlarida "Tariqatning bari kulli adabdir", deganlar. Navoiy qayd etgan asosda "Tavoze' va adab"ning keltirilishi ham tabiiy edi. Shuningdek, ishq kalimasi Qur'oni karimda uchramasa-da, tariqat amalida solik uchun iroda va jasorat qurolidir. Har bir maqsad shijoat, g'ayrat muhabbat orqali ruyobga chiqadi. Dunyoviy ishlarning ham go'zal intihosi mehr, sevgi bilan bog'liq. Ayniqsa, tariqatda Ishqsiz ildam odim tashlash juda mushkuldir. Ishq vodiysidagi jununiy sargardonliksiz ma'rifat vodiysi hayratlariga ham yo'l yo'qdir. Ishq barcha tariqatlar uchun birday muhim ko'rilgani ham shundan.

"Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi bobini mutasavvif nuqtai nazari ila tahlil etish, nafaqat, tariqat mohiyatini tushunishga yordam beradi, sayr-u sulukdagi go'zal hollar bilan holdoshlik ham hosil qilib, bu ilmga muhabbat uyg'otadi, hayotiy mezonlarni belgilashda yaqindan yordam beradi. Navoiy

⁷³ Кубро Н. "Тасаввуфий ҳаёт". Мовароуннаҳр. Тошкент, 2004, 50-б.

asarning uchinchi bobida tanbehlar orqali ham murshidlik masalasi talqinini yana-da yorqinlashtiradi. Xususan, sayr-u suluk murshidsiz bo'lmashligiga Shayx Boyazid Bistomiy va uning shogirdi o'rtasida kechgan muloqotni misol keltirish bilan e'tibor qaratadi: "Manquldurkim, qutb us-solikin va sulton ul orifin, haqiqat ahli imomi, Shayx Boyazid Bistomiy (quddisa sirrihu) bir jonibg'a bo'lub erdi ozim va bir muridi anga mulozim. Bir ulug' suv ilaylariga keldi. Va Shayx «Alloh!» deb ul suvg'a qadam urdi va muridg'a «Boyazid», deb qadam urmoq buyurdi. Shayx va murid «Alloh» va «Boyazid» deb borurlar erdi. Va sabo va nasimdek suvdin o'zlarin o'tkarurlar erdi. Nogoh murid xayolig'a keldikim, Shayx Alloh zikri bila boradur va meni yo'lda boshqaradur, men ham vosita sham'in o'chiray va vahdat bahrida Alloh zikri bila qadam uray. Bu muddao bila ulki qadam qo'ydi, botti. Shayx dastgirlikka qo'lin uzotti, ilkin tutub chekti, bahr sohilig'a otti va muhlika g'arqobidin sudradi amn manzilig'a yetkurdi va dedi: – Ey farzand, sen avval Boyazidg'a yet, andin so'ngra Tengrig'a yetmak havas et"⁷⁴. Tasavvufda sulukdan maqsad fano va foniylilik, solikka maqsad visoldir. Fanolik uch turga birlashtirilgan. Dastlab murid har lahza va har makonda shayxining huzurida bo'lganidek o'zini tutib, xayolan shayxini hamisha yonida ekanini his etib, hatto uyquda ham shayxi boshida turgandek uxlaydi. Bu fano ush-shayx maqomidir. Ikkinchisi, sayr-u sulukda ma'lum bir masofani bosib o'tgan murid hayotining har lahzasida Rasululloh s.a.v. huzurida va muroqabasi ostida bo'lganligini anglab, Uning axloqini hayotiga hokim qilishga intiladi. Bu martaba fano fil-rasul bo'lib, albatta, solik fano ush-shayx maqomidan muvaffaqiyat bilan o'tsagina bu martabaga erisha

⁷⁴ Навоий А. МАТ. 14-том. Фан, Тошкент, 1998, 118-б.

oladi. Uchinchi, shayx va payg'ambar s.a.v.ga fano bo'lmoqlik martabalarini bosib o'tgan muntahi, haqqal yaqinga yetgan, yo'l oxiridagi solikning fano fil-Alloh maqomidur. Bu maqomda solikning har nafasi Allohdir. Bu tamsil pir, ya'ni ustoz va rahnamoning murid – shogird tarbiyasi va taqdiridagi rolini chuqur anglash nuqtai nazaridan bugun uchun ham juda muhimdir. Chunki shogird ustozning, ustoz shogirdning ishonchiga loyqlik darajasiga yuksalmasa, ta'lim-tarbiyada oliy natija yuzaga kelmaydi. Bu esa o'rtadagi mehr, sadoqat, ma'naviy himmatning noqisligidan dalolat beradi. Bugun aynan shu muammoni jiddiy o'ylash va hal qilishga harakat etish faqat foyda yetkazishi shubhasiz.

Navoiyshunoslikda "Mahbub ul-qulub" mutasavvif nuqtai nazaridan tadqiq etilsa, murid, ya'ni ma'nan hurlikka tashna solik uchun beqiyos bir qo'llanma ekanligi oydinlashadi. Asar fano imtihonida nafsni dastlab tavgaga chorlab, navbatma-navbat ishq maqomiga yuksalishidagi oydin yo'lni ko'rsatadi. Navoiy talqinidagi ma'rifatparvar Ustozning ilmi, haybati, qanoati, jasorati, bir so'z bilan aytganda, odamshunosligi, muridning odobi, taslimiyati, vazifalarini puxta o'rganib, bundan zamonaviy ta'lim-tarbiyada unumli foydalanish mumkin. Shundagina uzoqlashilgan, unutilgan, e'tiborsiz qaralgan haqiqat va tajribalarni qayta tiklash muvaffaqiyatlarga to'siq bo'lmasligi kundan-kunga ravshanlashadi.

AHLI FANO VA FAQR MURSHIDI

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning murakkab hayot yo'li va asarlari xususidagi xolis mulohazalar uning ustozlari bilan ham bir qadar bog'liq. Albatta, temuriylar saltanatida obro'li mavqega ega G'iyosiddin kichkina oilasida tavallud topgan Alisher Navoiy o'z davrining eng ilg'or murabbiylari qo'lida tahsil oldi. Ilmi badi'dan ilmi nujumgacha puxta o'rgandi. Biroq uning qismatida qalb olamiga ta'sir qilgan, ruhiy tarbiya etgan murshidi komillarning o'rni alohida e'tiborga molik. O'z davrining yetuk shaxslari sanalgan bunday piri komillar bilan uning munosabatini atroflicha o'rganish lozim. Shunda shoirning saltanatda kechgan ziddiyatli umri, xalq taqdiridagi o'rni va asarlaridagi maqsad-u maslagi bir qadar oydinlashadi. Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy kabi shoir shaxsiyati shakllanishida muhim rol o'ynagan murshidi komillardan biri, shubhasiz, Sayid Hasan Ardasherdir.

Navoiyning Sayid Hasan Ardasherga bo'lgan muhabbati, o'zaro munosabati o'ziga xos. U haqida maxsus "Holoti Sayid Hasan Ardasher" nomli risolasidan tashqari qator asarlarida yurak izhorlari bor. Shulardan biri masnaviy nomasidir⁷⁵. Ma'lumki, masnaviy Vatan sog'inchi ila yurak yonib, yaqinlar mehrini dil qo'msab Samarqand ixroji davrlarida yozilgan hasbi hol hisoblanadi. Navoiyning Sayid Hasan Ardasherga bag'ishlangan asarlari va bag'ishlovlarida shoirning ko'ngil olamini aks ettiruvchi o'ziga xos jihatlar bor. Bu hol boshqa holotlarida, nomalarida yorqin ko'rinmaydi. Avvalo, Navoiy o'zini ma'naviy bir farzand obrazida tasvirlaydi. Shu bois uning

⁷⁵ Ushbu she'riy maktub bir necha mashhur tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Uning yozilish sanasi, joyi haqidagi qarashlar munozarali bo'lgan. Shuningdek, uning janriy xususiyatlari ham ilmiy izlanishlarga sabab bo'lgan. "Masnaviy", "Hasbi hol", "Sayid Hasan Ardasherga maktub" kabi har xil nomlar bilan berilishining o'ziyiq fikrimizni quvvatlaydi (bu haqida qarang: Ye.E.Bertels. Navai. – Moskva – Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1948; O.Sharafitdinov. Alisher Navoiy. – Toshkent: "O'zbekiston", 1948; A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2015).

dard-u izhori, fikr-qarashlari bevosita tasavvuf irfonining o'ziga xos tomonlarini qamrab olgan. Ya'ni ko'z o'ngimizda Navoiy mazkur she'riy maktubda Haq yo'lini istayotgan bir solik sifatida gavdalanadi. Maktub Alloh taolaga hamd va Rasululloh (s.a.v.)ga na't bilan boshlanadi. Aytish mumkinki, bu asarda o'ziga xos hol mavjud. Bunda Navoiy go'yo o'tar dunyoning bir foniyo'lovchisi ruhiy holida o'z fikrlarini bayon qiladi. O'n sakkiz ming olamning yaratilish sababi va insonning mohiyatidan so'z ochadi. Odam avlodlarining zaminga tushirilishi va bu yerdagi bir muddatlik imtihon haqida Navoiy hikmatli qarashlarini o'rta tashlaydi. O'tmish, bugun va oxiratdan iborat ma'naviy safarning sir-asrorlarini to'la anglashga urinadi. Mana shunday o'y-xayollar og'ushida Sayid Hasan Ardasherni eslashi va unga maktub yozishi tabiiydir. Zero, u "soliki foniyo va gavhari koniy, orifi maoniy⁷⁶" bo'lish bilan birga Navoiy ta'kidlaganidek: "faqirni faqr tariqig'a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg'a targ'ib ko'rguzurlar erdi⁷⁷". Shoir dunyo g'urbatxonasida inson bir musofir, ovora, bechora solik ekanligini aytarkan, ushbu yo'lda Alloh taolo yordamchi, rahbar bo'lishini eslatadi. Zero, insonga ishq dardini ne'mat aylash va ovoralikni nasib etish ham Parvardigorning lutf-u karamidir. Dashti baloda Haq yo'lchisiga yo'l ozig'i tavakkul bo'lgan. Maktubda ana shunday tariqatdagi muhim masalalarning o'rta tashlanishi bejiz emas. Chunki noma "*fano shomining yorug' sham'i*", "*Adam xonaqohida ixtiyor etgan*", "*jalol va kamolda tengsiz*", "*vafo-u saxo koni*" Sayid Hasan Ardasherga yozilmoqda. Shoirning unga ma'naviy bir robitasi borki:

*Zihi ravzadin xulqung ortuq base,
Kelib bog'i qadringda tubo xase.*

⁷⁶ Navoiy A. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 90.

⁷⁷ Navoiy A. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 91.

*Chu sensen bugun olam ahlida fard,
Ki holin deyolg'ay sanga ahli dard.
Mangakim, vidodingg'a xursandmen,
Janobingg'a shogirdu farzandmen*⁷⁸, –

deydi. Navoiy Sayid Hasan Ardasherining o'ziga bo'lgan muhabbatidan baxtiyor. Boshqa asarlaridagi kabi uning ustodi pir, o'zining unga farzand ekanligidan iftixor tuyadi. Ko'ngil orom oluvchi bir xilvat orzu qilgan “*ovvora musofir*” beixtiyor qalb tabibi – pirini eslaydi:

*Sen erdingki, har ishda yorim eding,
Ne g'amkim yetar, g'amgusorim eding.
Seni ham sipehri muxolifmazoq,
O'kush rev ila soldi mendin yiroq*⁷⁹.

G'am-u anduh ichida qolgan Navoiyning Yaratgan, olam va odam haqidagi qarashlarini bayon qilishi ham, albatta, dardkashining ma'naviy maqomi bilan bog'liq:

*Emas erdi maqsud juz odamiy,
Ki Haq sirrining bo'lg'ay ul mahrami.
Baridin g'araz garchi inson edi,
Anga dag'i maqsud irfon edi.
Bu so'z sidqig'a dag'i beta'nu tanz,
Dalolat qilur oyati «kuntu kanz»*⁸⁰.

Dunyoning yaratilishidan maqsad inson, insondan g'araz esa irfondir. Bu haqiqatni irfoniylar asarlarda ko'p bora tilga olinadigan “*Kuntu kanzan maxfiyyan faahbibtu an u'rafa faxalaqtul xalqa*”, ya'ni “*Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim*”, qudsiy hadisi orqali izohlaydi. Demak, inson ishq va irfon sohibi

⁷⁸ Navoiy A. MAT. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B.526.

⁷⁹ Navoiy A. MAT. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B.533.

⁸⁰ Navoiy A. MAT. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B.533.

bo'lgandagina yashirin xazinaning sirriga yetadi. Bu muhabbat ishqulloh, bu irfon – ma'rifatullohdir. Ushbu yuksak darajaga erishmoqning ikki yo'li bor. Birinchisi haqida Navoiy shunday deydi:

*Biri buki, bir jazba Haqdin yetib,
Ko'ngulni yakin jomidin mast etib.
...Anga qolmag'ay ham o'zidin xabar,
O'zidin nekim, o'zlugidin asar.
Bo'lub raf' imkoni mavjudlug',
Topib Haq vujudida nobudlug'*⁸¹.

Demak, ilk tariq majzublar yo'li bo'lib, ularga jazba Haqdan yetadi. Alloh mahbub bandalariga vositasiz “yaqiyn jomi”dan nasib aylaydiki, mastlikda dunyoyi dundan etak silkib, haqiqat sari ot choptirishda ehtiyojsiz etadi. Ular o'zligini mahv etib, “haq vujudi”da neki mavjud bo'lsa nobud aylab, vahdatga erishadilar. Ular manzilga yetgan, biroq yo'l sirrini anglamagan majzublardir. Ikkinchisi esa:

*Yana bir budurkim, gado gar muluk
Talab yo'lida qilg'ay oncha suluk.
Burun murshidi komil istay yurub,
Ani topqach o'zin anga topshurub.
Suluk amrida urmayin beshu kam,
Aning amridin ayru dam yo qadam.
Fano dashtida sayri bo'lg'ach tamom,
Haq andin so'ng etkay ato ul maqom*⁸², –

ya'ni tariqatdir, deydi shoir. Sayri sulukda, avvalo, bir piri komil topib, unga tom taslimiyat ila bay'at qilinadi. Fano dashtida ham yo'l oxiriga, ham yo'l sirriga yetgan suluk ahliga vahdat maqomi

⁸¹ Navoiy A. MAT. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B.535.

⁸² Navoiy A. MAT. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B.535.

nasib etadi. Agar o'z rozidan musharraf aylagan mahbub-u majzublaridan qilmasa, pir etagidan mahkam tutish lozim. Navoiy bu ikki savdo ishtiyoqida beqarorligi, mabodo umri o'zlukni topish yo'lida talaf bo'lsa, unga eng oliy sharafligini bu yo'lning *"faqir-u foniy"*si *"g'amxo'r"*, *"yovaru"* *"yor"*iga ga izhor etadi. Fano dashtidagi sargardonlikda Sayid Hasan Ardasherdan himmat-u madad so'raydi. Navoiy haqiqatan bir pir ostonasiga bosh urib, tariqat hayotini orzu qilgan Haq yo'lchilaridan edi. Samarqandda yashagan davrlarida ko'ngil sayriga ishtiyoq juda baland bo'lganligi aniq. Muarrix G'iyosiddin Xondamir *"Makorim ul-axloq"*da shunday xabar beradi: *"Yozuvchilarning jimjimador so'zlari va kotiblarning maqtovlarisiz ham pok Parvardigor iltifotlari markazlarida bo'lgan ul zot yoshlik va yigitlik davrining gullab-yashnagan chog'larida ham har doim "ular turib ham, o'tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar (Oli Imron: 191)" oyati ular borasida tushirilgan darveshlar bilan muloqotga bo'lishga intilib yurar, qo'lidan kelganicha va imkoniyati yetganicha irodat va ixlos bilan oliy martabali ushbu toifaga mansub kishilarning xizmatida bo'lardilar⁸³". Sayid Hasan Ardasher mana shunday ulug' zotlardan edi. Navoiyda hamisha Sayid Hasan Ardasher sog'inchi bo'lgan. Shu ruhdagi satrlaridan biri:*

*Faqr manzillarining rahravi bal rahbari,
Hodiyi ahli fano murshidi ahror qani?*

*Meni motamzadag'a ham ota, ham murshidu pir,
Balki ham g'amxo'ru ham yovaru ham yor qani⁸⁴?*

⁸³ Xondamir G'. *Makorim ul-axloq*'. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. – B. 208.

⁸⁴ Navoiy A. MAT. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 531.

Bu misralar fano ahlining murshidi vafoti munosabati bilan yozilgan. Navoiy ijodida Fano yetakchi mavzulardan, Fanovashlik esa asosiy hollardan sanaladi. Biroq shoir fano maqomidan soʻz ocharkan, Sayid Hasan Ardasher nomini tilga oladi yoxud Sayid Hasan Ardasherni xotirlargan fanolikdan bahs yuritadi. Motamzadalikda yaralgan marsiyada ham:

*Ey falak, aytkim ul soliki atvor qani,
Faqri atvori aro koshifi asror qani?
Tashlab oʻz lukni fano bodiyasin qatʼ etkan,
Ushbu yoʻl holidin ogohu xabardor qani?–*

deya falakka arz-u dod etadi. Aslida koʻngil ijodkorining koʻplab asarlari fano maqomiga yuksalish asrorlarini ochishga, yoʻl-yoʻriqlarini koʻrsatishga qaratilgan. Shu maʼnoda Alisher Navoiy ijodidagi maʼnan yetuk obrazlardan biri – komil inson – Foniyydir. Faqr-u fano maqomi haqiqatlarini ochishda *“faqr manzillarining rahbari”*, *“fano murshidi”*ning maʼnaviy taʼsiri beqiyos boʻlgan. Va aytish mumkinki, Navoiy asarlarida faqr-u fano martabasining sohibi Sayid Hasan Ardasher siymosida tasvir etiladi. Shu maʼnoda ikki ulugʻ shaxsiyatning oʻzaro munosabatini chuqurroq oʻrganish, navoiyshunoslikda toʻgʻri tahlil va teran talqinlarga yoʻl ochadi.

ALISHER NAVOIY ASARLARI NASHRI VA PORSO SHAMSIEV

Atoqli olim Porso Shamsiev faoliyatidagina emas, o'zbek matnshunosligi tarixida ham Navoiy asarlarining nashri alohida bir hodisa, tadqiq etilishi lozim mavzulardandir. Bu haqida "Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari" tadqiqotida Porso Shamsiev: "O'zbekistonda ilmiy tekstologiya (matnshunoslik)ning rivojlanish tarixi o'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiy asarlarini nashr etishga kirishish ishlari bilan bog'liq holda boshlanadi. Navoiy asarlarini bosmaga tayyorlash va nashr etish masalalarining jiddiy va qizg'in tus olishi esa, 1938 yildan, ya'ni ulug' shoir tug'ilganiga besh yuz yil to'lish kunini nishonlashga hozirlik ko'rishdan boshlanadi"⁸⁵, – degan edi.

"... Navoiy asarlarini nashr etish ishi o'rta tashlanganda qiyin masala kabi tuyilar edi, ishni qay taxlidda, qay usulda boshlash, qanday qilib adabiy asarlarni ommaga yetkazish masalasi, adabiyotshunoslarimizni jiddiy o'ylovga solgan edi"⁸⁶, – deya mutafakkir shoir asarlari nashri jarayonlari baholanadi. Ma'lum ma'noda, Navoiy asarlarini nashr etishning ilmiy-nazariy tamoyillari ustoz matnshunos Porso Shamsiev tomonidan yaratildi, desak xato bo'lmaydi. Chunki mazkur mavzu evolyusiyasida domlaning alohida o'rni bor. U nashrga tayyorlash barobarida Navoiy asarlari matnlarini o'rganish xususida ham katta tadqiqotlar yaratdi.

Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan ko'plab olimlarimizning sa'y-harakati natijasida shoir asarlarining 15 tomligi nashr etildi. Ushbu tomlarning

⁸⁵ Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: 1969, –Б. 1.

⁸⁶ Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: 1969, –Б. 1.

barchasida Porso Shamsiev tahrir hay'ati a'zosi, navoiyshunos Suyima G'anieva tomonidan nashrga tayyorlangan "Majolis un-nafois", ya'ni 12 tomga mas'ul muharrir bo'lgan bo'lsa, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 13-, 14-, 15-tomlar – jami 9 tom, asosan, ustod matnshunos tomonidan nashrga tayyorlangan. "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nazm ul-javohir", "Arbain" kabi asarlar hamda "Xamsa" tarkibidagi barcha dostonlar shular jumlasidandir.

Porso Shamsievda amaliy bir tajriba Navoiyning "Tanlangan asarlar" seriyasidagi nashridan mavjud edi. Unda ham ko'pgina tomlar Porso Shamsiev tomonidan nashrga tayyorlagan. Ushbu nashrda qo'lyozmalarni solishtirish, turli nusxalarni qiyosiy o'rganib, matnshunoslikdagi ilk katta mehnat qilingan hamda asarlarga izoh yozish, lug'at va ko'rsatkichlar berishning nazariy tamoyillari yaratilgan edi.

Albatta, adabiyot va adabiyotshunoslikning davr bilan hamnafasligi oddiy bir haqiqatdir. Tarix jamiyatni o'zgartirishga hissasini qo'shgan adabiyot namunalari bo'lganligiga guvohlik bersa-da, adabiyotning u yoki bu zaylda davr va muhitga tobeligi ko'proq. Ammo adabiyotshunoslikning erk va adolatni targ'ib qilgan adabiyotni ham zamona zayliga qaram ettirishi bir fojia va eng achinarlisidir. Shu ma'noda Navoiy asarlarining 15 tomligi nashri ham mana shunday ma'naviy qurbonliklar bilan bo'lganligi aniq. Bugun mazkur nashrdan tushirib qoldirilgan o'rinlar va ularning Navoiy ijodiyoti va shaxsiyatini belgilashdagi muhim ahamiyati haqida gapirish oson. Biroq mana shu kamchiliklar evaziga bo'lsa-da, millatning ma'naviy tayanchlaridan bo'lgan daho ijodkor asarlarining xalqqa sodda tarzda qaytarilishining o'ziyoq katta bir jasoratni talab qilgan.

Nashrdagi kemptiklarning sababi ham xalqdan yashirin qolmagan. Ayniqsa, mana shu o'rinlarda zabardast matnshunosning zukkoligiga, uning Navoiyni ham shoir, ham mutasavvif sifatida anglaganiga tan berish kerak. Yanayam domlanning haqiqatni aytish uchun yo'l topa olishdagi mahorat-u firosati matnshunoslikdagi alohida bir hodisa ekanligini ta'kidlash zarur. "Hayrat ul-abror" dostoni uchun yozilgan izohda Porso Shamsiev shunday yozadi: "O'tmishda musulmonlar o'rtasida islom aqidalariga ko'ra, har bir ishni arabcha "Bismillo..." degan ibora bilan boshlanuvchi jumlaning to'liq yoki qisqacha aytib boshlash, kitob, risola va boshqa yozuvlarni ham shu jumla bilan boshlash singishib ketgan edi. Shuningdek, Navoiydan ilgari "Xamsa" yozgan shoirlar ham birinchi dostonlarning birinchi misrai qilib mazkur jumlaning oladilar va "hamd" (maqtov)ning birinchi qismi sifatida bu jumlaning keng tahlil qiladilar. Ustozlari kabi Navoiy ham "Hayrat ul-abror" birinchi dostonning birinchi misraini "Bismillahir rohmahir rohiym" jumlasini bilan boshlaydi va bu bobda shu jumlaning keng izohlaydi. Shundan keyin yana o'sha davrlardagi odatga ko'ra, bir bob "hamd" (Xudoni maqtash), to'rt bob munajat (Xudoga yolvorish) va besh bob na't (payg'ambar madhiyasi) beriladi. Garchi bu dostonning boblarida shoirning ma'lum darajada ba'zi bir falsafiy, ijtimoiy fikrlari aks etgan-da, lekin bu boblar dostonga bevosita aloqador emas. Ommaviy nashrlarda bunday boblarga ehtiyoj tushmas. Shunday mulohazalarga binoan bu dostonning va boshqa dostonlarning ham ushbu nashrida shunday boblari tushirib qoldirildi"⁸⁷. Kattaroq bo'lsa-da, iqtibosni aynan keltirdik. Chunki bunday izohlar har bir dostonida alohida berilgan. Shunchaki tushirib

⁸⁷ Навоий А. 15-томлик. Ҳайрат ул-аброр. 6-том. –Б. 244-245.

qoldirilgan boblar raqamlanmasdan, ularning nima haqida ekanligi atroflicha sharhlangan. Jumladan, “Farhod va Shirin” dostoni izohi ham tushirib qoldirilgan boblar to‘g‘risida boshlanadi: “Bular “hamd” (1-2 bob), “Munojot” (3 bob), “na’t” (4 bob), “me’roj” – payg‘ambarning ko‘kka chiqishi (5- bob), Sulton Husayn madhi (10 bob), shahzoda Badiuzzamon madhi (11bob)dan iborat bo‘lib, jami yettita bobdir”⁸⁸. Bu izohlardan xabordor o‘quvchi tushirilgan boblarning nima haqida ekanligini darrov fahmlagan.

Alisher Navoiy asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va nashr etish uchun ko‘p izlanishlar olib borganligini olim o‘z asarlarida e’tirof etgan. Porso Shamsiev o‘zidan oldingi sharq va g‘arb matnshunoslarining faoliyatini, matnshunoslik tamoyillarini puxta o‘rgangan. Biroq ustod S.Ayniy tajribalarini e’tirof etib: “... Bu yerda atoqli yozuvchi, marhum Sadriddin Ayniyning “Xamsa” dostoni ustidagi qimmatli ilmiy ishini alohida qayd etish kerak. S.Ayniy “Xamsa” dostonlarini mohirlik bilan qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yo‘l bilan badiiy ifodasini berdi. Asarning ko‘p sahifalarini ilmiy izohlar bilan bezatdi. Shu bilan muxtasar “Xamsa”ni elga manzur qildi...”⁸⁹, – deydi. Aslida asarlardagi izohlar asl matnni xalqqa yetkazish, tushuntirish uchun bir vosita edi.

Hatto Porso Shamsiev ba’zi o‘rinlarda Sadriddin Ayniyning Navoiy “Xamsa”sini qisqartirib tayyorlangan nashridan iqtiboslar oladi: “Bu yerda ustoz Sadriddin Ayniy bir voqeani keltiradi: Vosifiy hikoyatiga ko‘ra, Navoiy hayot vaqtida uning:

*Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur,
mayxoravu bebok,*

⁸⁸ Навоий А. 15-томлик. Фарҳод ва Ширин. 7-том. –Б. 418.

⁸⁹ Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986, – Б. 42.

*Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur,
sarmastu yoqam chok.*

Matla'li mustazodiga Xoja Abdullo Marvarid degan bastakor bir kuy yaratgan. U vaqtlarda Hirotda bu kuy chalinmagan uy yo'q edi".

Vosifiyning aytishiga qaraganda, bir bazmda hofizlar shu mustazodni aytayotganda majlis ahli yoqalarini yirtganlar, bu holni tasodifan Navoiyning o'zi ham ko'rgan. Navoiy bu yerda o'sha kuy va o'sha holatga ishora qiladi. (Alisher Navoiy. "Xamsa". Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy. O'zdavnashr. 1947. Bet 19.)"⁹⁰.

Porso Shamsievning "Izohlar" ostida bergan ma'lumotlari so'zlar ma'nosini anglatuvchi lug'at, ba'zi so'zlarning istilohiy ma'nosi, ba'zi baytlarning sharhidan iborat. *"Bu uch bayt ma'nosi", "Bayt mazmuni", "Bu she'rning mazmuni", "Bu bayt xulosasi"* deya matnshunos har bir bayt ustida ijodiy yondashadi va o'zining diniy, tasavvufiy, adabiy jihatdan yuksak bilim saviyasidan kelib chiqqan holda sharh va lug'atlar beradi.

Izohlarda Porso Shamsiev adabiyotshunosgina emas, yetuk tilshunos sifatida ham namoyon bo'ladi.

Porso Shamsievning "Xamsat ul-mutahayyirin" va holatlar nashri hamda uning izohlari ham tahsinga loyiq. Domla uchun matn so'z va ma'no, zohir va botin uyg'unligi. Matnning mazmun-mohiyatini teran anglashi har bir so'z haqida jiddiy bosh qotirishiga olib kelgan. Turli qo'lyozmalarni solishtirib, to'g'ri xulosaga kelishga majbur qilgan. Bu hol, ayniqsa, uning izohlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Holotlar va "Xamsat ul-mutahayyirin" so'ngida keltirilgan izoh va she'riy tarjimalar fikrimizning dalilidir. "Jomiyning murid-muxlislari, shogirdlari

⁹⁰ Навоий А. 15-томлик. Хайрат ул-аброҳ. 6-том. –Б. 254.

son-sanoqsiz edi. Lekin bular orasida Alisherchalik samimiy muxlis va yaqin shogird hamda bu samimiyat va yaqinlikka Navoiychalik umrining oxirigacha sodiq qolgan kishi topilmasa kerak”⁹¹, degan Porso Shamsiev matnshunos sifatida bu asarlarni o‘ziga xos bir ruhi bilan xalqqa yetkazishga harakat qilgan.

Navoiyning so‘z tanlashdagi ham mahorati domlaning izohlarida to‘laqonli namoyon bo‘lgan. Masalan “Layli va Majnun” dostonidagi:

*Derlar seni dur, savob emas bu,
Sen javhari ruhu dur – quruq su,–*

baytidagi “*savob emas*” birikmasini – bir qarashda ajablanarli tuyulgan “*to‘g‘ri emas*” deya izohlaydi. Va o‘quvchi baytni takror o‘qiganda matnshunosning ilmiga tan beradi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Navoiy asarlari nashrlari keyinchalik ham bir necha bor amalga oshirildi. Ammo ta’kidlash joizki, ularning barchasida 15 tomlik nashr asos bo‘ldi. Chunki mana shu nashrda Navoiy asarlarini nashr etishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan hamda qo‘lyozmalar bilan ishlashdagi eng og‘ir mehnat qilingan edi. Qo‘lyozmalardagi ma’naviy xarakterdagi hamda orfografik farqlar, kotibning xatosi, qoldirilgan ayrim so‘zlar va qator baytlar ko‘rsatib berilgan edi. Millat ta’lim va tarbiyasida o‘ziga xos o‘ringa ega Alisher Navoiy asarlarini mana shu tarzda xalqqa yetkazgan matnshunos Porso Shamsievni xotirlashga burchlimiz. Va ustozning ruhlari shod bo‘lishini so‘rab qolamiz.

⁹¹ Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986, – Б. 232.

ABDURAHMON GO'ZAL NAVOIY IJODIYOTI TADQIQOTCHISI VA TARG'IBOTCHISI

Abdurahmon Go'zal – adabiyotshunos, tilshunos, tasavvufshunos, ilohiyotshunos turk olimi. Uning turkiy tillarni millat ruhi o'laroq anglash va uni avlodlarga yetkazish yo'lidagi sa'y-harakatlari butun turk olamiga ma'lumdir. Ayniqsa, olimning “Diniy-tasavvufiy turk adabiyoti. El kitobi”, “Qayg'usiz Abdol”, “Ahmad Yassaviy “Faqrnomasi”, “Sulaymon Boqirg'oniy hayoti va uning hikmatlari”, “Bizim Yunus”, “Maxtumquli asarlari” kabi yirik monografik tadqiqotlari turkiy adabiyotni anglashda muhim sanaladi. Abdurahmon Go'zal 80 ga yaqin kitob, risolalar muallifi. Ularning mavzu mundarijasini sanashning o'zi katta bir tadqiqotni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, Abdurahmon Go'zal ilmiy izlanishlari uning amaliy faoliyatidan hech qachon ayri bo'lmagan. U o'zining tadqiqotlari bilan turkiy olamda ma'naviyat va ma'rifat kurashchisi sifatida tanilgan. Chunki uning olimlik faoliyati faqat kitoblaridagina qolib ketmaydi, balki har bir fikr-qarashlarini hayotga tadbqiq qilishga harakat qiladi. Olim uchun til orqali millat ruhini asrash, turkiy tilni dunyo tili darajasiga ko'tarish, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida adabiyot imkoniyat-imtiyozlaridan foydalanish, umumqadriyatlar aks etgan san'at vositasida turkiy dunyoni birlashtirish va hokazo oliy istaklar hamisha ustuvordir. Abdurahmon Go'zalning ushbu maqsad matlabi nafaqat Turkiyada, balki boshqa davlatlarda ham qadrlanadi. Xususan, “Dunyo tili - turkiy” nomli xalqaro konferensiyaning bosh tashkilotchilaridan ekanligi uni turk dunyosiga mujohid tilshunos sifatida tanitdi. Bugungi turk tilining ravnaqi va keng iste'moli natijalari ortida Abdurahmon Go'zalning aql-zakovati, zahmatli izlanishlari, qat'iyat va jasorati bor. Olimning har

qanday reja-tadbirlari, avvalo, tadqiqotlarida aks etadi. Har bir o'rtaga tashlanadigan mulohazalarida ilmiy xulosalari, tajribalariga asoslanadi. Uning turli sohalaridagi izlanishlari ko'p bo'lsa-da, biroq adabiyotshunos va tilshunosligi bo'rtib turadi. Abdurahmon Go'zalning olimlik qiyofasi ma'lum sohalar bilangina belgilanmaydi. Uning tasavvuf haqidagi orifona tahlillari ilohiyotchiligi, qo'lyozmalarni qiyoslab akadem nashrlarni amalga oshirishi matnunosligini, xalq og'zaki ijodi xususidagi xalqona tahlillari, tarixiy talqinlari tafakkur muarrixini ekanligini, nodir asarlarni tanlab tarjima qilishi zakiiy mutarjimligini, millat uchun foydali tadbirlarning mukammal rejalarini tuzib, amalga oshirishi mumtoz siyosatchilardan ekanligini to'laqonli tasdiqlaydi. Xullas, Abdurahmon Go'zalning qomusiy olim ekanligi allaqachon tan olingan. Uning ilmiy faoliyatida o'zbek ijodkorlari va adabiyotshunoslari bilan samimiy aloqasi ham e'tirofga molik. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy to'g'risidagi tadqiqotlari, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosi bilan bog'liq izlanishlarida o'zbek adabiyotshunoslari bilan hamkorligi ikki millat ilmiy ravnaqiga birday xizmat qilgan. Abdurahmon Go'zalning mutafakkir va mutasavvif shoir Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi bilan tanishishi hamda shoir haqida katta ilmiy-amaliy harakatlari nafaqat olim tarjimai holidi, balki turk navoiyshunosligida yangi bir sahifani ochdi, desak hech mubolag'a emas. Ilohiyotchi-adabiyotshunosning Ahmad Yassaviy, Yunus Emro, Sulaymon Boqirg'oniy, Qayg'usiz Abdol haqidagi yirik tadqiqotlari Navoiy shaxsi va asarlarini oson va mukammal tushunishi uchun bir poydevor bo'lganligi aniq. Zero, ustoz navoiyshunos Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek: "Navoiygacha bo'lgan adabiyot shoir tug'ilishi uchun zamin hozirlagan bo'lsa, undan keyingi adabiyot mutafakkir ta'siri ostida harakatga

kelgan". Darhaqiqat, Abdurahmon Go'zal adabiyotshunoslikda oliy adabiyot deya baholangan Alisher Navoiy ijodining ilohiy mohiyati hamda komil badiiyatiga xolis baho berdi. Va o'zining chuqur ilmiy izlanishlarini amaliy harakatlari bilan uyg'unlikda boshladi. Navoiy asarlarini keng targ'ib qilish, shoirning sharaflari hayoti va turkiy tilni san'at tiliga aylantirishdagi salohiyatini tushuntirish yo'lida Turkiya Respublikasi Bashkent universiteti huzurida 2022 yil 10 fevralda "Alisher Navoiy tadqiqot va targ'ibot markazi"ning tashkil etilishi esa tahsinga loyiq. Abdurahmon Go'zal markazni tashkil etish muhimligini anglatish maqsadida Navoiyning "millatlarga hayot baxsh etgan boqiy ruh sifatiga ega shaxsiyat" ekanligini dalillovchi, katta ijtimoiy-madaniy taraqqiyotlarning dunyoga kelishida buyuk shoirning o'rnini isbotlovchi maqolalar yaratdi. Shoirning hayot yo'li, davlat arbobi va adabiy shaxsiyati, turk tili taraqqiyoti yo'lidagi ulkan xizmati va asarlari haqida alohida ilmiy xulosalarga ega izlanishlar olib bordi. Jumladan, "Alisher Navoiyning turkiy tilga muhabbat" nomli maqolasida: "Navoiy O'rxun bitiklaridan beri jonli va uyg'oq bo'lgan milliy tuyg'u va shuurning, Turklik va Turkchilik ruhining eng buyuk namoyandalaridan biridir." Navoiyga ko'ra, til bir millatning tamal belgisi hisoblanadi. Milliy tilga ega bo'lmasdan turib, millat bo'lib bo'lmaydi. Biroq millat bo'lish uchun tilning mavjudligi yetarli emas, bu tilning qayta ishlanishi va iste'molda bo'lishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan "... Turkcha gaplashib, turkcha yozmaydigan turklar turk hisoblanmaydi" [Dizdarog'lu 1966: 294] singari odil hukmlarni havola qiladi. Abdurahmon Go'zalning talqinlarida, tanlagan iqtiboslarida hamisha qat'iy qarashlar, keskin xulosalar bo'ladi. Bu tahliliy fikrlar birlamchi asarni tushunishga, so'ngra insoniyat nafsini tarbiyalashga, ko'ngilni poklashga qaratiladi. Turkiy mushohada

mezonlarini ham olim xotirdan aslo faromush etmaydi. Mana shu kabi mushtarak yondashuv olim tadqiqqlarining to'g'ri va ta'sirli bo'lishini ta'minlagan. O'z fikrlarini dalillashda har doim matnlarga asoslanganligini alohida urg'ulash lozim. Ushbu: "Navoiy millatning borligi va milliy birlikni yaratish uchun til birligini ta'minlash zarurligini o'z hayotidan ibrat qilib quyidagicha anglatadi:

*Olibmen taxti farmonimg'a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham,
Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig'a bir devon yibordim", –*

kabilar mana shu yo'sindagi tahlillaridan biridir. Navoiyning tilshunosligi, uning ona tilini she'riyat tiliga aylantirishdagi xizmatlari dunyo navoiyshunosligida qayta-qayta e'tirof etilgan. Ammo Abdurahmon Go'zal kabi butun umr turkiy til qayg'usi bilan yongan odamgina tilni tarixiy ildizlaridan boshlab muqoyasa qila oladi va quyidagicha yangi nazariy xulosalarni ayta oladi: "Ma'lumki, Mahmud Qashqariy, XII asr oxirida "Devoni lug'otit-turk" asarini yozib, turk tili va turk madaniyatining kelajagini ta'minladi. Navoiy esa Qoshg'ariydan 400 yildan keyin o'z tili va madaniyatini xuddi shunday tafakkur va hayajon bilan himoya qilgan. Turk tili va turk madaniyati xavf ostida qolgan bir davrda u o'zining mantiqli hamda ta'sirli chiqishi, beqiyos sa'y-harakatlari bilan butun umri davomida milliy til va adabiyotni o'z mohiyatiga qaytarish, rivojlantirish yo'lida ijod qildi. U ham olim, ham san'atkor, ham davlat arbobi sifatida butun borlig'i bilan xalqiga xizmat qildi". Navoiyning

irfoniy dostonlari borasidagi tadqiqotlari bilan ham Abdurahmon Go'zal navoiyshunoslikdagi irfoniy-g'oyaviy bo'shliqlarni to'ldirishi shubhasiz. Xususan, uning "Hayrat ul-abror" dostoni haqidagi izlanishlari navoiyshunoslikda yangi bir uslubdagi tadqiqotdir. Olimning "Hayrat ul-abrorda tasavvufiy unsurlarga misollar" maqolasi fikrimizni to'la quvvatlaydi. Ma'rifiy tahlil va talqinlar asosida Navoiyning diniy-tasavvufiy qarashlarini, asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib beradi. "Yetuk adabiyotshunos bo'lish uchun, avvalo, fors, arab va turk tillarini juda yaxshi o'rganish kerak. Tarix, din va adabiyot tarixini ham puxta bilish lozim. Men bugungi adabiyotshunoslikda oldingilarni takrorlashdan boshqa narsani ko'rmayapman", - deya talab qo'ygan adabiyotshunosning o'zida mana shu xislatlar jamuljam ekanligini tadqiqotlari isbotlab turibdi. Shu bois uning Navoiy asarlari tadqiqida shariat, tariqat, badiiyat va bani basharning nafs tarbiyasidagi ahamiyati kabi jihatlar uyg'unlikda qaraladi. Natijada, shoir, tarixchi, dinshunos, axloqshunos Navoiy asarlaridagi maqsad va mazmun teran ochib beriladi. "Hayrat ul-abror" dostonida tasavvufiy unsurlarga namunalar" nomli tadqiqotida dostonning har bir bob, maqolot, hikoyatlariga alohida izoh va sharhlar berishi adabiyotshunosning qomusiy olim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Abdurahmon Go'zalga xos bu tafakkur kengligini sodda ifodalay olish mahorati asarning mohiyatini yoshlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Asarning Ishq haqidagi maqolotini sharhlab shunday deydi: "Falaklarning yaratilish sababi ishqdir va shu sababdan yer yuzida hayot boshlangan birinchi tongda inson ruh sharobidan mast bo'lgan... Haqiqiy oshiq dard bilan yashaydi. U o'z nafsidan poklanib, sarg'ayib, so'nib, g'am-g'ussa ostida qoladi... Qalbiga ishq tushgan, ya'ni sodiq oshiqlarning joyi zohidlarning yoni emas. Agar o'zlarini

najotda ko'rgan zohidlar doimo oshiqlarni malomat qilsalar, agar u xirqasini tuzoq etib, vujud qushini ovlasa va tasbeh donalari bilan u qushni bog'lasa ham, oshiq baribir sevgidan mast bo'lib o'rtaga chiqadi". Dostondagi har bir o'rin mana shunday aniq va tizim bilan tushuntirilishi Abdurahmon Go'zalga xos batafsillik, chuqurlik, teranlik va mohiyatbinlikni namoyon qiladi. Shoirning barcha asarlari xususida olimning qisqa, lo'nda, aniq xulosalari mavjud. Masalan, so'nggi asariga: "Navoiy, deyarli, barcha asarlarida, ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida axloq va xarakter bilan aloqador qarashlarini bayon qiladi. U bu asarida bir siyosiy arbob sifatida namoyon bo'ladi. Yaxshi va yomon ish va odatlar haqida so'zlab, diniy axloq qoidalarini tushuntiruvchi axloqshunos o'laroq mazkur mavzudagi maqollarni juda yaxshi qo'llagan holda odamlarga ko'plab foydali maslahatlar beradi", - deya ta'rif beradi. Abdurahmon Go'zal tahlillarida Navoiyning turkiy tilni ilm hamda badiiyat tiliga aylantirishdagi jasorati va mahorati nafasi har doim seziladi, urg'ulanadi. Xoh g'oya, xoh shakl, xoh uslub bo'lsin, hatto asardagi an'anaviy qahramonlar haqida ham turkiy tafakkurga diqqat qaratadi: "Navoiyning yana bir muhim jihati shundaki, u o'z asarlarida milliy tip va xarakterlardan foydalangan. Forsiy adabiyotda qo'llanilgan qahramonlar Navoiy asarlarida faqat nomlarinigina saqlab qolgan holda turkiy shaxsiyatni tamsil etgan" kabi qarashlarni o'rtaga tashlab, o'z xulosalarni nazariy asosladi.

Uning Alisher Navoiy tadqiqot markazida dunyo navoiyshunosligi, xususan, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, Xalqaro Alisher Navoiy fondi bilan olib borayotgan hamkorligi o'zbek navoiyshunoslari uchun ham quvonarli va qimmatlidir.

Tashkilotchining: “Bu boradagi birinchi tashabbusimiz O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va davlat universitetlari bilan hamkorlik bo‘ldi”, - e‘tirofi ham diqqatga molik. Markazda Navoiy asarlarining mukammal nashrlarini yaratish, uning asarlarini tahlil va talqin etuvchi tadqiqotlar olib borish, turkiy til jonkuyari Navoiyning xizmatlarini ochib beruvchi xalqaro konferensiyalar o‘tkazish kabi oliy maqsadlar qo‘yildi. Albatta, Navoiy asarlari turli davlatlarda mavjud. Ammo bu markazning shoir asarlari va Navoiyga bag‘ishlangan tadqiqotlar jamlangan bir kutubxona ham yaratish vazifasi navoiyshunoslikdagi muhim yutuq bo‘lishi aniq. Alisher Navoiy ijodi va chig‘atoy adabiyoti bilan shug‘ullangan olimlarni “Alisher Navoiy buyuk” mukofoti bilan taqdirlash ham markazning hadaflaridan biridir. Markaz maslagining ilk amaliy ijrosi Navoiyning muhtasham haykali o‘rnatilgan bog‘ning barpo etilishi bo‘ldi.

Adabiyot, xususan, Qur‘oni karim va Hadisi sharifga asoslangan, xalq ruhini tamsili bo‘lmish ona tildagi irfoniy adabiyot qalblarni asir etadi, ko‘ngil rishtalarini bog‘laydi. Ma‘naviy yaqinlik, birlik, butunlikni ta‘minlaydi. Turkiy tilni arabiy va forsiy so‘zlar bilan kelinchakdek bezatgan Navoiy turkiy tilning barcha lahja, shevalarini ajratmasdan barobar qo‘llashi samarasida o‘z ijodi bilan turkiy til lug‘at boyligini asrab qoldi hamda uning lisoniy imkon-imtiyoz chegaralarini sarhadsiz bir kengliklarga olib chiqdi. Shuning uchun uning ilhomida butun turkiy qavmlar ruhoniyyati mujassam. Alisher Navoiy asarlarida turkiy tilning jamiki balog‘ati, fasohati, hassosiyati, shiddati namoyon bo‘lgan. Shoirning:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur, -*

haqli faxriyasini teran anglagan adabiyotshunos Abdurahmon Go'zalning quyidagi maqsud-u matlabi har bir navoiyshunosda bo'lishi lozim: "Buyuk turk olimi va turkiyning buyuk shoiri Alisher Navoiy vafotidan besh yuz yil o'tgan bo'lsa ham o'z fikri va shaxsiyati bilan hamon oramizda yashamoqda. Turk tiliga hurmati, til va shaxs haqidagi fikrlari o'z ahamiyat hamda ta'sirini yo'qotmadi. Minglab baytlardan iborat lirikasida uning o'ziga xos uslubi, ijodkor shaxsini ko'ramiz. Sharqiy turklar tili va adabiyoti u yaratgan tamallarda yuksaldi. Agar Alisher Navoiy unutilsa, Turk kimligi o'zining asoslaridan birini yo'qotadi. Bolalarimiz va yoshlarimiz Alisher Navoiyni, albatta, bilishi va tushunishi kerak. Shuning uchun biz Navoiy kulliyoti ustida ishlashimiz, bu asarlarni turkiyning har bir shevasida nashr etishimiz va har bir turkning mazkur asarlarni birday anglashini ta'minlashimiz kerak". Biz o'zbek adabiyotining faxri Alisher Navoiy borasidagi izlanishlarida bir maslakdosh, ko'makchi bo'lganimizdan mamnunmiz. Ustoz adabiyotshunos Abdurahmon Go'zalga tashakkurimizni izhor qilib, Parvardigordan xayrli va uzoq umr tilab qolamiz.

IBROHIM HAQQUL – NAVOIYSHUNOS

Alisher Navoiy insoniyat tarixiga shaxsi va ijodiyoti bilan muhim ta'sir ko'rsatgan ijodkorlardan. Ma'lumki, uning komil shaxsiyati va betakror ijodiy merosi haqida fikr-mulohazalar o'z davridayoq bildirila boshlangan. Navoiyning ijodkor ruhi, hassos qalbi, donishmandona siyosati hamisha ibrat bo'lgan. Shu ma'noda har zamonning shoir to'g'risida o'z tasavvuri va bahosi bor. Bugun u haqida yozilgan asaru tadqiqotlarni sinchiklab o'qish va undagi haqiqatlarni ajratish ham katta bilimni talab qiladi. Ayniqsa, din, tasavvuf, tarixdan ajratilgan XX asr navoiyshunosligini ilm va adolat elagidan o'tkazish juda og'ir. Navoiyshunoslik tarixiga nazar solsak, Alisher Navoiy hayot yo'li va ijodiyoti haqida yaxlit va yakrang tasavvurga ega bo'lishimiz qiyin. Chunki boshqa sohalar kabi Navoiyni o'rganish zamon, siyosat, jamiyatning umum qonun-qoidalari, davr ma'naviy dunyoqarashi doirasidan yuqoriga ko'tarila olmagan. Har bir zamon adabiyotshunosligi daho ijodkorni o'zicha kashf qilgan. Bu nuqtai nazarni hatto birgina navoiyshunos olim tadqiqatlari haqida ham aytish mumkin. Navoiyshunoslik tarixigina emas, hatto ba'zi navoiyshunoslarning Navoiy haqidagi mulohazalari turli davrda turlicha. E'tiqodiy kurashlar, adabiyotshunoslikka qo'yilgan talabu tazyiqlardan yuksalib so'z ayta olgan navoiyshunos dunyo adabiyotshunosligida ham noyobdir. Aytish mumkinki, Ibrohim Haqqul mana shunday kamyob adabiyotshunoslardan. Ilk ijodidan to bugungacha bo'lgan ijodiga nazar solsak ham Ibrohim Haqqul, avvalo, Alisher Navoiy siymosini yaratishda haqiqatdan zarra qadar chekinmagan adabiyotshunos ekanligiga guvoh bo'lamiz.

XX asr va asrimiz navoiyshunosligida ustoz adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tadqiqotlarining o'z o'rnini bor, ularning bari adabiyotshunosligimizda alohida hodisa ekanligiga shubha yo'q.

Haqiqat shuki, adabiyotshunoslikda ilmiy-irfoniyl bir til va ma'rifiyl bir uslub yaratgan ustoz tadqiqotlari bilan navoiyshunoslik yangi bir o'zanga kirdi. Bir so'z bilan aytganda, Ibrohim Haqqul mutafakkir va mutasavvif Navoiyl hayot yo'li hamda ijodiy merosini qanday mezonlarda tahlil va talqin qilish lozimligini belgilab berdi. Uning, deyarli, barcha maqolalari navoiyshunoslikda yangilik sifatida qabul qilindi. *"Tasavvuf va Navoiyl she'riyatini munosabatiga doir"*, *"Mansur Halloj va Alisher Navoiyl"*, *"Navoiyl she'riyatida fano talqinlari"*, *"Ruh rahmoni erur..."*, *"Alisher Navoiyl ijodiyotining olamshumul ahamiyati"*, *"Navoiyl she'riyatida Haq va shaxs munosabati"*, *"Ruhoniyat va nafsoniyat tazodi"*, *"Alisher Navoiyl va Abusaid Mirzo"*, *"Navoiyl taxalluslarining ma'no qirralari haqida"*, *"Malomatiylilik va Navoiyl"*, *"Navoiyl ijodida dunyo timsoli va talqinlari"*, *"Navoiyl ijodida «adam va vujud» falsafasi"*, *"Navoiyl va Fitrat"*, *"Navoiyl she'riyatida idrok tamali"*, *"Navoiyl she'riyatida er va eran obrazi"* bu qatorni uzoq davom ettirish mumkin. Mazkur maqolalarni o'qir ekansiz hayrat va tafakkurga g'arq bo'lasiz. Ilk hayrat mavzuning tanlanishidan boshlanadi. Ustozning biror maqolasi boshqasini takrorlamaydi. Har biri Navoiyl hayoti va ijodiyotining yangi bir jihatini ochib beradi. Ibrohim Haqqul birovning izidan yurmaydi yoxud ma'lum bir mavzu atrofida aylanmaydi. Akademik Baxtiyor Nazarov ham: "Ibrohim Haqqulov ustozlardan keyin ularning Alisher Navoiyl haqida yozganlari, aytganlarini takrorlamadi. Aksincha, buyuk shoirni bizga yanada yaqinroq qildi"⁹², – degan edi. Ibrohim Haqqulning

⁹² Mohiyatga muhabbat. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – B.31.

kichik maqolalari ham katta tadqiqotlar uchun asos va turtki bo'lganligini alohida e'tirof etish lozim. Bu mavzularning aksariyati ustoz shogirdlari tomonidan monografik tadqiq qilindi. Jumladan, Navoiy asarlarida ko'ngil, rang, rind, faqir, orif, er, eran, murshid va murid obrazlari; "Masnaviy" va "Lison ut-tayr"dagi hikoyatlarning qiyosiy talqini", "Xamsat ul-mutahayyirin" asari badiiyati", "Abduqodir Hayitmetov – navoiyshunos" va hokazo. Nafaqat izdoshlar, balki ko'plab navoiyshunoslar izlanishlari ustoz maqolalari ta'sirida dunyoga kelgan. Bugun bemalol aytish mumkin, Ibrohim Haqqul navoiyshunoslikda o'ziga xos maktab yaratdi.

Navoiy, darhaqiqat, daho san'atkor. Uning asarlarida til jozibasi, shakliy go'zallik hamda ma'no haqiqatlari birlashadi. Natijada, til, uslub va g'oyaviy jihatdan nodir bir asar dunyoga keladi. Mana shu uch jihat navoiyshunos Ibrohim Haqqulda ham mukammal tarzda mavjud. Uning tahlil va talqinlaridagi mazmun-mohiyat o'zlik xususida tafakkur qilishga undaydi, ruhoniylar zavqqa oshno qiladi. Bayon sehriga esa tamomila maftun bo'lasiz. Bunday natijaga erishmoq uchun mana ustoz nima deydi: "Hazrat Navoiy – oriflarning shoiri. Qalb tazkiyasi, ya'ni qalbni poklash ilmi inson hayotida muhim o'rin tutadi. Oltinchi tuyg'u kamdan-kam odamlarga nasib qilar ekan. Men Navoiyni anglash uchun ham mana shu tuyg'u zarur, deb o'ylayman. Bugungi kun odamlarida ham aksariyat ana shu tuyg'u yetishmaydi". Yana bir maqolasida esa yanada keskinlashadi: "Mustaqil fikrdan mahrum, maydakash yoki molday ergashuvchi kimsalar hech vaqt Navoiyni tushuna olmaydi. Tushunsa ham ayrim ilm ahliga o'xshab "o'zicha" tushunadi".

Navoiyni go'yo hamma o'qiydi, biladi. Lekin shoirning na hayot yo'li, na shaxsiyati, na asarlari xususida negadir yangi gap

aytolmaydi. Ma'lum va mavjud fikr-qarashlar atrofida sarson-sargardon aylanib, besamar kezadi. Chunki qalban, ruhan Navoiydan juda yiroq. Navoiydagi adolat, rostlik, zavq, dard, ishq, fanovashlik, bir so'z bilan aytganda, mushohada va axloqni anglash hamda ular haqida gapirish uchun bir qadar mana shu tuyg'ular bilan yashash kerak. Shundagina bu kechinmalar his qilinadi va so'zga aylana oladi. Ibrohim Haqqul tadqiqotlarida asarlarning qayta tug'ilishi siri aynan mana shunda. Mashoyixlar "Tildagi tilda, dildan chiqqani dilda qoladi" deydi. "Tasavvuf va she'riyat", "Zanjirband sher qoshida", "Kamol et kasbkim...", "Navoiyga qaytish" kabi kitoblarning keng ommaga manzur bo'lishi muallifdagi hassosiyat, zakiylik va yashash tarzi mushtarakligidandir. Ibrohim Haqqul hech qachon o'zi yashamagan holdan bahs yuritmaydi, o'zi yurmagan "so'qmoq"larni tasvirlamaydi. Shu bois uning tadqiqotlarida ohang, rang, tasvir garmoniyasi bor. Navoiy haqida aytgan mana bu: "Alisher Navoiy badiiy ijodda inson qavmidan nima olgan bo'lsa, uning ko'nglidan o'zlashtirgan; odam to'g'risida u nima yozgan bo'lsa, uning ruh ovozini tinglab, botiniy hollarini juda aniq idrok etib yozgan", – xulosasini ustoz ijodi haqida ham aytish mumkin.

Ibrohim Haqqul tadqiqotlarida Alisher Navoiyning ijodkorlikdagi baland rutbasi, ruhoniyligi, siyosiy jasorati yorqin anglashiladi. Navoiy haqida yangi ma'lumot, o'zga ta'rifu tavsifga duch kelinadi. Masalan, "Dunyoning u chekkasidan kirib, bu chekkasidan chiqing, Navoiydagi ko'ngil xolisligi, fikr va tushuncha tozaligi, Haq va haqiqatga sadoqatni hech bir joydan topolmaysiz. Navoiyning Shaxsi adabiyot, siyosat, falsafa, hattoki, din va tasavvufga nisbatan ham oliy bir teranlikni tamsil etadi. Navoiy shaxsiyatidagi Dard, Iztirob, Harakat, Mahzunlikdan ko'z yumilsa, Navoiyni tanimay qolasiz.

Yashashdan qancha charchab, toliqmasin, buyuk shoir ikki narsadan aslo bezmagan. Zerikmagan. Ulardan biri – hayot. Ikkinchisi – taassurot”, deya shoir shaxsi va ijodi haqida yorqin tasavvur hosil qiladi.

Ibrohim Haqqul sharq va g’arb, mumtoz va muosir adabiyot xususida o’z fikr-qarashlariga ega, yirik tadqiqotlar yaratgan adabiyotshunos. Biroq ustozning ijodida navoiyshunoslik alohida mavzu. Ibrohim Haqqulning navoiyshunosligi ma’lum bir evolyusiyaga ega. Ustoz ilk ilmiy izlanishlaridan to hanuzgacha Alisher Navoiy hayoti va ijodi tadqiqidan hech to’xtamagan.

Navoiy ko’ngil muarrix. Buni anglash uchun Insoniyat tarixidan, uning rostu yolg’onlaridan bir qadar xabardor bo’lish lozim. Shu bilan birga “tarix g’ildiragi”ni yurituvchilarning maqsad-muddaolarini ham fahmlashga qodir zehniyat talab qilinadi. Mana shundagina adabiyotga asri saodat sog’inchini, “asrlar g’ami”, “yillar armoni”ni ko’ylovchi san’at nuqtai nazari bilan qaraladi. Va nihoyat, mahdudlik mezoni ko’tarilib, o’tmish va bugun o’tkir mushohada nuqtasida birlashadi. Ustoz mana shunday “Odamiylik va odamshunoslik” fanini chuqur va puxta egallagan “tarixchi”lardan. Shu bois insonshunos Navoiyni tushunish va tushuntirish Ibrohim Haqqulda osonroq kechgan. Ustoz tahlillarida zamon, makon mehvarlari unutiladi. Barcha tadqiqotlarida shoir bilan fikrdoshlik, hamdardlik bor, go’yoki zamondoshlik nafasi tuyiladi. U moziy adabiyotni bugunning quvonchu qayg’usini aytishga xizmat qildiradi. Navoiy tasvirlagan baxtiyor darvesh, mahzun oshiq, qalandar podshoh navoiyshunosning ham orzu umidlarida yashaydi. Demoqchimizki, aksar adabiyotshunoslar tahlillarida Alisher Navoiy bilan olti asrlik masofa aniq ko’rinadi. U izlanishlar xuddi “oldingilarning afsonalari”dek o’qiladi, bugun uchun na ilmiy

yangiligi, na tarbiyaviy ahamiyati bor. Shu ma'noda ham Ibrohim Haqqul Navoiyga qalban, ruhan yaqin bo'lgan, unga holdoshlikka uringan olim. Shu o'rinda akademik To'ra Mirzaevning e'tirofini eslash o'rinlidir: "Ibrohim Haqqulning mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlariga xos ikki muhim jihat e'tiborga molik: birinchidan, u ajdodlarimiz merosiga ulkan muhabbat bilan yondashib, shoirlar ruhiyatiga chuqurroq kirib borishga intiladi, ikkinchidan, mavzuga bugunning talabi, davrning nigohi bilan qaraydi. Ibrohim Haqqul tadqiqotlarini o'qigan kishi ularda o'ziga to'la ishonch bilan gapirayotgan katiyatli, teran bilim va katta tajriba bilan mushohada yuritayotgan fikr-mulohazalarini shirali til va hassos ruhda ifodalaydigan shoirona qalb sohibining ovozini eshitadi"⁹³.

Alisher Navoiy bir necha janrlarda ijod qilgan. Har bir janr xususiyatidan kelib chiqib, shoir turli uslublardan foydalangan va yangi-yangi usullarni kiritgan. Uning uslubdagi mahorat va salohiyati ustoz navoiyshunosda ham ko'zga tashlanadi. Uning talqinlari ibratli hikoyatlar bilan yanadi ta'sirli va aniq chiqqan. Payg'ambarlar tarixi, diniy rivoyatlar, turli elatlarning urf-odatlarini aks ettiruvchi hikoyatlar bilan ham yaxshi tanish bo'lgani uchun Navoiy maqsadini anglash, ruhiy holatini his etish va uni kitobxonga yetkazishda shoir va olim orasida hamohanglik bo'lgan.

Navoiy mutasavvif shoir. Uning nafaqat ijod, balki hayot yo'lini ham din va tasavvufdan ayri izohlash mumkin emas. Navoiy ijodiyoti degan muhtasham qasrga islom dini va tasavvuf ta'limoti orqaligina borilishi bugun sir emas. I.Haqqul navoiyshunoslikdagi ushbu to'g'ri yo'lni ilk bora aytib, yo'l ochib berganlarning birinchilaridan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

⁹³ Ibrohim Haqqul. Mushohada yog'dusi I. – Toshkent: Fan, 2009. – B.6.

Darhaqiqat, tasavvufshunos-navoiyshunos A.Abduqodirov ta'kidlaganidek, 1991 yilda chop etilgan "Tasavvuf va she'riyat" kitobi "o'zbek adabiyoshunosligida chindan ham inqilob yaratdi"⁹⁴. Mana shu kitobdan olingan quyidagi parchaga e'tiboringizni qaratmoqchiman: "Buyuk daholar, allomalar barcha asrlarda ham bashariyat qayg'ulariga malham so'zni axtarganlar. Shohu gadoning ong va yurak xastaliklarini bab-barobar tuzatadigan jonbaxsh so'zlar, afsuski, g'oyatda siyrak yaralgan. Navoiyning bu to'g'rida o'ylamasligi mumkin emasdi. Mana, shu yo'nalishdagi bir fikr:

*Olam ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko'ngli aro hamroh erur.
Qur'onni tilovat etsin ar ogoh erur,
El ko'ngliga chun davo Kalomulloh erur.*

El ko'ngliga Kalomulloh davo bo'lmog'iga Navoiy shubhalanmagan"⁹⁵.

Ustozning mazkur masalalar bilan bog'liq qator maqolalari chop etildi. Aytish mumkinki, ustoz Ibrohim Haqqul asarlari orqali o'zbek kitobxoni bir qadar Navoiyni tanidi, chindan ham mohiyatbinlikda "Navoiyga qaytish" bo'ldi. Xalqimizning sevimli adibi Xurshid Davron: "Ulug'vor merosning ma'lum qismidan bahra olish talabi har birimizda mavjud bo'lishini istayman. Eng dahshati, bobomerosimizni targ'ib qilishda uchraydigan chalamullaligu farosatsizlik bilan bog'liq har qanday holatga kuchim boricha qarshi borishni burchim deb bilaman. Bu istak ham muayyan ma'noda Ibrohim Haqqul va uning adabiy maqolalari tufayli shakllanganini alohida ta'kidlayman", – degan edi. Bunday iqrор aslida

⁹⁴ Mohiyatga muhabbat. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – B.64.

⁹⁵ Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991. – B.121.

ko'plarda bor va bo'lishi ham kerak. Zero, Ibrohim Haqqul tadqiqotlarida inson va ilohiyot, inson va tabiat, inson va jamiyat mushtarakdir. Inson bir vaqtning o'zida ilohiy rishtaga bog'lanadi, tabiat va jamiyatning farzandi ekanini ham unutmaydi. Ruhياتda ko'hna xotiralar tiklanadi, ko'ngilda farahbaxsh iztiroblar yig'laydi, nafsda xorlik boshlanadi. Natijada, bir soflik dunyoga keladi. Alaloqibat dunyoi dun asirligidan bir lahza bo'lsa-da ozod bo'lib, o'zligingni anglash, foni dunyo imtihonining mohiyatini mushohada qilishga majbur bo'lasan. Bularning bariga adabiyotshunos ilohiy chashmadan suv ichgan Adabiyotning qudrati orqali erishadi. Navoiyning asarlariga tayanadi. Xullas, akademik Naim Karimov ta'kidlaganidek: "Ibrohim Haqqul – hozircha bitta. U bundan keyin ham bitta bo'lib qoladi. Zero, haqiqiy shoirlar ham, haqiqiy olimlar ham bitta-bitta bo'lib dunyoga keladilar. Lekin oradan vaqt o'tishi, yangi avlodlarning yetishib chiqishi va shakllanishi bilan Ibrohim Haqqulning shogirdlari orasidan ham Ibrohimlar yetishib chiqadi. Balki ularning bitta-yarimtasi ham uning darajasiga ko'tarilar. Lekin shunda ham u bitta Ibrohim Haqqul bo'lib qoladi"⁹⁶.

⁹⁶ Mohiyatga muhabbat. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – B.22.

ZANJIRBAND SHER QOSHIDA...

Yaratganning izn-u ixtiyoridagi tarix shaxslarni yaratadi. Yoxud tarixga aylanuvchi, tarix yaratuvchi bandalarini Alloh taolo o'zi tanlaydi. Bunda u qadar tafovut yo'q. Ammo ustoz Ibrohim Haqqul Parvardigorning mana shunday mumtoz qullaridan ekanligiga shubha yo'q. Ibrohim Haqqul nafaqat o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining ma'naviy tug'ilishi, balki o'zbek xalqida milliy uyg'onish bo'lgan ma'lum bir vatanparvar, xalqparvar, erkparvar avlod yetishgan og'ir davrda dunyoga keldi. Uning asarlaridagi ilohiy haqiqat, ruhoniylar hurriyat, xalqona samimiyat, turkona shiddat aks-sadosi bevosita ana shu davrda muqaddas so'z bayrog'ini ko'tarib jasorat maydonida jangga otlangan abadiyat farzandlarining urhosi edi. Ustozning "Zanjirband sher qoshida" kitobi buning yorqin dalilidir. Hozirga qadar qo'lma-qo'l o'qilayotgan mazkur kitob 2021 yil qayta nashr qilindi. Kitobni tahrirlash jarayonida domla o'sha davrlarga qaytdi yoxud ko'ngil zindonida asrayotgan ba'zi xotiralarini oshkor qildi. Kitobni men o'qib turdim, domla tahrir qildilar. Deyarli, o'zgarish bo'lmadi, ammo men domlaning ozgina bo'lsa ham yurak urishlarini yaqinroq eshitganimdan bugun Parvardigorga shukrim bor...

Ibrohim Haqqul 30 dan ortiq kitoblar muallifi. Adabiyotshunos har bir kitobining o'quvchisini ko'z o'ngida aniq tasavvur qilgan. "Zanjirband sher qoshida" kitobi asosan, ozod shaxsiyat orzu qilingan yoshlarga bag'ishlangan. Ammo uni kattalar, hatto daho ijodkorlar ham maroq va mushohada bilan mutolaa qilgani aniq. Millat saviyasi uchun qayg'urgan olimning yoshlarga mo'jallangan maqolalarida ham hikmat ma'rifati, bayon badiiyati pasaymaydi. Ustoz adabiyotshunos Ergash Ochilov ta'kidlaganidek: "Aslida Ibrohim Haqqul uncha tushunarli va ommabop ham yozmaydi. Ba'zida u hatto xoslar

uchun yozadiganday bo'lib tuyuladi. U hech qachon o'quvchi darajasiga tushmagan, balki hamisha keng o'quvchilar ommasini o'z orqasidan ergashtirib kelgan". Darhaqiqat, ustoz tadqiqotlari tafakkur va taxayyulga g'arq qiladi. Yuraklarda o'z ismini topa olmay qiynalayotgan tuyg'ularga ism topib beradi. Ruh tirikligi, qalb sog'lomligini ta'minlayotgan qudsiy hislarga oshno etadi. Inson o'zining oliy maxluqot ekanligini, odamligini, bandaligini anglab, ko'ngil haqiqiy huzun va chin huzurni his qiladi.

Kitob "Tabiat – go'zallik va hurlik saltanati" nomli maqola bilan boshlanadi. Shoirlar 18 ming olam tilini anglashga harakat qilgan dilshunoslardir. Ular tabiat bilan ham sirlashishgan. Barcha maxluqotlarni anglash, ular bilan rozlashish Xoliqning qudratini yanada teranroq tuyishga olib kelgan. Natijada, odamlar Qodiri mutlaqning Yaratuvchiligini, uning marhamatini tafakkur qilib, o'zining qulligini yanada chuqurroq anglagan. Ibrohim Haqqul Haqqa qullik mohiyati haqida mushohada yuritgan, bandalik sirrini bilgan sari boshqa barcha borliq oldida hur va ozodligini baralla aytgan. Va erk tuyg'usi butun hayotiga aylangan. Ustozdagi to'g'rilik, jur'at zamini Haqqa qulligidan. "Alisher Navoiy asarlarida tabiat, eng avvalo, chinakam hurlik tayanchi, erk saltanati sifatida ulug'lanadi. Ha, tabiat va insonni ajratib bo'lmaydi Bolalikda har kimning borib jimgina quchadigan daraxtlari bo'ladi. Ularni kimdir quchoqlab quvnagan, kimdir yig'lagan. Bu daraxtlarni qaysidir bolakayning armonlari larzaga solgan. Ehtimol, norasida bir go'dak shodliklari tufayli daraxt ildizi zaminga chuqurroq botgandir". Qismat, taqdiri azal Odam avlodlari uchun hamisha sirtiligicha qolgan. Domlaning tahlil va talqinlaridagi ko'ngillarga yaqin soddalik olimning ruh pokligi bilan aloqador. Ibrohim Haqqul go'yo bolaligida o'zgacha tuyg'ular, boshqacha bir tasavvurlar bilan ulg'aygan. Olimdagi olamni rangin ko'ra olish qobiliyati va

tasvirlaridagi tiniqlik fikrimizni to'laqonli tasdiqlaydi. Ibrohim Haqqul, adabiyot, she'riyat maxzanidan hech kim ilg'amagan asrorlarni topgan va uni hammaga ham nasib etavermaydigan ilhom bilan boshqalarga yetkaza olgan. Ustozning kitob sahifalaridagi "Ma'lumki, tabiat she'riyatda bevosita manzara yoki badiiy tasvir vositasi o'laroq aksini topadi. Lekin har ikki holatda ham u inson qalbi, ruhi, ehtirosi, dard va kechinmalari bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Sharq she'riyati tarixi – o'ziga xos tabiat qomusidir" kabi har bir jumlasini betakror hikmat, ilmiy-nazariy xulosalar sifatida qabul qilish mumkin. Bu mulohazalarga 30 yildan oshdi. Ammo shu nuqtai nazardan bugun ham adabiyot tadqiqiga tom ma'noda kirishilganligiga ishonib bo'lmaydi. Tabiat va inson munosabati ko'rsatilgan asarlarning ta'siri, yashovchanligini hech inkor qilib bo'lmaydi. Buni ko'p adabiyotshunoslar anglaydi. Biroq Ibrohim Haqqulday aniq va lo'nda ifodalash adabiyotshunoslikda har kimga ham nasib etavermaydi. Ustozning jonli uslubi, sehrli bayoni hammaga ayon. Ibrohim Haqqul ona tilini asrash, uni millat ruhi o'laroq qabul qilish haqida ko'p qayg'urgan va kurashganlardan biri. Ustoz bu masalada qator maqolalari bilan chiqish qilganligi xalqqa ma'lumdir. Ammo Ibrohim Haqqulning til mujodalasi shular bilan cheklanmaydi, bil'aks butun ijodi bilan isbotlanadi. Bugungi adabiyotshunoslik to'g'ri uslubni tanlash uchun ham ustoz asarlarini tadqiq etishi, o'rganishi zarur. Ustozda turkiy mumtoz adabiyot, umuman, o'zbek millati ruhiyatiga begona bo'lgan biror so'zni uchratmaysiz. Men bugun ustozning ilmdagi terminbozlikka juda qadar qattiq kurashganligini g'oyat tushunaman. Chunki ustoz qarshi turgan, ilm deya qabul qilmagan ba'zi ishlar ta'sirida terminbozlik asosidagi ilmbozlik urchidi. Badiiy asar ruhiga yod bo'lgan g'arb terminologiyasi asosida go'yoki tahlillar qilinyapti. Vaholanki, bu ilmbozlik,

nafaqat adabiyot, balki millatga xiyonatdir. Millatning ruhi deya tan olingan tilning buzilishiga adabiyotshunoslar qanchalar hissa qo'shayotganligini o'z asarlariga qarab baho berishi va tan olishi fursati allaqachon kelgan. "Zanjirband sher qoshida"dan o'qiymiz: "Avlodlardan-avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik – Til. Ona til bor ekan, Vatan bor. Xalqning umr o'lchovini tili belgilaydi... Bosqinchilar nima qilmasinlar, bizning tariximiz qiyofasi xiralashib, biz undan yiroqlashib qolganimiz yo'q-ku! Negaki, ona tilimiz barhayot bo'lgan". Domla o'z fikrlarini hamisha tarix haqiqatlariga bog'laydi va shunday deydi: "Tarix – Xotira poydevori. Xotirasizlik – sotqinlik, jaholatparastlik. Shuning uchun Vatan tarixini chuqur bilmasdan, o'tmishda zahmatkash el tarbiyalab voyaga yetkazgan ulug' siymolarning taqdiri, insonparvarlik ishlari va azoblaridan kechib, mukammallik da'volarida yashash vahshiylikdan o'zga narsa emas". Albatta, ajdodlar g'urur, sadoqat ruhini avlodlarga singdirishgan. Kitobda shu kabi ulug' qadriyatlar ta'sirli rivoyat va afsonalar orqali tushuntiriladi. Manqurtlik fojiasi oqibatlaridan ham bu kitobda sodda bayonda ogohlantiriladi. Ibrohim Haqqul yuragi katta odam va olim edi. Uning qayg'usi, dardi butun millat, insoniyatga daxldor. U dunyoni ilohiy asarlarning tarjimoni bo'lmish, so'z asiri bo'lgan adabiyot orqali erishishiga ishonardi. Domla keyingi davr adabiyotidan ko'ngli to'lmasdi. Adabiyotni Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mashrab kabi daho ijodkorlar, hatto Fitrat, Qodiriy, Cho'lponlar iste'dodi bilan emas, Abdulla Oripovning umumjahoniy falsafasi, Rauf Parfining o'zturk qayg'usi, Shukur Xolmirzaevning o'zbekona g'ururi, Shavkat Rahmonning turkona shiddati, Usmon Azimning baxshiyona huzuni, Xurshid Davronning tarixiy iftixori, Nazar Eshonqulning ozod nigohi... tarozisi bilan o'lchardi. Domla uchun ijodkorda egilib-bukilmaydigan butun shaxsiyat bo'lishi

muhim edi. Iste'dod shaxs kamoloti sanalardi. Shaxssiz, shaxsiyatsiz odamlardan katta maqsadlar yoxud o'lmas asarlar kutmasdi. Eng nafratga duchor qiladigani maydakashlik, notantilik, qo'rqqoqlik, iste'dodsizlik edi. G'urur, or-nomus, vijdon, himmat bari-bari domlaning tirgaklari edi. "Nainki ilm-fan, san'at va adabiyot, balki davlat, millat hamda Vatanning ham noyob boyligi, tayanch tog'i Shaxsdir. Olomon va to'dachilik ofatlaridan qutulishni ko'zlagan xalqning oliy maqsadi Shaxsni voyaga yetkazish bo'lmog'i kerak". Bu kabi shaxs hasrati asarda boshdan oyoq sochilib ketgan.

Avvalo, kitobni tartiblashda avlod tarbiyasi uchun muhim jihatlar belgilanadi va bu masalalarni yorituvchi maqolalar yaratiladi. Bilim – e'tiqod nuri, "Boshni fido ayla...", "Qachon xalq bo'lasan...", "Hasad – hazarli hushyorlik", "Ichkilik – afsus suvi", "Tama – to'ng'ich "o'g'il", "Nafsni yengmoq – mardlik va shijoat", "Xatoni anglamoq – xalos bo'lmoq", "Nodonlik – yovuzlik", "Vafosizda hayo yo'q...", "Saxovat – tan, himmat – jon", "Barchadin sharaflisi – komil inson" singari qator maqolalarining nomiyoq mavzu mohiyatidan xabar beradi. Biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shunga qaramay ustoz uchun takror-takror murojaat qiladigan ba'zi mavzular bor. Shulardan biri – ishqdir. Zero, dunyoning yaratilishi ishq bilan. Uning asrori tugamaydi. Sarlavhadanoq muammoning mohiyati yuz ochadi: "Ishq – haqiqat, ishq – tiriklik". Olimning ishq to'g'risidagi fikr-qarashlari keyingi asarlarida rivojlantirilgan. Oshiqlik, fanovashlik, junun, malomatravishlik – nafs tarbiyasi masalasi Ibrohim Haqqulning har bir kitobida yangi qirralarini namoyon qilgan. Bu asar yoshlarbop bo'lganligini bois ifoda ham shunga muvofiq. Jumlar qisqa, so'z tanlashda ham hatto xalqonalik bor. Kitobdagi 10 dan ortiq afsona va rivoyatlarni yig'ganda ham bolalar uchun ibratli risola, adabiyotning

maqsadini anglash uchun tarbiyaviy qo'llanmaga asos bo'ladi. Bu ham Ibrohim Haqquldagi uslub mahoratini belgilaydi.

“Zanjirband sher qoshida” Navoiy asarlari tahliliga bag'ishlangan. Ammo shoirning salaf va xalaflari, xalq og'zaki ijodi namunalari, g'arb adabiyotidan ham yetarlicha manbalar ko'rilib, ma'lumotlar yig'ilgan. Turli mavzudagi maqolalardan jamlangan ushbu kitob katta tayyorgarlik bilan yozilgan. Ibrohim Haqqul hech qachon shunchaki qo'liga qalam olmaydi. Uning farah va anduhi insoniyatga tegishlidir. Kitob bir so'z bilan aytganda, vatan va erkka bag'ishlangan. Til ham, tufrog' ham, tabiat ham, rang ham – bari Vatan. “Tufrog' bo'lg'il” maqolasi shunday yakunlanadi: “Oshiqning “tufrog' o'lub” evrilishi vafo va sadoqatning yuksak bosqichiga ko'tarilishi demak. Ozarbayjon bayotiyalaridan birida bunday deyilgan:

Azizim, jona galdim,

Kechdim, bu yona galdim.

Turon tufrog'in go'rdim,


Dina, imona galdim.

Ustoz tahlillarida Turon tufrog'i – din va imon timsolida sharaflantirilgan. Ibrohim Haqqul uchun she'riyat – VATAN, she'riyat – ERK, she'riyat – XALQdir: “She'riyat – Vatan. Shu ma'noda Vatanki, chinakam she'riyatda tarixi uyg'oq, erki daxlsiz, umrlari bezavol jonajon yurt yashaydi. She'riyat – xalq. Shu mazmunda xalqki, uning bag'rida tafakkuri ozod odamlar birlashadi. Shuning uchun u olomon ustidan shafqatsiz aybnomalar o'qiydi”. Kitobda zanjirband sher tilga olinmaydi. Ammo bu asar yengaman degan hayqiriq bilan mardi maydonga otlangan zanjirband sher ruhida yozilgan. Ibrohim Haqqul o'zbek adabiyotshunosligida **zanjirband bir sher**, Haq va haqiqat uchun kafanini yelkasida ko'targan **bir er** edi. Talqin va tahlillaridagi vatan, millat, erk haqidagi alamli hayqiriqlar

ustozda umrining oxirigacha pasaymagan, aksincha, kuchaygan. Faqat ustoz keyingi asarlarida “Zanjirband sher”dagi kabi bir daryo emas, hamma haqiqatlarni bag‘riga yashirgan sokin ummonga aylangan edi...

MUNDARIJA

Irfon, g'oya va talqin	3
Shariat va tariqat mushtarakligi	13
Hadislar haqiqati va Navoiy ijodi	27
Ishq savdosi	37
Dunyo dengizida taqvo kemadir.....	42
Tavba aylab, tavbada mardona bo'l	46
Soqiy-murshid obrazi	54
Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol.....	62
Kamolot kasbining komil sohibi	69
Yetti vodiylar sayri	75
“Mahbub ul-qulub”da ma'naviy valodat masalasi	93
Ahli fano va faqr murshidi	102
Alisher Navoiy asarlari nashri va Porso Shamsiev	108
Abdurahmon Go'zal Navoiy ijodiyoti tadqiqotchisi va targ'ibotchisi	114
Ibrohim Haqqul – navoiyshunos	122
Zanjirband sher qoshida.....	130



ZULAYHO ABDURAHMON

NAVOIYSHUNOSLIK MANZILLARI

Muharrir:	Sh.Muhammedov
Texnik muharrir:	G. Ne'matova
Dizayner:	S.Jiyanov
Sahifalovchi:	SH. Muhiddinov

2211



Nashr. lits. № 220812 08.02.2024.
Bosmaxonaga berildi: 10.12.2023. Bosishga ruxsat etildi: 11.11.2024.
Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozi. Times New Roman garniturası.
Shartli bosma tabog'i 8,75. Nashr hisob tabog'i 5,6.
Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 25-11.
"SARVARPRINT" MCHJ nashriyoti. Toshkent shahar,
Uchtepa tumani 11 mavze 2 uy 69 xonadon.

Bosmaxona. lits. № 220812 08.02.2024.
«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop
etildi. Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.